



**MUSIQA TA'LIMI VA DEFEKTOLOGIYA
KAFEDRASI**

BOLALAR RIVOJLANISHIDAGI NUQSONLARINING

KLINIK ASOSLARI FANINING

O'QUV –USLUBIY MAJMUASI

Chirchiq-2019 yil

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT VILOYATI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

“TASDIQLAYMAN”

O'quv ishlari bo'yicha
prorektor I.Q.Xaydarov

“ ____ ” _____ 2019-yil

**BOLALAR RIVOJLANISHIDAGI NUQSONLARINING
KLINIK ASOSLARI
FANINING
o'quv-uslubiy majmuasi**

Bilim sohasi:	100000 – Gumanitar
Ta'limsohasi:	110000 – Pedagogika
Ta'lim yo'nalishi:	5111900 – Defektologiya Logopediya

Mashg'ulot turi	Ajratilgan soat	Semestr	
		I	II
1. Ma'ruza	76	30	46
2. Amaliy mashg'ulot	114	46	68
3. Mustaqil ta'lim	120	48	72
Umumiy o'quv soat	310	124	186

Chirchiq-2019 yil

Fanning ishchi o'quv dasturi Ozbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi - sonli buyrug'i bilan (buyruqinig 2 - ilovasi) tasdiqlangan.
" BOLALAR RIVOJLANISHIDAGI NUQSONLARINING KLINIK ASOSLARI" fani dasturi asosida tayyorlangan.

Fanning ishchi o'quv dasturi Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti Kengashining 2019 yil "___" _____dagi "___" – sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchi: G.S.Abdullayeva

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida o'qituvchisi

1.

Taqrizchilar: N.X.Raxmankulova

Abdulla Avloniy nomidagi xalq ta'limi xodimlarini qayta tayorlash va malakasini oshirish markaziy insituti rektori pedagogika fanlari doktori, professor.

Z.M. Axmedova

pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti "Korreksion pedagogika" kafedrasida mudiri

Fanning ishchi o'quv dasturi Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti kengashining 2019 yil «___» _____dagi ___ - sonli majlisida muhokamadan o'tkazilgan.

Fakulteti dekani:

p.f.d.,professor. Sh.Q.Mardonov

Fanning ishchi o'quv dasturi Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasining 2019 yil «___» _____dagi ___ - sonli majlisida ko'rib chiqilgan va tasdiqlashga tavsiya qilingan.

Kafedra mudiri

katta o'qituvchi O.M.Jabborova

1.O'quv fani o'qitilishi bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar

Mazkur fan dasturi talabaning shu fan bo'yicha egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalari minimumi aniqlangan ya'ni imkoniyati cheklangan bolalardagi nuqsonlarning kelib chiqish sabablari va bola psixik va jismoniy rivojlanishiga ta'siri, inson organizmining umumiy tuzilishi va turli nuqsonlar mavjud bo'lgandagi holati, bosh miya va asab tizimi faoliyati, ko'rish, eshitish va nutq sensorlarining faoliyati, fiziologiyasi va patologiyasi, ulardagi turli kasalliklarning kelib chiqish sabablari va inson umumiy va ma'lum xususiyatlari rivojiga ta'siri kabi masalalarni o'rganishdan iborat.

Fan bo'yicha talabalarning bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan **talablar**:

“Bolalar rivojlanishdagi nuqsonlarining klinik asoslari” o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida:

- defektologiyaning klinik asoslari to'g'risidagi umumiy tushunchalar;
- nevrologiya va nevropatologiya haqida umumiy tushunchalar;
- inson bosh miyasi anatomiyasi va fiziologiyasi, bosh miya qobig'i;
- inson bosh miyasi asablari tuzilishi va fiziologik xususiyatlari;
- inson oliy asab tizimi faoliyati va uni tadqiq qilish metodlari;
- inson oliy asab tizimi patologiyasi va kasalliklari etiologiyasi;
- inson harakatlanish tizimi;
- inson koordinatsion va ekstrapiramid tizimi;
- inson reflektor tizimi, sezgi organlari fiziologiyasi va patologiyasi;
- inson nutq organlari anatomiyasi va fiziologiyasi;
- inson nutq organlari patologiyasi va kasalliklar etiologiyasi;
- nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar rivojlanishning psixo-fiziologik xususiyatlari;
- bola rivojining psixik xususiyatlari;
- psixik buzilishlar sabablari va bola salomatligiga ta'siri;
- psixik rivojlanishi sust va aqli zaif bolalar rivojlanishning psixo-fiziologik xususiyatlari va ularni aniqlash metodlarini **bilishi**;

Tibbiy adabiyotlar va hujjatlardan foydalanish, egallagan bilimlarini defektologiya sohasiga oid boshqa bilimlarni o‘zlashtirishda, pedagogik amaliyot va keyinchalik amaliy kasbiy faoliyati jarayonida qo‘llay olish **ko‘nikmalariga**;

-imkoniyati cheklangan bolalar anamneziga oid ma’lumotlarni shakllantirish va reabilitatsiya va korreksion-pedagogik jarayonlarda ulardan samarali foydalana olish **malakalariga** ega bo‘lishi lozim.

2. Ma’ruza mashg’ulotlari.

		1-jadval
№	Ma’ruzalar mavzulari	Dars soatlari hajmi
1-semestr		
1 - Modul. Nevropatologiya		
1	“Bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarning klinik asoslari” fanining maqsad va vazifalari	2
2	Nevrologiya va nevropatologiya haqida umumiy tushunchalar	2
3	Inson bosh miyasi anatomiyasi, fiziologiyasi va patologiyasi	4
4	Inson bosh miyasi po‘stlog‘i	4
5	Inson bosh miya asablari anatomiyasi, fiziologiyasi va patologiyasi	4
6	Inson asab tizimini tadqiq qilish metodlari	4
7	Inson koordinatsion va ekstrapiramid tizimi	4
8	Inson harakatlanish tizimi.	2
9	Inson reflektor tizimi	2
10	Inson sezgi organlari fiziologiyasi va anatomiyasi	2 30 soat
II-semestr		
2 Modul. Inson nutq organlari haqida asosiy tushunchalar		
11	Inson nutq organlari haqida asosiy tushunchalar	4
12	Inson nutq organlari markaziy tizimi	4
13	Inson nutq organlari periferik tizimi	4
14	Inson nutq organlari markaziy va periferik tizimlari patologiyasi	4
15	Inson nutqi nuqsonlarini o‘rganish metodlari	4
16	Nutqida nuqsoni bor bolalar bolalar rivojlanishining psixo-	4

	fiziologik xususiyatlari	
3 Modul. Psixpatologiya		
17	Bolalar psixiatriyasi	4
18	Bolalar psixikasining buzilishi	4
19	Turli kasalliklarda uchraydigan psixik buzilishlar	4
20	Bolalar psixozlari va nevrozlari	4
21	Bolalar shizofreniyasi	4
22	Psixiatriyada qo'llaniladigan kompleks davo-pedagogik choralar.	2
	Jami:	46 soat

Mazkur fan o'qish jarayonida ta'labaning zamonaviy metodlar, pedagogik va axborot Jihozlar va uskunalar, moslamalar: elektron doska-Hitachi, LCD-monitor, elektron ko'rsatgich (ukazka).

Video-audio uskunalar: video va audiomagnitofon, mikrofon, kolonkalar.

Kompyuter va multimediali vositalar: kompyuter, Dell tipidagi proektor, DVD-diskovod, Web-kamera, video-ko'z (glazok).

3. Amaliy mashg'ulotlar

2-jadval

№	3. Amaliy mashg'ulotlar mavzulari	Dars soatlari hajmi
1-semestr		
1	“Bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarning klinik asoslari” fanining predmeti va vazifalari. Nevrologiya. Nevropatologiya. Ularning o'рни va ahamiyati.	4
2	Inson boshmiyasi. Uning tuzilishi va funksiyalari. Patologiyasining asosiy ko'rinishlari.	4
3	Bosh miya patologiyasining inson umumiy salomatligiga ta'siri	4
4	Inson bosh miyasi po'stlog'i. Tuzilishi. Funksiyalari. Patologiyasi va uning oqibatlari.	4
5	Bosh miya asablari tuzilishi. Patologiyasining asosiy ko'rinishlari. Bosh miya asablaridagi buzilishlarning inson psixik va jismoniy salomatligiga ta'siri.	4
6	Inson asab tizimini o'rganish. Xorijiy davlatlar tajribasi. O'zbekiston tajribasi.	4
7	Inson asab tizimi tadqiqotlarining defektologiyadagi ahamiyati.	4

8	Inson koordinatsion tizimi. Ekstrapiramid tizim. Ulardagi patologiya va kasalliklar ta'sirida buzilishlar oqibatlari.	4
9	Harakatlanish tizimi anatomiyasi. Tizim organlarining funksiyalari. Patologik va kasalliklar natijasida buzilishlar ta'siri va oqibatlari.	4
10	Reflektor tizimi. Tuzilishi va undagi organlar funksiyalari. Reflektor buzilishlari va ularning psixik va jismoniy salomatlikka ta'siri.	4
11	Inson sezgi organlari.	4
12	Sezgi organlarining funksional turlari. Anatomiyasi.	2
		46 soat
2-semestr		
1	Inson nutqi. Nutq organlari anatomiyasi. Nutq organlari funksiyalari.	4
2	Markaziy nutq organlari tizimi. Uning qismlari va funksiyalari.	4
3	Periferik nutq organlari tizimi. Uning qismlari va funksiyalari.	4
4	Nutq organlarining patologik va kasalliklar sababli buzilishlari hamda oqibatlari.	4
5	Nutqdagi nuqsonlarni tibbiy tashxislash. Nutqdagi nuqsonlar klinikasi va profilaktikasi. Logopedik aralashuv.	4
6	Nutqida nuqsoni bor bolalar rivojlanishining psixik xususiyatlari. Mazkur toifa bolalar rivojlanishining fiziologik xususiyatlari.	4
7	Tibbiy va pedagogik korreksiyasining o'ziga xosligi. Maxsus ta'lim muassasasiga tashrif.	4
8	Bolalar psixopatologiyasi. Bolalar psixiatriyasi. Ularning zamonaviy rivojlanish holati va defektologiyadagi ahamiyati.	4
9	Bolalar psixikasi buzilishi sabablari. Tug'ma nuqsonlar.	4
10	Yuqumli kasalliklarning inson psixikasiga ta'siri.	4
11	Yuqumli kasalliklar davrida psixik oqibatlar profilaktikasi.	4
12	Jarohatlarning inson psixikasiga ta'siri va oqibatlari.	4
13	Shikastlanishlar va jarohatlarning psixikaga ta'sirini kamaytirish choralari.	4
14	Bolalar psixozlari.	4
15	Bolalar nevrozlari. Ularning kelib chiqish sabablari. Klinikasi va profilaktikasi.	4
16	Bolalar shizofreneyasi.	4
17	Turlari va kelib chiqish sabablari. Klinikasi va profilaktikasi.	4
	Jami:	68 soat

4. Mustaqil ta'lim

3-jadval

No	Mustaqil ta'lim mavzulari	
1-semestr		
1	Polimelit kasalligining kelib chiqish sabablari va asoratlari.	4
2	Meningit kasalligining kelib chiqish sabablari va asoratlari.	4
3	Enstefalitlar kasalligining kelib chiqish sabablari va asoratlari.	4
4	Bosh miya jarohatlarining kelib chiqish sabablari va asoratlari.	4
5	Epilepsiya kasalligining kelib chiqish sabablari va asoratlari.	4
6	Nevroz kasalligining kelib chiqish sabablari va asoratlari.	4
7	Bolalar sterebral falajining kelib chiqish sabablari va asoratlari	4
8	Logonevrozlarning kelib chiqish sabablari va asoratlari.	4
9	Koxlear nevit.	4
10	Miner kasalligining kelib chiqish sabablari va asoratlari.	4
11	Eshituv nervining nevitining kelib chiqish sabablari va asoratlari.	4
12	Toksik nevitlarning kelib chiqish sabablari va asoratlari.	4
	Jami:	48 soat
2-semestr		
1	Bolalik yoshidagi kar soqovlik va karlik.	4
2	Laringit kasalligining kelib chiqish sabablari va asoratlari.	4
3	Difteriya kasalligining kelib chiqish sabablari va asoratlari.	4
4	Hiqildoqning qo'shimcha kasalliklarining kelib chiqish sabablari va asoratlari.	4
5	Xromosoma kasalliklarining kelib chiqish sabablari va asoratlari.	4
6	Infekstion kasallik sababli kelib chikkan oligofreniya.	4
7	Moddalar almashinuvining buzilishi natijasida kelib chiqqan oligofreniya.	4
8	Gidrostefaliyaning kelib chiqish sabablari va asoratlari.	4
9	Mikrostefaliyaning kelib chiqish sabablari va asoratlari.	4
10	Jarohatlanish natijasida kelib chiqqan oligofreniyaga ta'rif bering.	4
11	Shizofrenik demenstiyaning kelib chiqish sabablari va asoratlari.	4
12	Tug`ruq travmasidan kelib chiqqan oligofreniyaga ta'rif bering.	4

13	Nevroz va psixozlar.	4
14	Neyro infektistiyalardagi ruhiy o'zgarishlar.	4
15	Epilepsiyadagi ruhiy buzilishlar.	4
16	Toksikomaniya, alkogolizm va narkomaniyadagi ruhiy buzilishlar	4
17	Shizofreniyaning turlari	4
18	Epileptik demenstiya	4
	Jami:	72 soat
	Jami:	120

Talaba mustaqil ishini tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalardan tegishli bo'lim va mavzularni o'rganish;
 - fanning tegishli bo'limi bo'yicha mahsus adabiyotlar bilan ishlash;
 - o'rganilayotgan bo'lim va mavzular bo'yicha o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarni olib borish;
 - ijodiy va muammoli o'quv topshiriqlarni bajarish.
- Mazkur fandan namunaviy ishchi o'quv rejada kurs ishi kiritilmagan.

5. Fan bo'yicha talabalar bilimni baholash va nazorat qilish mezonlari.

Baholash usullari

Baholash mezonlari

Amaliy, yozma, og'zaki so'rov, prezentastiyalar

5 baho - "a'lo"

-Ijodiy fikrlay olish. Mustaqil mushohada yuritish, amalda qo'llay olish. Pedagogik texnologiyani interfaol uslublarni amaliyotda to'liq qo'llay olish, dars ishlanmalar tuza olish, mavzuga oid asarlarni ifodali va mukkamal ijro etish, darsga ijodiy, kko'rgazmali – axborotli uslublari bilan yondashish. Egallagan bilimlarga asoslanib xulosa va qaror qabul qilish. Mustaqil ish topshiriqlarga to'liq va to'g'ri bajarilib ijodiy yondashilsa .

4 baho - "yahshi"

-Pedagogik texnologiyani interfaol uslublarni amaliyotda to'liq qo'llay olish, dars ishlanmalar tuza olish, mavzuga oid asarlardan namunalar ijrpo etish., darsga ijodiy, ko'rgazmali – axborotli uslublari bilan yondashish . Mustaqil mushohada yuritish. Mohiyatini tushunish bilib aytib berish. Tasavvurga ega bo'lishi.Mustao'il ish yuzasidan topshiriqlar to'liq va to'g'ri bajarilsa.

3 baho - "qoniqarli"

-Pedagogik texnologiyani interfaol uslublarni amaliyotda to'liq

qo'llay olish, dars ishlanmalar tuza olish, mavzuga oid asarlardan namunalar ijrpo etish., Mavzuni tushunib mustaqil mushohada yurita olmasa. Mustaqil ish yuzasidan topshiriqlar yuzaki bajarilib xatoliklarga yo'l qo'yilsa..

2 baho - “qoniqarsiz”

-Pedagogik texnologiyani interfaol uslublarni amaliyotda to'liq qo'llay olmasa, dars ishlanmalar tuza olimasa, mavzuga oid asarlardan namunalar ijrpo etmasa., Mavzuni tushunib mustaqil mushohada yurita olmasa. Mustaqil ish yuzasidan topshiriqlarni bajara olmasa talabalarga 54 va undan past ball qo'yiladi.

Asosiy adabiyotlar

- 1.Po'latxo'jayeva M.R. Defektologiyaning klinik asoslari. O'quv qo'llanma. T.: TDPU – 2013.
2. Sodiqova Q, Aripova S.X, Shaxmurova G.A . Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi. T.: “Yangi asr avlodi” - 2009.
- 3.Michael Alan Taylor and Nutan Atre Valdyia - 2009
4. Alfredo Ardila “Aphasia Handbook” Florida International University -2014
5. Brad Bolon Fundamental Neuropathology for Pathologists and Toxicologists - 2011

Qo'shimcha adabiyotlar

6.Mirziyoev Shavkat Miromonovich. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq / Sh.M. Mirziyoev. – Toshkent : O'zbekiston, 2016. - 56 b.

7.Mirziyoev Shavkat Miromonovich. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar / Sh.M. Mirziyoev. – Toshkent : O'zbekiston, 2017. – 104 b.

8.Mirziyoev Shavkat Miromonovich. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016 yil 7 dekabr /Sh.M.Mirziyoev. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2017. – 48 b.

9.Mirziyoev Shavkat Miromonovich. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Mazkur kitobdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2016 yil 1 noyabrdan 24 noyabrga qadar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o'tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so'zlagan nutqlari o'rin olgan. /Sh.M.Mirziyoev. – Toshkent: : “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.

10. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI. O'zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida. (*O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami*, 2017 y., 6-son, 70-modda)

11 .Sodiqova G.Q. Bolalar nevrologiyasi T “ Iqtisod-moliya” 2008 y.

12. Davletshin M.G va boshqalar, Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. T-2004.

Internet saytlari

13.www.ziyonet.uz

14.www.edu.uz

15.www.tdpu.uz

16.www.pedagog.uz

17.www.defektolog.uz

Fan dasturi bajarilishining kalendar rejasi
(Nazariy mashg’ulot)

Fakul’tet nomi:	Pedagogika
Ta’lim yo`nalishi:	5111900-Defektologiya
Fanning nomi:	BOLALAR RIVOJLANISHIDAGI NUQSONLARINING KLINIK ASOSLARI
Nazariy mashg’ulot o’qituvchisi:	G.S.Abdullayeva

№	Mavzular nomi	Rela bo'yicha ajratilgan soat xajmi	Amalda bajarilishi		O'qituvchi imzosi
			soat	Sanasi	
1-semestr					
1.	“Bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarning klinik asoslari” fanining maqsad va vazifalari	2			
2.	Nevrologiya va nevropatologiya haqida umumiy tushunchalar	2			
3.	Inson bosh miyasi anatomiyasi, fiziologiyasi va patologiyasi	4			
4.	Inson bosh miyasi po'stlog'i	4			
5.	Inson bosh miya asablari anatomiyasi, fiziologiyasi va patologiyasi	4			
6.	Inson asab tizimini tadqiq qilish metodlari	4			
7.	Inson koordinatsion va ekstrapiramid tizimi	4			
8.	Inson harakatlanish tizimi.	2			
9.	Inson reflektor tizimi	2			
10.	Inson sezgi organlari fiziologiyasi va anatomiyasi	2			
Jami		30			
II semester					
1	Inson nutq organlari haqida asosiy tushunchalar	4			
2	Inson nutq organlari markaziy tizimi	4			
3	Inson nutq organlari periferik tizimi	4			
4	Inson nutq organlari markaziy va periferik tizimlari patologiyasi	4			
5	Inson nutqi nuqsonlarini o'rganish metodlari	4			
6	Nutqida nuqsoni bor bolalar bolalar rivojlanishining psixo-fiziologik xususiyatlari	4			
7	Bolalar psixiatriyasi	4			
8	Bolalar psixikasining buzilishi	4			
9	Turli kasalliklarda uchraydigan psixik buzilishlar	4			

10	Bolalar psixozlari va nevrozlari	4			
11	Bolalar shizofreniyasi	4			
12	Psixiatriyada qo'llaniladigan kompleks davo-pedagogik choralar	2			
	Jami	46			
	Umumiy	76			

KELISHILDI:

Fakul'teti dekani

Kafedra mudiri

Tuzuvchi o'qituvchi

Sh.Q.Mardonov

O.M.Jabborova

G.S.Abdullayeva

Kalendar rejaning bajarilishi xaqida kafedra mudiri xulosasi

_____ « ____ » _____ 2019yil _____ O.M.Jabborova

Fan dasturi bajarilishining kalendar rejası

3. (Amaliy mashg’ulot)

Fakul’tet nomi:	Pedagogika
Ta’lim yo`nalishi:	5111900-Defektologiya
Fanning nomi:	BOLALAR RIVOJLANISHIDAGI NUQSONLARINING KLINIK ASOSLARI
Amaliy mashg’ulot o’qituvchisi:	G.S.Abdullayeva

№	Mavzular nomi	Rela bo'yicha ajratilgan soat xajmi	Amalda bajarilishi		O'qituvchi imzosi
			soat	Sanasi	
1-semestr					
1.	“Bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarning klinik asoslari” fanining predmeti va vazifalari. Nevrologiya. Nevropatologiya. Ularning o‘rni va ahamiyati.	4			
2.	Inson boshmiyasi. Uning tuzilishi va funksiyalari. Patologiyasining asosiy ko‘rinishlari.	4			
3.	Bosh miya patologiyasining inson umumiy salomatligiga ta’siri	4			
4.	Inson bosh miyasi po‘stlog‘i. Tuzilishi. Funksiyalari. Patologiyasi va uning oqibatlari.	4			
5.	Bosh miya asablari tuzilishi. Patologiyasining asosiy ko‘rinishlari. Bosh miya asablaridagi buzilishlarning inson psixik va jismoniy salomatligiga ta’siri.	4			
6.	Inson asab tizimini o‘rganish. Xorijiy davlatlar tajribasi. O‘zbekiston tajribasi.	4			
7.	Inson asab tizimi tadqiqotlarining defektologiyadagi ahamiyati.	4			
8.	Inson koordinatsion tizimi. Ekstrapiramid tizim. Ulardagi patologiya va kasalliklar ta’sirida buzilishlar oqibatlari.	4			
9.	Harakatlanish tizimi anatomiyasi. Tizim organlarining funksiyalari. Patologik va kasalliklar natijasida buzilishlar ta’siri va oqibatlari	4			
10.	Reflektor tizimi. Tuzilishi va undagi organlar funksiyalari. Reflektor buzilishlari va ularning psixik va jismoniy salomatlikka ta’siri.	4			
11.	Inson sezgi organlari.	4			
12.	Sezgi organlarining funksional turlari. Anatomiyasi.	2			

Jami		46			
2-semestr					
1	Inson nutqi. Nutq organlari anatomiyasi. Nutq organlari funksiyalari.	4			
2	Markaziy nutq organlari tizimi. Uning qismlari va funksiyalari	4			
3	Periferik nutq organlari tizimi. Uning qismlari va funksiyalari.	4			
4	Nutq organlarining patologik va kasalliklar sababli buzilishlari hamda oqibatlari.	4			
5	Nutqdagi nuqsonlarni tibbiy tashxislash. Nutqdagi nuqsonlar klinikasi va profilaktikasi. Logopedik aralashuv.	4			
6	Nutqida nuqsoni bor bolalar rivojlanishining psixik xususiyatlari. Mazkur toifa bolalar rivojlanishining fiziologik xususiyatlari	4			
7	Tibbiy va pedagogik korreksiyasining o'ziga xosligi. Maxsus ta'lim muassasasiga tashrif.	4			
8	Bolalar psixopatologiyasi. Bolalar psixiatriyasi. Ularning zamonaviy rivojlanish holati va defektologiyadagi ahamiyati.	4			
9	Bolalar psixikasi buzilishi sabablari. Tug'ma nuqsonlar.	4			
10	Yuqumli kasalliklarning inson psixikasiga ta'siri	4			
11	Yuqumli kasalliklar davrida psixik oqibatlar profilaktikasi.	4			
12	Jarohatlarning inson psixikasiga ta'siri va oqibatlari.	4			
13	Shikastlanishlar va jarohatlarning psixikaga ta'sirini kamaytirish choralari.	4			
14	Bolalar psixozlari.	4			
15	Bolalar nevrozlari. Ularning kelib chiqish sabablari. Klinikasi va profilaktikasi.	4			
16	Bolalar shizofreniyasi.	4			
17	Turlari va kelib chiqish sabablari. Klinikasi va profilaktikasi.	4			
Jami		68			
Umumiy soat		114			

KELISHILDI:

Fakul'teti dekani

Kafedra mudiri

Tuzuvchi o'qituvchi

Sh.Q.Mardonov

O.M.Jabborova

G.S.Abdullayeva

Kalendar rejaning bajarilishi xaqida kafedra mudiri xulosasi

« » 2019 yil

_____ O.M.Jabborova

Fanning ishchi o'quv dasturi Ozbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi - sonli buyrug'i bilan

(buyruqinigi 2 - ilovasi) tasdiqlangan.

" BOLALAR RIVOJLANISHIDAGI NUQSONLARINING KLINIK ASOSLARI" fani dasturi asosida tayyorlangan.

Fanning ishchi o'quv dasturi Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti Kengashining 2019 yil “_27_” __08_____dagi “_1_” – sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchi: G.S.Abdullayeva

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasida o'qituvchisi

2.

Taqrizchilar: N.X.Raxmankulova

Abdulla Avloniy nomidagi xalq ta'limi xodimlarini qayta tayorlash va malakasini oshirish markaziy insituti rektori pedagogika fanlari doktori, professor.

Z.M. Axmedova

pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti “Korreksion pedagogika” kafedrasida mudiri

МУНДАРИЖА

I. Модулни ўқитишда фойдаланиладиган интерфаол таълим методлари.....	4
II. Назарий машғулот материаллари.....	11
III. Амалий машғулот материаллари.....	165
IV. Мустақил таълим мавзулари.....	200
V. Глоссарий.....	208
VI. Иловалар.....	215

Modulni o'qitishda foydalanadigan interfaol ta'lim metodlari

Nazariy mashg'ulotlar

1-Mavzu: “Bolalar rivojlanish nuqsonlarining klinik asoslari” fanining maqsad va vazifalari

REJA:

1. Ona qornida homilaning rivojlanishi
2. Anomal rivojlanishning asosiy sabablari
3. Bosh miya harakat nervlarining funksiyasi va shikastlanishi
4. Bosh miya nervlarini tekshirish usullari

Tayanch soʻzlar: homiladorlik, rivojlanish, nasliy kasallik, profilaktika, endokrin, erta tashhis, bosh miya nervlari, juft nervlar, koʻrish maydoni, adashgan nerv, mushak nervi.

Ona qornida normal rivojlanayotgan homila har xil zararli taʼsirlarga uchrashi mumkin. Bu esa homila rivoji anomal tarzda oʻtishi, hattoki tugʻilganda mayib, majruh koʻrinishga ega boʻlishi mumkin. Xuddi shu davrda homila asab sistemasi shakllana boshlagan boʻladi va har qanday zararli taʼsirlar uning jismoniy va aqliy qiyofasiga ziyon yetkazadi. Bolalardagi anomal holatlar yaʼni jismonan zaiflik, aqli zaiflik, nutqi rivojlanmaganligi – asosan tugʻilguniga qadar zararli taʼsirlar va tugʻilayotgandagi jarohatlanish oqibatidir. Demak, homiladorlik davrida ham har bir ayol oʻz sogʻligiga eʼtibor bergandagina sogʻlom farzand tugʻiladi.

Anomal rivojlanishning asosiy sabablari – ilgari har qanday anomal holdagi bolalarni nasliylik deb ham hisoblashgan. Nasliylik qonuniyatlari xaqida chuqur bilim boʻlmaganligi sababli hatto sil, sifilis, har turli ruhiy xastaliklar, alkogolizm va xakozolar nasldan naslga oʻtayotgan dard, yaʼni patologik davr deb baholashgan. Baʼzi mualliflar kar-soqovlik, aqli zaiflik kabi xastaliklar patologik nasliylik oqibati deb ham yanglish fikrlar bildirishgan. Chunki nasliylikka bogʻliq boʻlgan kasalliklarni amaliy tekshirish usullari yoʻq edi. Psixiatriya klinikada esa naslning buzilishi yoki degenerasiya degan nazariya ham bor edi. Bu nazariyaga koʻra har qanday normal yashab kelayotgan oila yoki avlod maʼlum bir muddatdan soʻng buzila boshlaydi, Bunday aynishning belgisi – oilada nogʻiron, nimjon, epileptik, aqli zaif bolalarning tugʻilishi emish. Albatta, hozirgi zamon ilm fan taraqqiyoti bunday nazariyaga barham berdi. Hozirgi kunda nasliylik bilan bogʻliq boʻlgan har turdagi xastaliklar juda chuqur oʻrganilar va tahlil qilinadi. Zaxm, sil, xronik alkogolizm va shunga oʻxshash xastliklar nasliy deb hisoblanmaydi. Zaxm va shunga oʻxshash kasalliklar bilan ogʻrigan, lekin oʻz vaqtida davolangan ota-onalardan tugʻilgan bolalarda zaxm alomati boʻlmasligi mumkin. Bunday bolalar qoni tarkibida Zaxm paydo qiluvchi spiroxet mikroblari aniqlanmaydi. Alkogolik ota-onalarning bolalari hech qachon, albatta, alkogolik boʻlib qolmaydi. Lekin, baʼzi hollarda bunday bolalarda nimjonlik, biroz ruhiy sustlashuv aqli zaiflik alomatlari boʻlishi mumkin. Bu alomatlar nasliylik alomati emas, balki ota-onalardagi zararli taʼsirlar natijasida homila rivojini bir muncha zaif va noqulay sharoitda kechganligi oqibatidir. Har bir ota-ona oʻz xastaliklari yoki illatlarini homilaga juda erta yuqtirishlarini va bu holat

tugʻilayotgan gудak sogʻligiga albatta taʼsir etishini yodda tutishlari lozim. Homilador ayollarning oziq-ovqat yoki har turli zararli gazlar bilan zararlanishi, lat yeyishi, ochlikda yurishi, homiladan qutilishi uchun qilgan keskin harakatlari (abort) homila bosh miyasining shikastlanishiga sabab boʻladi. Tashqi muhitning taʼsiri tufayli turli xil anomal rivoj topgan asab sistemasi oʻrganish va tahlil qilish bilan birga, nasliyligiga bogʻliq boʻlgan baʼzi bir ichki omillar (endokrin)ni ham chuqurroq oʻrganish lozim. Bu xususida nasliylig xaqida taʼlimotlarda nasliylig alomatlarini oʻzida saqlab, avloddan avlodga oʻtkazuvchi nuklein kislotalarining ahamiyatiga katta eʼtibor berilmoqda. (RNK, DNK – omillar).

Modda almashuvining nasliyligini har tamonlama oʻrganish va tahlil qilish ham katta ahamiyatga ega boʻlagn fan sohasi boʻlib qolmokda. Bu sohada olingan maʼlumotlar asab sistemasi patologiyasi xususiyatlarini ilmiy asosda oʻrganish imkoniyatlarini yaratdi. Olimlardan D.S.Futev, B.N.Kolosovskiy va ularning izdoshlari chaqaloqlar va yosh bolalar asab sistemalari patologiyasi ustida koʻp ilmiy izlanishlar olib bordilar. Yosh bolalarda matorika, nutq va psixik buzilishlarga sabab boʻladigan omillar qatoriga ona va homilaning qon tarkibi toʻgʻri kelmasligi (rezus-faktori) toksoplazmoz va yadroviy sariklikni kiritish mumkin.

L.Persianova maʼlumotlariga koʻra, ona va homila qornidagi kislota va ishkori muvozanati buzilganda ham homila rivojida asidoz, kislorod tanqisligi holatlari paydo boʻlishi mumkin. Baʼzi hollarda, bolaning tugʻilishi jarayonida jarohatlanish, keyinchalik har turli miya kasalliklari va normal ovqatlana olmaslik holatlari paydo boʻladi. Hozirgi kunda turli xildagi antibiotiklar, sifatli dori-darmonlar bilan miya kasalliklarini davolash imkoniyatlari yaratilgan. Albatta, bu borada xalqimizning madaniy salohiyati oʻsib borayotganligi asosiy omildir. Shunga qaramay, bunday anomal holatlarni bartaraf qilish uchun kasallikni paydo boʻlish sabablari, profilaktika (oldini olish) ishlarini bilish zarur. Masalan, embriogenezi jarayonida zararli taʼsirlar tufayli anomal rivojlanishning mayib-majruhlikning shaklini koʻraylik. Mayib boʻlib tugʻilishi sabablari har turli. Bir tomondan, homilaga zararli taʼsirlar (infeksiyalar, intoksikasiya, jarohatlar) boʻlsa, ikkinchi tomondan ana shu zararli taʼsirlar ona organizmining qaysidir sistemasini kundan kun susayib, nasliylig omilini paydo qilishi mumkin. Natijada ikki koʻli yoʻq yoki oyoqlari yoʻq, bir oyogʻi yoki bir oyogʻi kalta, qoʻshaloq boʻlib (siam egizaklari) tugʻilish hollari uchray turadi. Baʼzi hollarda bir tanada ikki boshli toʻrt oyoqli ammo qoʻshaloq egizaklarning birisi juda nozik boʻlib tugʻilishi ham klinikada kuzatilgan.

Bosh miya nervlari

Bosh miya nervlari orqa miya nervlariga juda oʻxshash. Ular miya asosidan tarqaladi. Bosh miya nervlarining oʻziga xos tuzilishi va funksiyasi, orqa miya nervlaridan farqlanadi. Ularning bir qismi harakat nervlari, ikkinchisi sezish nervlari, qolganlari aralash nervlardir.

I- juft hid sezuvchi-nerv

II- juft koʻruv nervi – sezuvchi nerv


III- juft koʻzni harakatlantiruvchi- nerv

IV- juft gʻaltak nerv -harakatlantiruvchi

- V- juft uch tarmoqli - aralash nerv
- VI- juft uzoqlashtiruvchi - harakatlantiruvchi nerv
- VII- juft yuz nerv-harakatlantiruvchi
- VIII- juft eshituv -sezuvchi nerv
- IX- juft til xalqum – aralash nerv
- X- juft adashgan - aralash nerv
- XI- juft qo‘shimcha – harakatlantiruvchi nerv
- XII- juft til osti – harakatlantiruvchi nerv

III-IV-VI nervlar ko‘z mushaklarini harakatlantiradi. Shu sababli ular ko‘z harakatlanishini idora qiladigan gruppasini tashkil qiladi. Yuqorida keltirilgan 12 juft bosh miya nervlaridan, 9 jufti harakatlanish funksiyasini boshqarishda qatnashadilar, ulardan 6 jufti faqat harakatlanish, 3 jufti aralash nervlar (bular ham harakat, ham sezish funksiyasini bajarishda qatnashadilar).

Tuzilish va funksiyasiga ko‘ra bosh miya nervlari orqa miya harakat nervlariga o‘xshash.



Harakat nervlarining 1 chi neyroni old markaz burmasining pastki bo‘lmasida joylashgan, uning aksoni esa o‘ziga tegishli bo‘lgan bosh miya harakatlanish yadrosiga boradi. 2 chi neyronni harakatlanish tolasi.

I-II-III-IV-V-VI-VII-VIII-IX-X-XI-XIIchi bosh miya nervlarining yadro hujayralaridan boshlanadi. Bu tola orqa miya old shohchasi hujayralariga o‘xshash va miya tanasiga joylashgan (asosan Varoliev ko‘prikchasida). Keyin esa harakat tomirchalari miya tanasidan o‘ziga tegishli bo‘lgan yuz mushaklariga, tish og‘iz bo‘shlig‘i va tomoq mushaklari tomon yo‘naladi.

Bosh miya harakat nervlari tomirchalari yadrosining shikastlanishi periferik paralich yoki parezlarda kuzatiladi. Markaziy qismi shikastlanganda bosh miya ta’sirida bo‘lgan hamma mushaklar paralichi rivojlanishi imkoniyati tug‘iladi, ammo bosh miya nervlariga ikkala yarim sharlardan kelayotgan ta’sir (innervasiya) tufayli (7 va 12 nervlardan tashqari), bir tomonlama shikastlanishda, faqat yuzning pastki qismidagi mushak (7 asab) va tilning yarmi (12 asab) markaziy paralich bo‘ladi. Bunda boshqa asablarga ziyon yetmaydi, chunki piramidal yo‘lining chalkashib ketgan yeridagi uzilishni uzluksiz holdagi piramidal ta’sir (innervasiya) muvozanatda saqlab turadi.


BOSH MIYA NERVLARINING FUNKSIYASI, SHIKASTLANISH ALOMATLARI VA ULARNI TEKSHIRISH USULLARI.

I juft hidlov nervi.

1-neyron va uning periferik o'simtasi burun shiliq qobig'ining yuqori bo'lmasida joylashgan. Bu hujayralar hidli moddalar ta'sirini bevosita qabul qilib, markaziy o'simtalar orqali bosh suyak bo'shlig'iga uzatadi. Bu hid sezish nervidir.

2-neyron bosh miyadagi hid sezish piyozchasida joylashgan. Bu piyozchadan 2-neyron tomirchalari chiqib, hid sezish yo'lini tashkil etadi. Hid sezish yo'lidagi har xil bo'lmalarda asablar uzilib qolishi va natijada bu yo'l 3- 4-neyronli yo'l bo'lib qolishi mumkin va ular hid sezish markazigacha borib to'xtaydi. Hid sezish nervlari funksiyasini tekshirishda har xil hidli moddalar qo'llaniladi. Hid sezish funksiyasi buzilishida hidlarni sezish hissi yo'qolgani (anosmiya) yoki kamayib ketganini aniqlanadi (giposmiya). Patologiya holida kamdan kam kuzatiladi.

II juft ko'ruv nervi- tuzilishi, vazifasi, zararlanishi va tekshirish usullari.



Ko'ruv analizatorining o'tkazgich yo'li to'rtta neyron zanjiridan iborat. I-II-III neyron hujayralari ko'z retinasi – to'r pardasida joylashgan. Birinchi neyron hujayralari ko'ruv hujayralari yoki ko'ruv tayoqchalari va kolbachalar esa uning markazida bo'ladi. Retinaning chetlarida, kolbachalar esa uning markazida bo'ladi. Retinaning markazida sarig' dog'da ko'plab kolbachalar bo'ladi, ular buyumlarni eng aniq ko'rish joyi hisoblanadi. Kolbachalar kunduzi ko'radigan va rangni

sezadigan hujayralardir, tayoqchalar esa buyumlarni qorong'ida ko'rishga yordam beradi. Ko'ruv hujayralarning protoplazmatik o'siqchalarida ko'ruv purpuri – rodopsin joylashgan bo'lib, yorug'lik ta'sirini nerv impulsiga aylantirib beradi. Hosil bo'lgan nerv impulslari birinchi neyron aksoni orqali ikkinchi nevronga, ya'ni bipolyar hujayralarning dendritlariga o'tkaziladi. Ganglioz hujayra aksonlari yig'ilib, ko'ruv nervini hosil qiladi.

Ko'ruv yo'llari miya oyoqchalarini tashqi tomonidan aylanib o'tib, yuqoriga ko'tariladi, miya moddasiga kiradi va ko'rish yostiqchasi do'ngi va oldingi ikki do'ng birlamchi markazda to'xtaydi yoki tashqi egri bugri tanada to'xtaydi. Shu yerga ko'z pardalari gangmioz hujayralari aksoni tugaydi va ikkinchi neyrondan ko'rish yog'dusi deb ataladigan ko'rish tutami boshlanadi. Bu tutam ichki xaltaning orqa qismidan yo'nalib miyaning gardon bo'lagida tugaydi. Tolalarning ana shu tugallangan joyi po'stloqli ko'rish analizatori hisoblanadi. Bu yerda ko'rish analizatori birinchi neyronda hosil bo'lgan nerv impulslarini nur va rang hissiyotlariga aylantirib beradi.

Shunday qilib, ko'rish yo'llari, birlamchi ko'rish markazlari, grasiole tutami, po'stoq ko'rish zonalar qarama-qarshi tomondagi ko'zning xuddi shunday tarkiblari bilan o'zaro bog'liq.

Yorug' nur ta'sirida ko'z qorachig'i torayadi, qorong'ilikdan kengayadi. (qorachig'ning to'g'ridan to'g'ri reaksiyasi). Ammo bir tomondagi ko'zni

yorug'likka tushirilsa, ikkinchi tomondagi ko'z qorachig'i ham torayadi (qorachig'ning nurga hamkorlik reaksiyasi).

Ko'rish o'tkirligi. Tekshirish o'n qator qilib, jadval shaklida joylashtirilgan harflar yordamida olib boriladi. Bemor jadvaldan 5 m uzoqlikda turib, eng kattasidan boshlab eng kichigi bo'lgan harflarni ilg'ay olishi va aytishi kerak. Agar bemor 10 qator harflarning hammasini aniqlay olsa, ko'rish o'tkirligi 1 deb hisoblanadi (har bir ko'zni alohida alohida tekshiriladi).

Agar bemor faqat birinchi qatordagi katta harflarni ko'ra olsa, uning ko'rish o'tkirligi 0,1 deb hisoblanadi va hokazo. Ko'ruv nervining uzilishi to'la ko'ra olmaslikka olib keladi (*amavroz*). Ko'rish o'tkirligini pasayishi *ambliopiya* deyiladi. Ko'rish o'tkirligi pasayishi refraksiyani o'zgarishi bilan bog'liq va bu kamchilik linzalar (oyna) yordamida to'g'rilanadi.

Ranglarni his qilish. Tekshirish professor Rabkin jadvali bo'yicha olib boriladi. Bunda har bir ko'z bilan jadvalning har varag'ini bir ko'z bilan o'qiladi. Po'stloq osti ko'rish asabi yoki po'stloq zonasi shikastlanganda ranglarni aniqlay olish bir muncha yoki butunlay buziladi. Ko'pincha qizil ranglarni anglash buziladi.

KO'RISH MAYDONINI TEKSHIRISH


Buning uchun perimetrdan foydalaniladi. Bemor perimetr o'rnatilgan stol yoniga o'tiradi. Ustunchaga mahkamlangan metall yoy gorizontaal o'q atrofida aylana oladi. Apparatda iyak ostiga qo'yiladigan taglik va qovoq tagiga mo'ljallangan plastina bo'ladi.

Vrach, uchiga oq soqqacha o'rnatilgan tayoqchani yoyning ichki tomonidagi sirti bo'ylab yuqoriga, pastga yo'naltiradi. Yoyning ichki sirti markazidan 0^0 dan 90^0 gacha belgilab qo'yilgan bo'ladi va bemor oq soqqa harakatiga qarab ko'zini yurita boshlaydi. Maksimal burchakka burilgan holda ko'zining ko'ra olishi ko'zning ko'rish maydoni hisoblanadi. Qanchalik burchakka burilganini yoy ichiga belgilab qo'yilgan burchak darajalari ko'rsatadi. Perimetr yoyini chap o'ng tomonlarga burib, bemorning ko'rish maydoni chegaralari aniqlanadi. Normal ko'rish maydoni chegarasi tashqarisi 90^0 , ichkarisi 60^0 , pastkisi 70^0 , yuqorigisi 60^0 atrofida bo'ladi.

Ko'rish maydonini tekshirganda har xil o'zgarishlar kuzatiladi. Ko'rish maydonini har tomondan cheklanishlari qonsentrik torayishi deyiladi. Ko'rish maydonini biror qismi ko'rinmay qolsa skotoma deyiladi.

Ko'rish yo'llarining har xil sohalaridagi shikastlanish ko'rish maydonini o'zgarishiga olib keladi va bu holatlarni quyidagi sxemada ko'ramiz;

№1 bir tomondagi ko'rish nervining shikastlanishi shu tomondagi ko'zning ko'r bo'lishiga olib keladi.



№2 xiazma atrofidagi shikastlanish har ikkala ko'zni chala (yarim) ko'rlikka olib keladi va buni bitemporal genionopsiz yoki gipertonik gemonopsiya deyiladi. Bu holatlarda har bir ko'zni tashqi tarafining yarmi ozor chekadi. Ko'rish qobiliyatini bu ravishda pasayishi turk egarida joylashgan gipofizda shishlar paydo bo'lgani seziladi.

№3 bir biri bilan kesishmagan tolalar o'tkazuvchanligi buzilishi natijasida xiazma atrofi shikastlanadi. Bunda har bir ko'zda geminopasiya seziladi, ammo ko'rish maydoni boshlanishini yarmi ichki tomoni yo'qoladi va bu holatni binozal geterom gemionopsiya alomatlari deyiladi.

№4 chap tomondagi ko'rish yo'llari shikastlanishi o'ng ko'z to'r pardasining ichki yarmisi va chap ko'zning tashqi tomon impulslerini o'tishini buzadi. Ko'zning nurlarni sindiruvchi muhitida nurlarning bir biri bilan kesishib ketishi natijasida chap tomon ko'rish yo'larida ko'rish maydonini yo'qolishi sodir bo'ladi. Shunda gemonim onamoyon bo'ladi va natijada chap va o'ng ko'zlarda chala (yarim) ko'rlik paydo bo'ladi.

№5 ikkinchi neyron tolalarining uzilishi (grasiole tutamida) ko'rlik (gomonopsiya) hamda kvadratli va seksiyali gemionopsiyaga olib keladi.

KO'Z CHUQURLIGINI TEKSHIRISH

Oftolmaskop yordamida ko'z chuqurligi tekshiriladi. Tekshirish vaqtida qurishib qolgan emizak giperemiyasi, venalar kengayganligi va torayganligi, nevrit hamda qurib qolgan emizak va ko'rish nervlarini sezish mumkin. Ko'pincha bunday holat bosh miyadagi shishlar, gidrotsefaliya, absess, meningitlarda seziladi.

III juft ko'zni harakatlantiruvchi nerv.

IV juft g'altak nerv

VI juft uzoqlashtiruvchi nerv


Bu nerv turlari ko'zning harakatini ta'minlovchi vazifasini bajaradi ya'ni ko'z soqqalarini va qorachig'i mushaklarini harakatlantirib turadi

Ko'zni harakatlantiruvchi nervlar ko'z gavhari qavariqligini qorachiqni torayish kengayishini va ko'z soqqasi mushaklarini harakatlantirib turadi.

Gavhar qabariqligini o'zgarib turishi ko'zni yaqin va uzoq masofadan tasvirni aniq ko'rish uchun moslasha olishidir (akkomodasiya).

Ko'z mushaklari quyidagilardan iborat:

Yuqorigi to'g'ri mushak ko'z soqqasini yuqoriga harakatlantiradi; pastki to'g'ri mushak ko'z soqqasini pastga harakatlantiradi; tashqi to'g'ri mushak ko'z soqqasini tashqariga harakatlantiradi; ichki to'g'ri mushak ko'z soqqasini ichkariga



harakatlantiradi; yuqorigi yon mushak ko'z soqqasini pastga, tashqariga harakatlantiradi (bu mushak qiya joylashganligi sababli); pastki yon mushak ko'z soqqasini yuqoriga va tashqariga harakatlantiradi. Bulardan tashqari qovoqni yuqoriga harakatlantiruvchi mushak ham bor.

Ko'z harakati asablari markaziy neyronlari old markaziy burmaning tagiga joylashgan, uning selferik yadrosi esa old chetviroholmiyaning tagidagi miya oyoqchalarida joylashgan. Ko'z harakati asablari ko'z kosasi

bo'shlig'iga kosachaning tirqishidan kiradi.

Ko'z harakati asablari funksiyasini tekshirishda ko'z soqqasining holati, ko'z yirig'ining holati va uning katta kichikligiga e'tibor berish kerak.

Normal holda ko'z soqqalari simmetrik va bir chiziqda yotgan bo'ladi, ko'z yirtiqligi ham bir xil bo'ladi. Bu funksiya buzilganda qovoqlarning osilishi (ptoz), qorachig'ning past baland joylashishi (anizokariya), torayib qolganligi (mioz), kengayib ketganligi (midriaz) kuzatish mumkin.

Ko'zni harakatlantiruvchi nervning periferik qismi shikastlanganda tashqi mushaklar parezi yoki periferik falaj taraqqiy qiladi. Bemor shikastlangan tomonga qaraganda tasvirlar 2 tadan bo'lib ko'rinayotganligidan shikoyat qiladi (diplopiya). Shikastlangan tomondagi ko'z qorachig'i ichkariga biroz siljigan bo'ladi (kesishgan g'ilyalik)..

III-IV-VI Ko'zni harakatlantiruvchi nerv funksiyasini tekshirish

Bemorga quyidagilar taklif qilinadi:

a) vrach barmog'iga yoki qo'lidagi bolg'achaga tik qarab turish. Bunda ko'z yirtig'ini kengligi va ularni bir tekisdaligiga, qovoqlarning osilib turishiga, ko'z soqqasini bo'rtib chiqqan (ekzoftalm) yoki chuqurlanib qolganiga (ekoftalm), ko'z soqqalarini holati, shakli va qorachiqning katta kichikligiga e'tibor beriladi.

b) bemorga yuqoriga, pastga, yon taraflarga qarashni iltimos qilib, ko'z soqqalarining harakatchanligi tekshiriladi) qorachiqlarning nur ta'sirida to'ppa-to'g'ri va birgalikdagi reaksiyasi tekshiriladi. Bemor ko'zini qo'l kafti bilan biroz berkitilsa, qorachiq kattalashadi, ochilsa qorachiq torayib kichiklashadi (tekshirish yoritgich bilan olib boriladi).

g) konvergensiya va akkomodasiya reaksiyasi. Bemordan 50-60 sm uzoqlikda vrach barmog'iga tik qarab turishi barmoq harakatini kuzatib turishni iltimos qilinadi. So'ngra vrach barmog'ini asta sekin bir tekisda bemor burnigacha olib keladi. Normal holda ko'z soqqalari bir biriga buralib yaqinlashadi (qonvergensiya) va shu vaqtning o'zida qorachiq toraya boshlaydi (akkomodasiya).

V juft uch tarmoqli nerv tuzilishi, vazifasi, zararlanishi va tekshirish usullari.

Aralash nerv turiga kiradi ya'ni harakatlantiruvchi va sezuvchi faoliyatini bajarib turadi. Bu nerv yuzining teri yuzasidagi old bo'limi, boshning tukli old tomoni, og'iz va burun shilliq qobiqlarini, til ko'z soqqasi, miya suyuqligi sezuvchanligini amalga oshirib turadi. Asabning harakat tolalari chaynash mushaklarini harakatlantiradi. Uchboshli asabning sezgi tolalari orqa miya asablariga o'xshab chakka suyak piramidasining old yuzasida joylashgan va o'ta sezgir gangliyadan boshlanadi (Gassari tugunchasi).

Bu tugunchani periferik o'simtalari yuz atrofi, boshning tukli qismi retseptorigacha cho'ziladi, markaziy o'simtalari esa uch tarmoqli nervning sezgir yadrosiga boradi. Bunday yadrolar ikkita. Birinchi yadro yuqorigi sezgir yadro (ko'priksda joylashgan) taktil va bo'g'im mushak sezgirlik tolalarini qabul qiladi. Ikkinchisi og'riq va issiq sovuq sezuvchanlik tolalarini qabul qiladi. Yadroning o'zi ham ko'prikkacha joylashgan bo'lib, orqa miya bo'yin segmentlarigacha cho'zilgan.


Har bir segment yuz sohaning ma'lum qismlarida sezuvchanlik funksiyasini bajarib turadi.

V juftlik funksiyasini tekshirishda yuz va boshning tukli qismi sezgirligini palpasiya (qo'l yuritib), ta'm maza sezgirligini esa tilning old tomonidan bajariladi. Chaynash

mushaklari parezida pastki jag‘ning og‘iz ochilishi va yopilishida surilish siljishi, shikastlangan tomondagi mushaklarni kuchsiz taranglashishi kuzatiladi. Bunday patologiyaaning sababchilari shishlar va yallig‘lanish jarayonlaridir.

VII juft yuz nervi tuzilishi, vazifasi, zararlanishi va tekshirish usullari.

Bu asosan harakat nervidir. U mimika mushaklari va quloq supراسi mushaklari hamda til uchidagi ta‘m sezish nuqtalarini harakatlantirib turadi. Nerv yadrolari (yuqorigi va pastki) Varolev ko‘prikchasining pastki bo‘lmalarida joylashgan. Nerv tolalari ko‘prikcha miya atrofidagi miyadan boshlanadi va old eshitish nervi VIII juftlik) birga chakka suyagining ichki eshitish tuynugiga kiradi, undan yuz nervi kanaliga o‘tadi. So‘ngra yuz nervlari bosh suyakdan chiqib, panjalar kabi bo‘lingan holda hamma yuz mushaklarni harakatlantiradi. Bu nervlarni bemorni o‘tirgan holda, yotgan va tik turganida tekshirish mumkin



Tekshirish usullari	Shikastlangan alomatlari
Yuqori mimik mushaklar funksiyasini tekshirishda bemorga quyidagilar taklif qilinadi: Qoshlarni yuqoriga ko‘tarish. Bunda peshonadagi ajinlar bir xil bo‘lishi kerak. Qovoqlarni solish. Normal holda qoshlar o‘rta chiziqda bo‘ladi. Ko‘zni yopib, qovoqlarni solish. Normal holda ikkalasi baravar qisiladi.	Shikastlangan tomonda peshona ajinlarini bir tekisdaligi aniqlanadi va peshonani tirishtira olmaslik, ko‘zni yopa olmaslik hollari namoyon bo‘lishi mumkin.
Pastki mimik mushaklarni tekshirish uchun bemordan quyidagilarni iltimos qilinadi: Tishlarini irjaytirish. Normal holda og‘iz burchaklari simmetrik bo‘ladi. Iljayish yoki lunjini shishirish. Bunda harakatlar bir xil bo‘lishi kerak. Yonib turgan gugurt yoki shamni puflab o‘chirish. Bunda lablar oldinga cho‘zilishi kerak.	Tishlarni irjaytirganda og‘iz sog‘lom tomonga siljiydi, tilni chiqarganda, til sog‘lom tomonga qiyshayadi.

Periferik neyron yadrosi yoki yuz nervlari ustuni shikastlanganida mimik mushaklar paralichi yoki parezi rivojlanadi. Bu asabning bir tomonlama shikastlanishida quyidagi alomatlar ko‘rinadi:

- Peshona ajinlari bir tekis bo‘lib qolgani ko‘z yirtig‘i kengaygan, og‘iz burchagi pasaygan bo‘ladi;

- Peshonani tirishtira olmaslik, ko'zlarni yuma olmaslik, (quyon ko'z logoftalm) bo'lishi mumkin;
- Tishlarni irjaytirmoqchi bo'lganda, og'iz burchagi sog'lom tomonga burilib ketadi;
- Lunjini shishirganda shikastlangan tomoni ko'proq shishib ketadi (shar pufakka o'xshab).
- Shikastlangan mushaklarda keyinchalik atrofdgiya holati (qurishib qolishi) yoki mushak reaksiyasi butunlay buzilib ketgan bo'lishi mumkin.

Agar nervlar sovuq qotsa, bosh suyak asosi sinsa, Varolev ko'prikchasi atrofida qon aylanish buzilsa VII juftlikning shikastlanishi kuzatiladi.


Nervlarning bir tomonlama markaziy shikastlanishida ikki tomonlama po'stloq yadro aloqadorligi tufayli yuz mushaklarining yuzning pastki yarmi ozor chekadi (ya'ni og'iz burchaklari pasayib qolganligi, tirjayganda og'iz sog'lom tomonga tortilib qolganligi bunga misol). Chunki falaj markaziy ko'rinishga ega bo'lganligi sababli atrofiya, fibrial titrashlar (pirillash "uchish") bo'lmaydi.

VII juftlik shikastlanishlari ko'proq ensefalit, miya yarim sharlaridagi oqish modda va ichki kapsulalarida qon aylanishi buzilgan bemorlarda uchraydi.

VIII juft eshituv nervi tuzilishi, vazifasi, zararlanishi va tekshirish usullari.

Bu faqat sezuvchi nervdir va u ikkita mustaqil sezgir nerv lardan iborat - chig'anoq

(Koxlear) va vestibulyar nervdir. Koxlear nerv qismi spiral shaklidagi sezgir tuguncha shaklida quloq ichida joylashgan bo'ladi. Birinchi neyronning periferik o'simtasi kortiev organidan boshlanadi va eshitish asabining qabul qiluvchi asosiy qismi bo'lib xizmat qiladi. Spiral tuguncha hujayralarining markaziy o'simtasi chig'anoq hosil qiladi. Chig'anoqning bir qismi ichki eshitish tirqishini chakka tomonidan chiqib miya ichiga kiradi. Bu tolalar ko'prikchadagi eshitish nervlari yadrosida tugaydi. Bu yerda neyronlar bir necha bor uzilgan bo'lib, tolalar qisman bir biri bilan o'ralashib ketadi va teskari tomonga o'tadi, bir qismi esa o'ng tomonidan o'tib birlamchi eshitish markazida to'xtaydi. Keyin uning yo'li chakka qismiga ko'ndalang gassli burmasi tomon o'tadi, eshitish po'stloq analizatorining oxiri xuddi shu yerda joylashgan bo'ladi.



Ichki eshitish tirqishida vestibulyar apparatning sezguvchi nervlari joylashgan. Tugun hujayralarining periferik o'simtasi ichki quloqning yarim yadrosimon kanlidagi retseptorlar hujayralarga yetib boradi. Vestibulyar nerv yadrosi ko'rish do'ngligi va bosh miya po'stlog'i bilan miyacha orqali uzviy bog'langan bo'ladi; bular orqa miya bilan ham bog'langan bo'ladi. Vestibulyar apparat gavda muvozanatini saqlab turuvchi muhim organdir.

Eshitish nervi funksiyasini tekshirishda eshitish o'tkirligi audiometriya yordamida amalga oshiriladi. Bu haqidagi qolgan ma'lumotlar eshitish va nutq organlari anatomiyasi, fiziologiyasi va patologiyasi bo'limida to'la yoritilgan.

IX juft til xalqum nervi tuzilishi, vazifasi, zararlanishi va tekshirish usullari.

Har bir tepalikdan bir tutamdan nerv tolalari chiqadi. To'rt tepalikning yuqorigi ikkitasida ko'rish ta'sirlarini orientirovka qiluvchi nerv markazlari joylashgan. Bu ikki bo'rtliq oraliq miyadagi tizzasimon tana bilan bog'langan. Pastki ikkita tepalikda eshitish ta'sirlarini orientirovka qiluvchi nerv markazlari joylashgan. To'rt tepalikdan uni orqa miya bilan bo'g'lovchi (tektospinal) yo'l boshlanadi. Tuban darajada tuzilgan umurtqali hayvonlarda ikkita tepalik bo'lib, agar u shikastlansa, ko'rish funksiyasi butunlay yo'qoladi. Miya oyoqchalari (**perdunculi cerebri**) ikkita yo'g'on nerv tolalari boylamidan iborat bo'lib, o'rta miyaning oldingi qismini qoplab turadi. Miya oyoqchalari uzunchoq miya va Voroliyev ko'prigini miya yarim sharlari bilan bo'g'laydi. Miya oyoqchalrining lateral tomonida ko'rish nervining yo'li joylashgan. Miya oyoqchalarining pastki qismi asosi, ustki qismi qopqog'i deyiladi. Miya oyoqchalrining asosi va qopqog'i pigmentlarga boy bo'lgantana bilan ajralib turadi. Qora tana odamda yaxshi rivojlangan. Miya oyoqchasining asosida quidagi o'tkazuvchi yo'llar joylashgan: piramida yo'li – ko'prik orqali orqa miyaga yo'nalgan bo'ladi, ko'prik – miya po'stlog'i yo'li, miya po'sti – yadro yo'li.

Miya oyoqchalarining qopqog'i, uzunchoq miya ko'prigining davomi bo'lib, filogenetik kelib chiqishiga ko'ra juda qadimiy tuzilishga ega. Miya oyoqchalari qopqog'ida g'altaksimon va ko'z soqqasini harakatlantiruvchi nervlar tanasi joylashgan. Siviliyev kanali atrofidagi kulrang moddadan orqa miyaga tushuvchi, orqadagi uzunasiga yo'nalgan o'tkazuvchi yo'llar to'dasi boshlanadi. Bu to'daga ko'zni harakatlantiruvchi uchinchi, to'rtinchi va oltinchi nerv tolalari ham kiradi. To'rt tepalikning pastki bo'rtliqlari chegarasida miyacha yuqori oyqlarining tolalari kesishadi, so'ng ular qizil yadrodagi hujayralarda tugaydi. Bir qismi esa oraliq miyadagi ko'rish bo'rtiqchalariga boradi. Miya oyoqchalarining qopqog'i tarkibidagi sezuv nervlaridan eng muhimi medial qovuzloq hisoblanadi. U uzunchoq miydagi nozik va ponasimon o'tkazuvchi yo'llar tanasidan boshlanadi.

Lateral o'tkazuvchi yo'l tarkibiga eshitish, sezish nervi kiradi. Bu yo'l to'rt tepalikning ikkita pastkisida tugaydi.

Oraliq miya (diencephalon) bosh miya yarim sharlari bilan qoplangan bo'lib, unga ko'rish bo'rtliqlari, bo'rtliq osti va tizzasimon tana kiradi.

Ko'rish bo'rtliqlari (thalamus opticus) katta ellips shaklidagi kulrang modda to'plamidan iborat bo'lib, pastki yuzasi pastki bo'rtliq osti qismiga, lateral yuzasi katta miya yarim sharlariga tutashgan, medial qismi uchunchi qorinchaning yon devorini hosil qiladi. Ko'rish bo'rtliqlari yuqori qismining medial yuzasida hid bilish nervlari joylashgan. Ko'rish bo'rtliqlari guruhlashgan hujayralar tanasidan iborat. Bu hujayralar tanasida orqa tepalik, medial qovuzloq, uchlamchi nerv yo'li va miyacha yuqorigi oyoqchasining o'tkazuvchi yo'llari tugaydi.

Oldingi tanada hid bilish, ta'sirni o'tkzuvchi, so'rg'ichsimon, talamik yo'l tugaydi. Ko'rish bo'rtliqlarining pastki yostiqcha qismida ko'rish nervi yo'lining bir qismi tugaydi. Ko'rish bo'rtliqlari tanadagi barcha sezuv nervlarining markazi hisoblanadi. Ularning orqa qismida ko'rish po'stloq osti markazi bo'lgan medial tizzasimon tana va eshitish po'stloq osti markazi va lateral tizzasimon tana joylashgan.

Bo'rtiq osti qismi (hypothalamus) oraliq miyaning bir qismi bo'lib, bosh miyaning asosida yaxshi ko'rinadi. Bu qismning orqa qismi ikkita so'rg'ichsimon tanani tashkil qiladi, bu yerda oxirgi miyaning hid bilish nervi tugaydi. So'rg'ichsimon tana hujayralarining tolasi so'rg'ichsimon talamik yo'l hosil qilib, bu yerdan hidlash yo'li ko'rish bo'rtiqchalarigacha boradi. So'rg'ichsimon tananing oldingi tomonida kulrang tepacha joylashgan bo'lib, u bir oz torayib, voronkaga aylanadi. Voronkada gipofiz bezi osilib turadi. Kulrang tepacha vegetativ markaz bo'lib, uning oldida ko'rish nervlarining II jufti kesishib, ko'rish yo'liga aylanadi. Bo'rtiq usti qism hid bilish impulslari bilan kam bog'langan, u epifiz bilan bo'g'langan o'tkazuvchi yo'llardan iborat.

Bo'rtiq orti qismi bir juft tashqi, ichki tizzasimon tanadan iborat bo'lib, bu qismda qizil yadro va qora substansiyaning oldingi qismlari joylashgan. Bundan tashqari, orqa qismida ichki organlar funksiyasiga bog'liq bo'lgan juda ko'p vegetativ markazlar bor.

Bosh miya katta yarim sharlari.

Bosh miya katta yarim sharlari (**hemispheria cerebri**) ikkita yarim shardan iborat bo'lib, bosh miyaning eng rivojlangan qismidir. Ikkita yarim shar bir – biri bilan gorizantal plastinka, qadoqsimon tana orqali birikadi. Har bir yarim sharning miya qopqog'i, hid bilish miyasi, asosiy markaziy bo'laklari va ikkita yon qorinchasi bo'ladi. Ikkita yarim shar bir – biridan uzunasiga ketgan yoriq bilan ajraladi. Yarim sharlarning ustki yuzasida juda ko'p pushta va egatchalar bor. Bu egatchalar hosil bo'lishi haqida har xil nazariyalar mavjud. Har bir yarim sharning tashqi, ichki va pastki yuzasi bo'ladi.

Miya yarim sharlarining katta egatchalari uni beshta:

- peshona;
- tepa;
- ensa;
- chakka;
- orolcha bo'laklariga ajratadi.

Silviyev egatchasi miya yarim sharlarining asosidan boshlanib, orqaga va biroz yuqoriga ko'tariladi, miya katta yarimsharlarining chakka bo'lagini boshhqalardan ajratadi.

Roland yoki **markaziy egatcha** miya yarimsharlarining yuqorigi chetidan, Silviyev egati tomon pastga qarab yo'nalgan bo'lib, katta yarim sharlarning peshona bo'lagini tepa bo'lagidan ajratadi. Shuningdek, ensa – tepa egatchasi katta miya yarim sharlarining orqa tomonida ko'ndalang yo'nalgan bo'lib, ensa bo'lagini tepa bo'lagidan ajratadi. Har qaysi bo'lakda mayda egatchalar bo'lib, ular pushtalar yordamida bir – biridan ajraladi. Katta miya yarim sharlarining orolcha bo'lagi Silviyev yorig'ining chuqurligida yotadi, peshona, tepa, chakka bo'laklari bilan o'ralgan bo'ladi.

Peshona bo'lagida to'rtta: oldingi markaziy, yuqorigi, o'rta va pastki pushtalar bo'ladi. Oldingi markaziy pushta Roland rgatining oldida joylashgan, qolgan uchtasi

ko'ndalang joylashgan. Tepa bo'lagida uchta: orqa markaziy va ikkita ko'ndalang pushtalar ajratiladi. Chakka bo'lagining yon yuzasida uchta, pastki yuzasida esa ikkita pushta ajratiladi. Ensa bo'lagida uchta kichikroq pushta bo'ladi.

Bosh miya katta yarim sharlar po'stlog'i

Bosh miya katta yarim sharlarining kulrang moddasi bosh miyaning yuza qismida joylashgan bo'lib, u **miya po'stlog'i** deb nomlanadi. Miya po'stlog'i nerv hujayralari tanasining to'plamidan tuzilgan., 2 – 4 mm qalinlikda bo'ladi. Miya po'stlog'i bosh miya katta yarim sharlari egatchalari ichiga ham o'tib, 2200 mm² yuzani hosil qiladi. Bu yuzaning $\frac{2}{3}$ qismi egatcha hisobiga hosil bo'ladi, $\frac{1}{3}$ qismi erkin yuza hisoblanadi.

Bosh miyaning katta yarim sharlar po'stlog'i filogenetik jihatdan uning eng so'nggi qismi hisoblanadi. Po'stlog hujayralarida tashqi va ichki ta'sirni qabul qilish, analiz qilish, sintez qilish protsesslari va unga javob reaksiyasi hosil bo'ladi. Miya po'stlog'ida hosil bo'lgan impulslar ixtiyoriy harakatlarni vujudga keltiradi.

Miya po'stlog'idagi hujayralar joylashishi va shakliga qarab 6 qavat, ba'zi qismlarda undan ham ko'p (ensa 9 qavat) bo'ladi. Eng ustki birinchi qavat molekulyar qavat deyilib, u mayda neyrogliya hujayralari va boshqa qavatda joylashgan nerv hujayralari o'simtasidan iborat. Ikkinchi qavat tashqi donachali qavat deyilib, u zich joylashgan yumaloq va ko'p burchakli mayda nerv hujayralaridan tuzilgan. Uchinchi piramidasimon qavati turli hajmdagi piramidasimon hujayralardan tashkil topgan. To'rtinchi qavat donador ikki qavat bo'lib mayda hujayralardan tashkil topgan. Beshinchi tugunli qavat bo'lib, unda yirik piramidasimon hujayralar joylashgan. Miya po'stlog'ining ba'zi qismlari juda yirik nerv hujayralardan tashkil topgan. Oltinchi qavati duksimon va piramidasimon hujayralardan iborat bo'lib, har xil shakldagi hujayralar qavati deyiladi. Ba'zan bu qavat ikkiga, ya'ni duksimon va piramidasimon qavatga bo'lib o'rganiladi. Miya po'stlog'ining hidlash qismida hujayralar besh qavat bo'ladi.

Ba'zi mualliflar ma'lumotiga ko'ra, miya po'stlog'i hujayralarining umumiy soni taxminan 14 mlrd ga yetadi. Piramidasimon hujayralar harakat hujayralari bo'lib, uzun o'simtalari – aksonlarimuskullarga impuls o'tkazadi. Yulduzsimon hujayralar esda saqlash nerv protsesslarining almashinishida ishtirok etadi. Duksimon hujayralar po'stlog ichiga qochuvchi sistemalar bilan bog'laydi. Miya po'stlog'ining yuqori qavatlarida uzun o'simtali hujayralar bo'lib, ular miya yarim sharlarining oq moddali qismiga o'tib, miya po'stlog'ining turli qismlarida va miya yarim sharlaridagi markazlarni bir – biri bilan bog'laydi. Katta o'simtali hujayralar miya po'stlog'idagi markazlarni bir – biri bilan bog'laydi. Shunday qilib, odam bosh miya po'stlog'i tuzilishining hayvonlar bosh miya po'stlog'iga qaraganda takomillashganligi, murakkabligi mayda o'simtali hujayralarining kop'ligiga, miya po'stlog'i hajmining kattaligiga, turli markazlarni bo'g'lovchi assotsiativ nerv hujayralarining rivojlanganligiga bo'g'liq.

Miya po'stlog'idagi markazlar

Bosh miya katta yarim sharlari po'stlog'ini juda ko'p olimlar tekshirib, miya po'stlog'ida ta'sirni qabul qilib olish harakat va assotsiativ funksiyalar bajarilishini aniqlaganlar. Hayvonlarda bosh miya po'stlog'i ayrim qismlarini olib tashlash va shartli reflekslar metodi bilan olingan ilmiy ma'lumotlar natijasida miya po'stlog'ida tashqi dunyodagi ta'sirlarni qabul qiluvchi va organizmda turli funksiyalarning nerv markazlari joylashganligi isbotlangan. Miya po'stlog'ida nerv markazlari juda ko'p bo'lib, bular morfologik, fiziologik jihatdan bir – biridan farq qiladi. Uning ensa qismida ko'rish ta'sirlarini qabul qilib oladigan ko'rish markazi (19) joylashgan, chakka bo'limida Kortiyev organidan kelayotgan ta'sirni qabul qilib oluvchi eshitish markazi (41,42) oldingi markaziy pushtada harakat nerv markazlari (6), keyingi markaziy pushtada sezishning oliy markazi joylashgan. Bulardan tashqari, miya yarim sharlarining 44 – 45, 6, 39, 41 – 42 qismlari bilan bog'langan nutq – eshitish, nutq – harakat, nutq – ko'rish va boshqa analizatorlarning yozma va og'zaki nutq bilan bog'liq bo'lgan markazlari joylashgan.

Bazal hujayralar (asos yadrolari) filogenetik jihatdan qaraganda miya po'stlog'idan oldin paydo bo'lgan yirik yadrolardir. Bularga:

- dumsimon;
- yasmiqsimon;
- ihota (to'siq);
- bodomsimon yadrolar kiradi.

Dumsimon yadro ko'rish bo'rtig'ini oldindan, yuqoridan va yondan o'rab turadi.

Yasmiqsimon yadro ko'rish bo'rtiqlaridan tashqarida joylashgan bo'lib, uch qirrali piramida shaklida bo'ladi. bosh miya katta yarim sharlaridagi bu yadrolar eng muhim harakat yadrolari hisoblanadi.

Bosh miya asosiy patalogiyasi

Bosh miya kasalliklarini o'z navbatida 2 guruhga bo'lib o'rganish mumkin:

1. Bosh miyaning tug'ma kasalliklari
2. Bosh miyaning inson hayoti davomida orttirilgan kasalliklari.

Bosh miyaning tug'ma kasalliklariga:

- Hidrosefaliya;
- Ensefalopatiya;
- Anensefaliya;
- Bosh miyaning tug'ma nuqsonlari (o'smalar, yetishmovchiliklar va h.k);

Gidrosefaliya (yunon. – “hydro” – suv, “kefaln” - bosh) – bu kasallik bosh miyaning suv havzalari sistemasiga oriqcha miqdorda miyaning serebral suyuqligi yig'ilishi bilan xarakterlanadi. Suyuqlikning yig'ilish joyidan (bosh miya suv havzalari) qon tomirlar tizimiga so'rilish joyiga yerib borishi qiyinlashishi natijasida *okklyuzion gidrosefaliya*, yoki so'rilishi qiyinlashishi natijasida *arezorbtiv gidrosefaliya* rivojlanadi.

Gidrosefal – gidrosefaliya kasalligi bilan kasallangan odam.

Gidrosefaliyaning asosiy alomatlaridan biri bu – bosh o'lchamlarining kattalashib ketishidir. Bundan tashqari yangi tug'ilgan chaqaloqlarda gidrosefaliyaning bir nechta alomatlari uchraydi. Bularga: liqqildoqning bo'rtib chiqishi, boshni tutib tura olmaslik, ko'z soqqalarining pastga qarab tortilishi misol bo'ladi. Ayrim hollarda g'ilyalik, ko'rish va eshitishning yomonlashuvi, ko'ngil aynishi kuzatiladi.

Bu kasallikni oldini olish uchun ayollarni onalikka tayyorlash vaqtida yuqumli kasalliklarga chalinish ehtiyot bo'lishlarini va bola tug'ilgandan so'ng turli xil neyroinfekcion kasalliklarga chalinmasligini oldini olish choralari haqida tushuntirish olib borish zarur.

Ensefalopatiya (yunon. “eukefalos” – bosh miya, “patos” – kasallik yoki azoblanish) – bosh miyaning yallig'lanishlarsiz yuzaga keladigan kasalliklarining umumiy nomi (ensefalitdan tashqari) hisoblanadi. Ensefalopatiya tug'ma va orttirilgan bo'lishi mumkin. Ensefalopatiyada bosh miya to'qimalarining distrofik o'zgarishi yuz beradi.

Ensefalopatiyaning ko'p uchraydigan alomatlariga quidagilar kiradi:

- Xotira va hushning yo'qolishi;
- Bosh og'rig'i;
- Bosh aylanishi;
- Depressiyalar.

Ensefalopatiyaning shunday alomatlari bilan og'rigan bemorlar asosan holsizlik, jizzakilik, parishonxotirlik, uyqusizlikdan aziyat chekadilar.

Ensefalopatiyaning turlari:

- Gaye – Vernike sindromi;
- Xasimoto ensefalopatiyasi;
- Po'stloq osti aterosklerotik ensefalopatiyasi;
- Rey sindromi;
- Toksik ensefalopatiya;
- Kreytfeldt – Yakob kasalligi.

Anensefaliya (yunon. “au” – yo'q, “eukefalos” – bosh miya) ona qornida homilaning rivojlanmay qolishi natijasida bosh miya katta yarim sharlarining, yumshoq to'qimalarining qisman yoki umuman yo'qolishidir. Bu kasallik yuqumli kasalliklar, zaxarli moddalar, alkogol, tashqi muhitning zararli ta'sirlari natijasida yuzaga keladi. Bu kasallikda ona qornidagi homilaning rivojlanishi ortda qolishi natijasida u 21 – 28 kunlik bo'lganida nerv naylari rivojlanishi buzilishi kuzatiladi. Bunday kasallik natijasida homilaning 50% i ona qornida nobud bo'ladi. Qolgan 50% chaqaloqlar tirik tug'liadi va 66% chaqaloqlar bir necha soat yoki bir haftagacha yashashi mumkin. Anensefallar orasida eng ko'p umr ko'rgan **Bebi Key** nomi bilan mashxur **Stefani Kin** hisoblanadi. U bu diagnoz bilan **2 yilu 174 kun** yashagan. Anensefalit alomatlari paydo bo'lganda homiladorlikni uning muddatidan qat'iy nazar to'xtatish talab qilinadi. Anensefaliya 10000 chaqaloqdan 1tasida kuzatiladi. Bu kasallik bilan asosan qiz bola chaqaloqlar kasallanadilar.

Bosh miyaning inson hayoti davomida orttirilgan kasalliklariga:

- Spesifik va nospesifik yallig'lanishlar;

- Shikastlardan keyin yuzaga keluvchi kasalliklar;
- Meningit: *sil meningiti va infeksion meningit*;
- Insult: *ishemik insult va gemorrogik insult*;
- Altsgeymer sindromi;
- Moyamoya kasalligi;
- Shikastlar: *ochiq va yopiq*;
- Bosh miyaga qon ketishi;
- Bosh miyaning nevrologik kasalliklari;
- O'smalar va boshqa turli kasalliklar kiradi.

Meningit (yunon. “*menuie*” – miya qobig'i va lotin. “*itis*” – yallig'lanish) – bosh va orqa miya qo'big'ining yallig'lanish kasalligidir. Yumshoq va to'rsimon qobiqning yallig'lanishi – **leptomeningit** va qattiq qobiqning yallig'lanishi – **paximeningit** farqlanadi. Meningit alohida kasallik sifatida ham, biror bir kasallikning asorati sifatida ham rivojlanishi mumkin. Bosh og'rig'i, yorug'likka nisbatan o'zgarishlar (fotofofiya), bolalarda esa ko'p uxlash va holsizlik kuzatiladi. Meningitni vaqtida davolamasklik oqibatida karlik, epilepsiya, gidrosefaliya, bolalarda aqliy zaiflik kabi asoratlarga olib kelishi mumkin.

Altsgeymer sindromi – demensiyaning ko'p uchraydigan turi bo'lib, uni birinchi bo'lib 1906 – yilda nemis psixiatri Alois Altsgeymer aniqlagan. Odatda bu kasallik 65 yoshdan yuqorilarda ko'p uchraydi, lekin undan oldin ham uchrashi mumkin. Hamma odamlarda kasallik har xil kechadi, lekin ularning hammasida bir xil alomatlar kuzatiladi. Kasallikning boshlanish davrida qisqa xotiraning pasayishi kuzatiladi. Kasallik rivojlana borishi bilan xotira, nutq va aqliy o'ylash butunlay yo'qoladi. Organizm funksiyalarining buzilishi esa o'linga olib keladi.

Moyamoya kasalligi (yapon. **Tutun, tuman**) - noyob, rivojlanib boruvchi surunkali bo'sh miya tomirlarining kasalligidir. Bu kasallik uchun sekin – asta bosh miya ichki uyqu arteriyalari, bosh miyaning oldingi qismidagi va o'rta qimidagi arteriyalarning ular okklyuziyaga uchragunga qadar o'zgarib borishi xarakterlidir. Bu kasallikning yana bir jihati bu – miya asosida kollateral tomirlarning paydo bo'lishi natijasida angiogramma qilinganda yengil tutun hosil bo'lganga o'xshab ko'rinishidir. Aynan shu hodisa 1969 – yilda kasallikka zamonaviy nom berdi. Yapon tilidan tarjima qilinganda “moyamoya” “tutun” degan ma'noni beradi.

2.2. Bosh miya kasalliklarining kelib chiqish sabablari.

Har bir kasallikning oldini olish uchun avvalo uning qanday sabablarga ko'ra kelib chiqqanligini bilish muhim ahamiyatga ega. Bosh miya kasalliklarining turiga qarab ularning kelib chiqish sabablari ham turlicha bo'ladi.

Masalan, **gidrosefaliya kaslligining** kelib chiqishining sabablaridan bo'lib, ko'p hollarda yangi tug'ilgan chaqaloqlarda onaning homiladorlik vaqtida infeksion kasalliklar bilan og'riganidir. Buning natijasida bolada miyaning qorinchalari funksiyasining buzilishi kuzatiladi. Orttilangan gidrosefaliyaning sabablari bo'lib esa, meningit, meningoensefalit, bosh miya shikastlari, intoksikatsiyalar xizmat qiladi.

Gidrosefaliyani endoskopik davolash usullari. Hozirgi kunda gidrosefaliyani endoskopik davolash jaxon neyroxirurgik amaliyotida samarali usul hisoblanadi. Gidrosefaliyani endoskopik davolash usullarining turlari:

- III – qorinchaning endoskopik ventikulosisternostomiyasi;
- Akveduktoplastika;
- Ventikulosisternoskopiya;
- Septostomiya;
- Bosh miya qorinchalari ostidagi o'smalarni endoskopiya usuli bilan olib tashlash;

Davolashning boshqa usullari hali jarroxlikda yaxshi samaraga ega emas deb hisoblanadi.

Moyamoya kasalligining kelib chiqish sabablari hali to'lig'icha o'rganilmagan, lekin bu kasallikning asosiy sababi qilib genetik va oilaviy sabablar ko'rsatiladi. Kasallik juda kam uchraydi. Lekin hozirgi kunda bu kasallik AQSHda, Afrika mamlakatlarida va eng ko'p hollarda Yaponiyada kuzatilgan.

Moyamoya kasalligini davolash uchun jarroxlik muolajalaridan foydalaniladi. Dori – darmonlar bilan davolash esa faqatgina yordamchi vazifani bajaradi, kasallik rivojlanishini to'xtatmaydi.

Jarroxlik aralashuvining asosiy maqsadi bosh miyani qon bilan yaxshi ta'minlanishiga erishishdir. Jarroxlik operatsiyasini olib borishdan oldin, bemorning bosh miyasi perfuziya qilinadi va shunga qarab jarroxlik olib boriladi.

Ensefalopatiyaning asosiy kelib chiqish sabablari:

- Bosh miya shikastlari (shikastlardan keyingi ensefalopatiya);
- Homiladorlik patologiyasi;
- Aterosleroz, gipertonik kasallik, disirkulyatsiya;
- Alkogol, og'ir metallar, dori va zaxarlar orqali intoksikatsiyalar (toksik ensefalopatiya);
- Narkomaniya;
- Ishemiya (miyaning surunkali kislorodga tanqisligi);
- Diabet.

Ensefalopatiyani davolash muddati kasallik turiga qarab belgilanadi. Davolash ambulator yoki statsionar sharoitida olib boriladi. Ensefalopatiyani davolash usullari quidagilar:

- Dori – darmonlar bilan davolash (gormonlar);
- Blokadalar – preparatlarning kanallar bo'shlig'iga in'yeksiya qilinishi;
- Osteopatiya;
- Fiziologik muolajalar;
- Davolovchi gimnastika;
- Igna bilan davolash – refleksoterapiya;
- Jarroxlik muolajasi.

Foydalaniladigan adabiyotlar.

Asosiy adabiyotlar:

1. Po‘latxo‘jayeva M.R. Defektologiyaning klinik asoslari. 25-29 bet O‘quv qo‘llanma. TDPU – 2013.
2. Alimov X.A., Manasipova I.X. Nekotorie voprosi organizatsii i razvitiya psixiatricheskoy pomoshi v Uzbekistane. Trudi Tashkentskoy psixiatricheskoy bolnisi 30-35 bet III tom. T:, 1996
3. Agranovskiy M.L. Obshaya meditsinskaya psixologiya i psixopatologiya. 18-25 bet Andijan. «Andijon», 2004 – 215
4. Sodiqova Q, Aripova S.X, Shaxmurova G.A . Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi. 22-28 bet T., “Yangi asr avlodi” - 2009.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Brain Facts. A PRIMER ON THE BRAIN AND NERVOUS SYSTEM. Copyright ©2005, 2006 Society for Neuroscience 1121 14th Street, NW, Suite 1010 Washington, DC 20005 USA (p.4)
2. A.G‘. Ahmedov . Odamanatomiya. T.- 2005 y.
3. F. Bahodirov. Odam anatomiyasi. T. - 2005 y.
4. Anatomiya cheloveka. T-2. Pod red. M.R. Sapina. M.- 2001 g.
5. I.I. Bobrik, V.I. Minakov. Atlas anatomii novorozhdennogo. Kiev- 2000 g.

4-ma`ruza. Inson bosh miyasi po'stlog'i

Reja:

1. Miya po'stlog'ining filo ontogenezi
2. Miya po'stlog'ining tuzilishi
3. Bosh miya po'stlog'ida markazlarning joylashishi
4. Ichki analizatorlarning po'stloqdagi markazlari
5. Tashqi muhit ta'sirini qabul qiluvchi analizatorlarning po'stloqdagi markazlari
6. Ikkinchi signal tizimi markazlari
7. Bosh va orqa miyaning o'tkazuv yo'llari

Tayanch so'z va iboralar: bosh miya, bosh miya po'stlog'i, filo-ontogenez, markaz, ichki analizatorlar, ikkinchi signal tizimi, bosh miya o'tkazuv yo'llari

Bosh miya po'stlog'i, inson va boshqa sut emizuvchilarda miyaning asab to'qimalaridan iborat tashqi qatlamidir. Bosh miya po'stlog'i xotira, diqqat, sezgi, tafakkur, ong va tilda muhim rol o'ynaydi. Inson bosh miyasi po'stlog'i 2 sm dan 4 sm gacha (0,079 dan 0,157 dyumygacha) bo'ladi.³

Bosh miya po'stlog'i (*cortex cerebri*) **bosh** miyaning muhim qismi bo'lib, juda murakkab hayotiy faoliyatni bajaradi. U organizmning hamma qismlari va tashqi muhitdan nerv yo'llari va sezgi a'zolari orqali kelayotgan ta'sirotlarni qabul qiladi, ularni tahlil qilib, bir biriga bo'laydi (sintez). SHuning natijasida odam organizmi tashqi muhit ta'siriga moslashish xususiyatiga ega.

Miya po'stlog'ining filo ontogenezi

Amfibiyalarda miya po'stlog'i yo'q. Reptiliyalarning miya po'stlog'i juda sodda bo'lib, 2-3 qavat xujayralardan tashkil topgan.

Sut emizuvchi hayvonlarning miya po'stlog'i yarimsharlarning ko'p qismini qoplaydi va 6 qavatdan iborat.

Odamda miya po'stlog'i yarim sharlarning ko'p qismini qoplaydi va 6 qavatdan iborat.

Odamda miya po'stlog'i sekin-asta taraqqiy etadi. 2 oylik homilada po'stloq yo'q. Neyroblastlar qorinchalar ependimasi ostida joylashgan bo'ladi. Homila 3 oylik bo'lganida nerv hujayralari oxirgi miyani yuzasiga o'sib chiqaboshlaydi va po'stloq plastinkasi paydo bo'ladi. Po'stloq plastinkasi dastlab bir qavatli bo'lib, keyinchalik 6

³ Kandel, Eric R.; Schwartz, James H.; Jessell, Thomas M. (2000). Principles of Neural Science Fourth Edition. United State of America: McGraw-Hill. p. 324.

qavatga bo'linadi. Odamning miya po'stlog'i juda yaxshi taraqqiy etgan. Uning qalinligi yarimsharlarning turli qismlarida har xil 1,25 mm dan 4mm, ba'zi erlarda 6 mm gacha. Eng qalin po'stloq markaz oldi, markaz orqa va markaz yon bo'laklari sohasida bo'ladi. Pushtalarning ustki qismda po'stloq qalin, egatlarda esa yupqa bo'ladi. Bosh miya po'stlo'i 9-14 mld. nerv hujayralarining yilindisidan iborat bo'lib, ular orasida nerv tolalari ham bor. Nerv tolalarining massasi po'stloq umumiy massasining 26/27 qismini tashkil qiladi. Bosh miya po'stlo'ining umumiy massasi 581 g, umumiy hajmi 560 sm^3 . Agar pustloq nerv hujayralarining tanasini ajratsak, uning umumiy hajmi 20 sm^3 , og'irligi 21 g bo'ladi.

Bosh miya po'stlo'ini: qadimiy po'stloq (**paleocortex**) va yangi po'stloqqa (**neocortex**) bo'linadi. Qadimiy po'stloqqa hid bilish miyasi po'stlo'i kirib, har xil tuzilishga ega ikki qismga: qadimiy po'stloq va eski po'stloqqa bo'linadi. Qadimiy po'stloq **paleocortex** juda sodda tuzilishga ega, qavatlarga bo'linmagan bo'lib, unga peshona bo'lagini **bulbusolfactorius** ga yaqin turgan qismi kiradi.

Eski po'stloq **archicortex** ancha murakkab tuzilishga ega, ammo bu erda nerv hujayralari kam. Po'stloqning kulrang moddasi bu erda 2-3 qavatga bo'lingan. Eski po'stloqqa dengiz oti- hippocampus, tishli, gumbaz pushtasi va uning ilmog'ining kulrang moddalari kiradi.

Yangi po'stloqqa odamning miya yarimsharlari po'stlo'i kirib, juda yaxshi taraqqiy etgan 6 qavatdan iborat. Bu qavatlar o'zaro tarkibiga kiruvchi hujayralarning shakli bilan farq qiladi.

1.Molekulyar qavat (laminamolecularis) yumshoq parda ostida joylashgan. U asosan bir-biri bilan zich to'rt kabi to'qilib ketgan nerv tolalari va ular o'rtasida joylashgan kam sonli mayda nerv hujayralaridan iborat.

2.Tashqi donador qavat(lamina granularis externa).Bu qavatda juda ko'p yumaloq va uchburchak shakldagi hujayralar alohida-alohida donachalardek tarqoq holda joylashgan.

3.Piramida qavatida(lamina pyramidalis)kichik va o'rta kattalikdagi piramida hujayralari tarqoq holda joylashgan.

4.Ichki dona dorqavat(lamina granularis interna) xuddi ikkinchi qavat singari tarqoq joylangan mayda hujayralardan iborat.

5.Tugunchali (ganglioz) qavat(lamina ganglionaris).Bu qavatda kichik piramida hujayralardan tashqari, yirik Bets piramida hujayralari bo'lib, ular markaz oldi pushtasi va markaz yon bo'lagida uchraydi.

6.Har xil shakldagi hujayrali qavat(lamina multiformis).Bu qavatda turli shakldagi hujayralar bo'lib, ular oq modda bilan yonma-yon turadi.

Bu 6 qavatning pastki (5-6 chisi) efferent yo'llarning boshlanish qismi bo'lsa, o'rta (3-4) qavatlar esa afferent yo'llar bilan bog'langandir. Yuqorigi (1-2) qavatlar esa po'stloqni bir-biri bilan bog'lovchi assotsiativ yo'llarni hosil qiladi.

Yangi tug'ilgan bolada po'stloq yaxshi takomillashmagan bo'lib 2-3 yoshlarda etiladi. Bolalikning keying davrlarida egat va pushtalarni o'sishi munosabati bilan miya po'stlog'i yuzasi kattalashadi va tuzilishi murakkablashib ma'lum soha va maydonlarga bo'linadi.

Bosh miya po'stlog'ida markazlarning joylashuvi

Bosh miya markazlarini joylashuvini o'rganish jarayonida biz organizmni o'zida bo'layotgan o'zgarishlar va tashqi muhitning organizmga ta'siriga moslashuvida ro'y beradigan nerv boshqaruvida qaysi markazlarning qanday ahamiyati borligini bilamiz.

Bosh miya po'stlo'li markazlarini I.P.Pavlov analizatorning miyadagi oxirgi qismi deb atagan. Analizator bu murakkab nerv mexanizmi bo'lib, u tashqi qabul qiluvchi apparatdan boshlanib miyada tugaydi. Analizator yordamida tashqi muhitning murakkab ta'siri alohida qismlarga bo'linadi va tahlil qilinadi. Boshqa analizatorlar bilan aloqada ma'lum ish bajariladi. Miya markazi tekis chegaraga ega bo'lmay, «o'zak»

hamda «yoyilgan elimentlardan» tashkil topadi. **o'zak** retseptorning po'stloqdagi to'g'ri va chuqur proeksiyasi bo'lib, yuqori tahlil qiluvchi asosiy qism hisoblanadi. **YOyilgan elimentlar** o'zakni atrofida joylashgan bo'lib, ularda ancha sodda va elimentar tahlil sodir bo'ladi. Markazning o'zak qismi shikastlanganda yoyilgan elimentlar ma'lum darajada o'zakning yo'qolgan faoliyatini qoplab turadi. Har xil analizatorlarning yoyilgan elimentlari egallagan sohalari bir-biriga qo'shilib ketadi. Hozirgi vaqtda miya po'stlo'li bir butun qabul qiluvchi yuza hisoblanadi.

I. Ichki analizatorlarning po'stloqdagi markazlari

1. Harakat analizatorining o'zagi markaz oldi pushtasi (**gyrusprecentralis**) va yarimsharning ichki yuzasidagi markaz yon bo'lagida (**lobulusparacentralis**) joylashgan. Bu sohada harakat analizatori o'zagi hujayralari po'stloqning o'rta qismlarida yotadi. Uning chuqur qavatlarida (5-6 qavat) katta piramida (Bets) hujayralari joylashgan. Ularni I.P.Pavlov po'stloqni po'stloq osti markazlari, bosh miya nervlarining o'zaklari va orqa miyaning oldingi shoxlari bilan qo'shuvchi oraliq neyron deb hisoblaydi. Markaz oldi pushtada odam tanasining qismlari boshi pastga, oyog'i yuqoriga qaragan holatda joylashgan. Markazda tananing ayrim qismlarining egallagan sohasi turlicha bo'lib, ularning faoliyatiga bevosita bog'liq. **qo'l, yuz, lab** mushaklarining faoliyati murakkab bo'lgani uchun, ularning boshqaruvchi markazlar tana va oyoqqa nisbatan katta sohani egallaydi. **o'ng** markaz tananing chap tomonini, chap markaz esa o'ng tomonini boshqaradi, chunki piramida o'tkazuv yo'li uzunchoq va orqa miyada kesishadi. Tana mushaklari, hiqildoq va halqum mushaklari ikkala yarimsharni ta'siri ostida bo'ladi.

2. Bosh va ko'zni bir vaqtda qarama-qarshi tomonga harakatini ta'minlovchi analizatorning o'zagi o'rta peshona pushtasining (**gyrusfrontalissmedius**) orqa qismida (harakat oldi zonasi, 9 soha) joylashgan.

3. Ma'lum bir maqsad uchun qilinadigan harakatlar analizatorining o'zagi o'naqaylarda chap yarimsharning pastki tepa bo'lakchasining **gyrussupramarginalis** sida joylashgan. Bunday murakkab harakat odam hayotida bir turdagi ishni ko'p qaytarishi, tajriba markaz oldi pushtasi bilan chekka usti pushtasi

o'rtasida hosil bo'ladigan vaqtincha aloqalar natijasida hosil bo'ladi. Bu markaz shikastlanganda mushak harakati buzilmaydi, ammo odamning ma'lum bir maqsad bilan qiladigan harakati yo'qoladi. Buni apraksiya deyiladi. Bu markaz bir tomonlama, chapaqaylarda o'ng yarimsharda o'naqaylarda faqat chap yarimsharda bo'ladi.

4. Ichki a'zolar, qon tomirlarning silliq muskullaridan ta'sir olib keluvchi analizatorning markazi harakat markazi oldida (6, 8 sohalar) joylashgan bo'lib, markazdan qochuvchi yo'llar po'stloq osti vegetativ markazlariga boradi.

II. Tashqi ta'sirotlarni qabul qiluvchi analizatorlarning po'stloqdagi markazlari.

1. Sezgi analizatorining markazi markaz orqa pushtada (**gyruspostcentralis**) joylashadi. Odam tanasi qismlari xuddi harakat markazidagidek boshi pastda, oyog'i yuqorida joylashgan. Bu sohada po'stloqning **og'iz** va **qo'l** retseptorlari yaxshi taraqqiy etgani uchun po'stloqning ularga tegishli qismlari katta bo'ladi.

2. O'ng va chap ustki tepa bo'laklarida teri sezgisini bir turi, buyumlarni yopiq ko'z bilan paypaslab bilish-**stereognoziya** markazi joylashgan. Bu markaz jarohatlanganda umumiy sezgi yo'qolmagani holda yopiq ko'z bilan predmetlarni paypaslab bilish xususiyati yo'qolib ketadi (astereognoziya).

3. Eshituv analizatorining o'zagi ustki chakka pushtasining (**gyrustemporalissuperior**) o'rtasida joylashgan. Bu sohaning ikkala yarimsharda buzilishi butunlay karlikka olib keladi.

4. Ko'ruv analizatorining o'zagi ensa bo'lagini ichki yuzasidagi **sulcuscalcarinus** cohasida joylashgan. Bitta markazda bir ko'zning lateral yarmi va ikkinchi ko'zning medial yarmini to'r pardasi proeksiyasi bo'ladi. SHuning uchun butunlay ko'r bo'lib qolganda ko'ruv analizatori ikki tomonda shikastlangan bo'ladi. Ko'ruv markazidan sal yuqoriroqda (17 va 18 sohalarda) ko'rgan narsani eslab qolish markazi joylashgan bo'lib, u jarohatlanganda odamning ko'rgan narsani eslab qolish qobiliyati yo'qoladi. Pona pushtasidagi 19 sohada yangi sharoitga moslashish markazi bo'lib, bu markaz shikastlanganda odamning yangi sharoitga moslashish xususiyati yo'qoladi.

5. Hidlov analizatorining o'zagi chakka bo'lagining pastki yuzasidagi ilmoq, qisman gippokamp sohasida joylashgan.

6. Maza bilish analizatorining o'zagi hidlov va maza bilish sezgilari bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgani uchun hidlov markaziga yaqin joylashgan. Ammo markaz orqa pushtasining pastki qismlari jarohatlanganda ham odamning maza bilish faoliyati buziladi. YUqorida aytib o'tilgan po'stloq markazlari miya po'stlog'ining ma'lum bir sohalarida joylashgan bo'lib, ularga ta'sirotlar tashqi va ichki muhitdan keladi. Bu ta'sirlar turli xil sezgi va sezgilar to'plami sifatida qabul qilinadi va ularni I.P. Pavlov birinchi signal tizimi deb ataydi. Bu tizim hayvonlarda ham bo'ladi. Bundan tashqari odam so'zlash, fikrlash xususiyatlariga ega bo'lganidan keyin, unda ikkinchi signal tizimi paydo bo'ladi. Ontogenezda odamda avval birinchi signal tizimi markazlari, so'ngra ikkinchi signal tizimi markazlari paydo bo'ladi. Ikkinchi signal tizimi markazlarining taraqqiyoti va takomillashuvi tashqi

muhitga, turmush sharoitiga bo'liq. Ikkinchi signal tizimi paydo bo'lishi uchun bola boshqa odamlar bilan aloqada bo'lishi, o'zaki so'zlarni va yozishni o'rganishi kerak. So'zlash jarayoni murakkab bo'lib, uni bajarishda butun po'stloq qatnashadi, ammo ma'lum bir sohalar asosiy bo'ladi. Bu sohalar so'z analizatorlarining o'zaklari hisoblanadi.

Ikkinchi signal tizimi markazlari.

1.**So'z bo'g'inlarining harakat analizatori o'zagi** pastki peshona pushtasining (**gyrusfrontalisinferior**) orqa qismida (44 soha, Brok pushtasi) joylashgan bo'lib, harakat markazini pastki qismiga yaqin turadi. Bu erda so'z bo'g'ini, so'zlarni hosil qilishda ishtirok etadigan lab, til, hiqildoq muskullaridan keladigan qo'zg'olishlar tahlil qilinadi. Bu markaz jarohatlanganda odam har xil tovushlar chiqaradi, ammo ulardan so'z hosil qila olmaydi. Buni harakat afaziyasi deyiladi. 44 sohaning oldida 45 soha joylashgan bo'lib, u jarohatlanganda odam so'zlardan gap tuza olmaydi. Buni agramatizm deyiladi.

2.**Og'zaki so'zlashning eshituv analizatori o'zagi** eshituv a'zosi bilan bog'liq bo'lgani uchun, eshituv analizatoriga yaqin joyda, yuqori chakka pushtasini (**gyrustemporalissuperior**) orqa qismida (42 soha, Verneke markazi) joylashgan. Bu markaz yordamida odam so'zlash vaqtida tovush past balandligini tartibga solib turadi va boshqa odamni tushinadi. Bu markaz jarohatlanganda odamning tovushni eshitish qobiliyati yo'qolmagan holda, so'zlarni tushinish qobiliyati yo'qoladi. Buni so'z soqovligi yoki **sensor afaziya** deyiladi.

3.Odam o'z taraqqiyotida faqat so'zlashni emas, balki yozishni ham o'rgangan. Harflarni yozish qo'lning ma'lum bir harakatini talab qiladi, bu esa umumiy harakat analizatori bilan bog'liq. SHuning uchun yozma so'zning harakat analizatori o'zagi o'rta peshona pushtasini (**gyrusfrontalismedia**) orqa qismida markaz oldi pushtaga yaqin joylashgan. Bu analizatorning faoliyati qo'lni ma'lum bir maqsadlar bilan qilinadigan harakatlar markazi (**40 soha gyruissupramarginalis**) bilan bog'langan. U markaz jarohatlanganda umumiy harakat yo'qolmaydi, ammo qo'lning harflarni yoki shakllarni yozabiladigan nozik harakatlari yo'qoladi. Bu holatni **agrafiya** deyiladi.

4.**Yozma so'zning ko'ruv analizatori o'zagi** pastki tepa bo'lagida (**gyrusangularis 39 soha**) joylashgan bo'lib, ko'ruv analizatori bilan bevosita bog'liq. Bu markaz jarohatlanganda, odamni ko'rish qobiliyati yo'qolmagan holda, o'qish qobiliyati yo'qoladi. Bu holni **aleksiya** deyiladi. Odamning ikkinchi signal sistemasi markazlari ikkala yarimsharda bo'ladi, lekin bir tomonda ko'proq taraqqiy etgan (o'naqaylarda chap tomonda, chapaqaylarda o'ng tomonda bo'ladi).

Analizatorlarning po'stloq markazlarining taraqqiyoti

1.Harakat analizatorining o'zagi 7-10 yoshlarda takomillashib bo'ladi.

- 2.Ma'lum maqsad bilan qilinadigan harakat (praksiya) markazi yangi tug'ilgan bolada bo'lmaydi. Bola hayotining birinchi ikki yilida oldingi markaziy pushta bilan aloqa, uch yoshlarda esa ma'lum bir maqsad bilan harakat markazi paydo bo'ladi.
- 3.Sezgi analizatori sohasida po'stloq sitoarxitektonikasi ikki yoshda kattalarnikiga o'xshash tuzilishga ega bo'ladi.
- 4.Buyumlarni paypaslab bilish (stereognoziya) analizatori o'zagi bola hayotining 2-4 yoshlarida to'liq hosil bo'ladi.
- 5.Yangi tug'ilgan bola eshituv analizatori o'zagi shartli reflektor faoliyatiga moslashgan bo'ladi. 2-3 yoshlarda ikkinchi signal sistemasi rivojlanadi va markaz takomillashadi.
- 6.Yangi tug'ilgan bola ko'ruv analizatori o'zagining sitoarxitektonikasi kattalarnikiga o'xshagan bo'ladi. Keyingi davrlarda o'zak tarkibi tashqi muhit ta'sirida takomillashib boradi.

Ikkinchi signal tizimi analizatorlarining markazlarini taraqqiyoti quyidagicha bo'ladi:

- 1.So'z bo'g'imlarining harakat analizatori (Brok pushtasi) uch yoshlarda takomillashadi.
- 2.Yozma so'zning harakat analizatori 7 yoshda paydo bo'ladi.
- 3.Og'zaki so'zlashning eshituv analizatorini o'zagi bola hayotining birinchi yilida takomillashadi.
- 4.Yozma so'zning ko'ruv analizatori 7 yoshgacha paydo bo'ladi.

Bosh va orqa miya o'tkazuv yo'llari

Bosh va orqa miyaning o'tkazuv yo'llari sodda va murakkab refleks yoylari tarkibiga kiruvchi orqa va bosh miyada uziluvchi, yuqoriga ko'tariluvchi va pastga tushuvchi nerv tolalarining yig'indisidan iborat. Bu yo'llar orqa va bosh miyaning turli qismlarini bir-biri bilan bog'lab, miya tarkibiy elementlari ichida ikki tomonlama aloqani ta'minlab turadi. O'tkazuv yo'llar vositasida markaziy nerv tizimi va organizmning birligi va uning tashqi muhit bilan aloqasi boshqarilib turiladi. O'tkazuv yo'llar yordamida ichki va tashqi qo'zg'olish retseptorlari qabul qilib olgan markazga intiluvchi nerv impul'slarini orqa va bosh miyada markazdan qochuvchi yo'llarga o'tishi orqali organizmning tashqi va ichki muhit ta'siriga moslashuvi paydo bo'ladi, muskullar qisqarib, bezlar shira ajratadi.

Refleks asosida reflektor yoyi yotadi. Reflektor yoyida nerv impulsi 120 m/sek. tezlikda yuradi. Sodda reflektor yoyi odatda ikki neyronidan iborat bo'lib, ulardan bittasi sezuvchi yuzadan boshlansa, ikkinchisi aksoni bilan muskullarda tugaydi. Murakkab reflektor yoyida uchinchi oraliq neyron bo'lib, u sezuvchi neyron bilan harakatlantiruvchi neyronni bir-biriga bog'lab turadi.

Barcha o'tkazuv yo'llari uch guruhga bo'linadi: proeksion, komissural va assotsiativ. Organizm taraqqiyotida proeksion o'tkazuv yo'llari oldinroq paydo bo'lib, keyin komissural va eng so'ngida assotsiativ yo'llar paydo bo'ladi.

Assotsiativ o'tkazuv yo'llari bosh miyaning bitta yarimshari kulrang moddasini bir-biriga qo'shib turadi. Assotsiativ o'tkazuv yo'llari har xil tuzilishdagi neyronlar zanjiridan iborat bo'lib, ular afferent yo'llarning oxirgi neyroni bilan efferent yo'llarning birinchi neyroni o'rtasida oraliq neyron holatida joylashib, reflektor yoyini biriktirib turadi. Assotsiativ yo'llar uzun va qisqa tolalardan iborat bo'ladi.

Ontogenezda assotsiativ yo'llar komissural va proeksion yo'llarga nisbatan kechroq paydo bo'ladi, ammo bola tug'ilganidan keyingi davrda tez o'sib, mielin pardasi bo'lmaydi. Bola hayotining ikkinchi oyidan boshlab ularda mielin parda hosil bo'ladi va proeksion markazlar bilan aloqalar paydo bo'ladi.

Komissural o'tkazuv yo'llari bir yarim shar po'stlog'ini ikkinchi yarim shar po'stlog'iga qo'shib turadi. Komissural o'tkazuv yo'llar yangi po'stloq markazlarini qo'shib turadigan qadoq tana va eski komissural yo'llar gumbaz bitishmasi, oldingi va orqa bitishmalardan iborat.

Proeksion o'tkazuv yo'llari

Proeksion o'tkazuv yo'llari bosh miya po'stlog'i bilan miya pog'onasi o'zaklari (qisqa proeksion yo'llar), hamda orqa miya o'zaklari (uzun proeksion yo'llar) o'rtasidagi ikki tomonlama aloqani ta'minlab turadi. Nerv impul'slarini yo'nalishiga qarab proeksion yo'llar ikki guruhga markazga intiluvchi-afferent, sezuvchi yo'llar nerv impul'sini periferiyadan markazga po'stloqqa olib boruvchi va markazdan qochuvchi-efferent, harakatlantiruvchi, impul'sni miya po'stlog'idan periferiyaga olib boruvchi yo'llarga bo'linadi. Afferent va efferent proeksion yo'llar murakkab reflektor yoyining asosiy qismlari bo'lib, ular o'zaro miya po'stlog'ida assotsiativ o'tkazuv yo'llari vositasida qo'shiladilar.

Afferent o'tkazuv yo'llari

Orqa va bosh miyaning markazga intiluvchi-afferent o'tkazuv yo'llari ekstratseptiv, propriotseptiv va intratseptiv tizim tolalariga bo'linadi. Ekstratseptiv markazga intiluvchi yo'llar orqali tashqi muhit ta'sirida hosil bo'ladigan nerv impulslari o'tadi. Bu yo'llarga harorat, og'riq, tanaga bo'ladigan bosim, hamda sezgi a'zolaridan keluvchi o'tkazuv yo'llar kiradi.

Propriotseptiv markazga intiluvchi yo'llar mushaklar, paylar, bo'g'im xaltasi, boylamlardan kelayotgan nerv impulslarini orqa miyadan bosh miyaga o'tkazib beradi.

Intratseptiv markazga intiluvchi yo'llar ichki a'zolar va qon tomirlardan kelayotgan impulslarni o'tkazadi.

Sezuvchi uzun proeksion o'tkazuv yo'llar ekstratseptorlar, propriotseptorlar va interotseptorlardan kelayotgan impulslarni orqa miyadan bosh miya po'stlog'ining sezuv, harakat markazlariga va miyachaga o'tkazib beradi. Ular uch neyrondan iborat bo'lib, birinchi neyroni bosh va orqa miyadan tashqarida, orqa miya tuguni yoki bosh miya nervlarining sezuvchi tugunlarida joylashgan sohta unipolyar hujayralar tashkil qiladi.

Efferent o'tkazuv yo'llari

Efferent o'tkazuv yo'llar bosh miyaning turli markazlaridan harakat va sekretor a'zolarga impulslar olib boradi. Efferent o'tkazuv yo'llari ikki neyrondan iborat. Harakatlantiruvchi o'tkazuv yo'llar qisqa va uzun yo'llarga bo'linadi. Efferent harakatlantiruvchi o'tkazuv yo'llar yarimsharlar po'stlog'i bilan bosh miyaning bazal o'zaklari va pog'ona qismini o'zaro bog'lab turadi. Ularga ko'ruv yo'lining bir qismi bo'lgan, ko'ruv analizatorini ko'ruv bo'rtig'i bilan bog'lovchi (tractuscorticothalamicus), peshona va tepa bo'lagi po'stlog'ini targ'il tana bilan bog'lovchi (tractuscorticostriatus), ko'ruv bo'rtig'i yostiqchasi bilan dumli o'zak, targ'il tana va gipotalamik soha o'rtasidagi bog'lanishlar kiradi.

Uzun harakatlantiruvchi yo'llarga bosh miya po'stlog'i hujayralari va ekstrapirpmida tizimi o'zaklaridan boshlanib, bosh miya pog'onasi va orqa miyada tugaydigan piramida va ekstrapiramida yo'llari kiradi.

Foydalaniladigan adabiyotlar.

Asosiy adabiyotlar:

2. Po'latxo'jayeva M.R. Defektologiyaning klinik asoslari. 25-42 bet O'quv qo'llanma. TDPU – 2013.
2. Alimov X.A., Manasipova I.X. Nekotorie voprosi organizatsii i razvitiya psixiatrichesokoy pomoshi v Uzbekistane. Trudi Tashkentskoy psixiatricheskoy bolnisi 38-42 bet III tom. T., 1996
3. Agranovskiy M.L. Obshaya meditsinskaya psixologiya i psixopatologiya. 32-38bet Andijan. «Andijon», 2004 – 215
4. Sodiqova Q, Aripova S.X, Shaxmurova G.A . Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi. 45 -50 bet T., “Yangi asr avlodi” - 2009.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Kandel, Eric R.; Schwartz, James H.; Jessell, Thomas M. (2000). Principles of Neural Science Fourth Edition. United State of America: McGraw-Hill. p. 324.
2. A.G'. Ahmedov. Odam anatomiyasi. T., - 2009 y.
3. I.I. Bobrik, V.I. Minakov. Atlas anatomii novorojdennoy. Kiev- 1990 g.
4. S.A. Asomov, A. Ahmedov Markaziy nerv va sezgi a'zolari tizimining taraqqiyoti va bolalardagi xususiyatlari. T., - 1995 g.
5. O.V. Kalmin. Provodyashie puti sentralnoy nervnoy sistemy. Penza - 1999 g.

5-маъруза. Инсон бош мия асаблари анатомияси, физиологияси ва патологияси

Режа

1. Бош мия асаблари ҳақида умумий маълумотлар
2. Сезувчи бош мия асаблари
3. Ҳаракатлантирувчи бош мия асаблари
4. Аралаш бош мия асаблари

Таянч сўз ва иборалар: бош мия, асаблар, сезувчи асаблар, ҳаракатлантирувчи асаблар, аралаш асаблар, жуфт асаблар

У инсонни бошқа жонзотлардан ажратиб туради, бизга мўжизалар яратиш, ойда сайр қилиш ва адабиёт, мусиқа ва ранг тасвир дурдоналарини яратиш имконини беради. Инсон мияси – эгилувчан ва уч фунтдан иборат ёғли тўқима – телефон коммутатори ёки супер компьютер кабидир. Лекин мия улардан ҳам мураккаброқ тузилган, бу далилни олимлар деярли ҳар куни ва ҳар бир тадқиқотида тасдиқламоқдалар. Мия имкониятлари даражаси аниқ эмас, лекин у бутун тирик борлиқнинг энг мураккаб тузилмасдир⁴.

Бош мия асаблари ҳақида умумий маълумотлар

Бош мия асаблари бош мия асосидан чиқувчи 12 жуфт асабдан иборат.

Улар тузилиши жиҳатидан орқа мия асабларидан фарқ қилади. Бу фарқ бош мия ҳамда бошнинг тараққиётини тана ва орқа мия тараққиётдан бошқача бўлишига боғлиқ.

12 жуфт бош мия асабларини бир нечта гуруҳга бўлинади.

I гуруҳга учта сезувчи асаблар: I жуфт -ҳидлов асаби, II жуфт-кўрув асаби, VIII жуфт-дахлиз-чиЛаноқ асаби киради.

II гуруҳга бешта ҳаракатлантирувчи асаблар: III жуфт-кўзни ҳаракатлантирувчи асаб, IV жуфт-Иалтак асаби, VI жуфт-узоклаштирувчи асаб, XI жуфт-қўшимча асаб, XII жуфт-тил ости асаби киради.

III гуруҳга тўртта аралаш асаблар: V жуфт-уч шохлик асаб, VII жуфт-юз асаби, IX жуфт-тил ютқин ва X жуфт-адашган асаб киради. Охирги гуруҳ асаблари

⁴ Brain Facts. A PRIMER ON THE BRAIN AND NERVOUS SYSTEM.

таркибида сезувчи, ҳаракатлантирувчи ва вегетатив толалар бўлади, аммо асабларнинг бундай бўлиниши шартли равишда, чунки ҳар қандай ҳаракатлантирувчи асаб таркибида чуқур сезги ва вегетатив толалар бўлади.

Бош мия асаблари орқа мия асабларига ўхшаб орқа ва олдинги илдизлар йиғиндисидан иборат бўлмай, фақат олдинги ёки орқа илдизлардан ҳосил булгани учун ҳаракатлантирувчи ёки сезувчи асаблар бўлади. Бундан ташқари бош мия асабларининг ҳеч қайсиси бошқа бировига ўхшамайди.

12 жуфт бош мия асаблари тараққиётига қараб бир неча гуруҳга бўлинади.

I-олдинги миядан тараққий этувчи I ва II жуфт асаблар. Улар бош мия ўсимталари бўлиб, ҳидлов асаби ҳидлов миясидан, кўрув асаби эса оралик миядан тараққий этади.

II-бош миотомлари билан алоқада тараққий этувчи (III, IV, VI жуфт) асаблар. Бу асаблар бошнинг олдинги учта сомитидан тараққий этган кўз олмаси мушакларини инасабация қилади.

III-висцерал равоқлар асаблари (V, VII, IX, X жуфт). Бу асабларнинг тугунлари бўлиб уларда сохта униполяр хужайралар жойлашган. Уларнинг тараққиёти ортқи мия билан боғлиқ. Уларнинг таркибида сезувчи толалардан ташқари ҳаракатлантирувчи толалар ҳам бўлиб, висцерал аппарат мушакларини инасабация қилади. Шунинг учун уларни висцерал равоқлар асаблари дейилади.

V жуфт I-висцерал равоқ асаби. VII жуфт- II-висцерал равоқ асаби. IX жуфт III-висцерал равоқ асаби. X жуфт IV ва кейинги равоқлар асаби. XI жуфт кўшимча асаб ўз тараққиётида X жуфт асабдан ажраб чиққани учун шу гуруҳга киритилади. VIII жуфт асаб тараққиёти даврида VII асабдан ажраб чиққан сезувчи асаб ҳисобланади.

IV- 3-4 та орқа мия асабларининг кўшилишидан ҳосил бўладиган XII жуфт- тил ости асаби.

Сезувчи бош мия асаблари

I жуфт, ҳидлов асаби (nn. olfactorius) бурун бўшлиғи ҳидлов соҳасининг шиллиқ пардасида жойлашган ҳидлов хужайраларининг марказий ўсимталаридан иборат. Улар 15-20 та ингичка ҳидлов асабларини ҳосил қилиб, ғалвирсимон суякнинг илма-тешиқ пластинкасидан ўтиб ҳидлов пиёзчасида (*bulbus plfactorii*) тугайди.

II жуфт, кўрув асаби (n. opticus) тўр парданинг кўр доғ соҳасида ганглиоз хужайраларнинг аксонлари тўпламидан ҳосил бўлади. Асаб томирли ва оқлиқ пардани тешиб ўтиб , кўз косасидан кўрув асаби канали орқали калла бўшлиғига чиқади. Мия тубида икки томондан келаётган асаблар бири-бирига яқинлашиб, ўзаро тўлиқ бўлмаган кесишма (*chiasma opticum*) ҳосил қилиб кўрув трактига ўтиб кетади.

ҮIII жуфт, даҳлиз-чиғанок асаби (n. vestibulococlearis) сезувчи асаб. У эшитув ва мувозанат аъзосидан келаётган сезувчи толалардан тузилган бўлиб, икки қисмдан иборат. Унинг даҳлиз қисми асаб хужайралари ички эшитув йўли тубидаги даҳлиз тугунида (**ganglion vestibularæ**) жойлашган. Уларнинг периферик ўсиқлари ички қулоқнинг парда лабиринтида рецепторлар ҳосил қилиб тугайди. Марказий ўсимталари эса ромбсимон чуқурчада жойлашган вестибуляр ўзакларга боради.

Чиғанок қисми (**pars cochlearis**) спирал каналда жойлашган чиғанок тугуни (**ganglion cochleare**) хужайраларининг ўсиқларидан иборат. Уларнинг периферик ўсиқлари спирал аъзода тугаса, марказий ўсиқлари ромбсимон чуқурчадаги чиғанок ўзакларида тугайди. Асаб мия асосидан кўприкнинг орқасидан, юз асаби илдизларидан ташқариюқдан чиқади. Кейин даҳлиз-чиғанок асаби ички эшитув йўлига киради.

Ҳаракатлантирувчи бош мия асаблари

В.Торсион дистония-стриар система зарарланишидан келиб чиқади. Бу касаллик тонуснинг мускулларга нотўғри тақсимланишидан келиб чиқади. Беморлар ҳаракат қила бошлаганларида тананинг табиий вазияти ўзгаради.Тананинг ёзилтирувчи мускулларининг тортиб кетиши натижасида беморнинг бўйни орқа ёки ён томонга қийшайиб, танаси орқа томонга эгилади.

Г.Миоклония- тез ва қиска вақт ичида алоҳида ёки мускул группаларининг клоник қисқариши. Хаяжонланганда ҳаракат кўпайиб, ухлаганда йўқолади

Мияча- Cerebellum. Мувозанат ва ҳаракатни координация қиладиган орган. Мияча мия қутисининг орқа чуқурчасида, бош мия энса бўлагининг остида ва кўприк билан узунчоқ мия орқа томонида жойлашган бўлиб, ромбсимон миянинг томини ҳосил қилади. Мияча тананинг тинчликда ва ҳаракатдаги муовзанатини бошқарувчи марказий орган. Мияча тана мускулларининг тонусини бошқаради. Мияча анатомик 2 та ярим шардан ва уларни бирлаштирувчи чувалчангдан тузилган. Чувалчанг ва мияча ярим шарлари чуқур кўндаланг ёриқлар билан фрагментацияланади. Мияча оқ ва кулранг моддадан ташкил топган. Кулранг модда миячанинг пўстлоғини ҳосил қилади.


Миячанинг ташқи томони кулранг модда билан қопланган бўлиб, унинг миячанинг пўстлоғи дейилади. Пўстлоқ тагида оқ модда ётади. Мияча оқ модда оралиғида эса унинг марказий ядролари ётади:

1. Тишли ядро (n.dentatus)

2. Ёпилгич ядро (n. fastigii)

3. Пробкасимон ядро (n.embiliformis)

4. Шарсимон ядро (n.globozi)



Расм 5. Миячанинг тузилиши ва унинг ядролари:

1—шатра ядроси; 2 — шарсимон ядро; 3 — понасимон ядро; 4 — тишли ядро:

Мияча пўстлоғининг қалинлиги 1ммдан 2.5ммгача бўлиб, асосан 3 қаватдан иборат бўлади.

Мияча мия устунни билан уч жуфт оёқчалар билан боғланган.

1.Pedunculi cerebellaris superior.

2.Pedunculi cerebellaris media

3.Pedunculi cerebellaris inferior.

Бу оёқчалар нерв толаларидан иборат бўлиб, бу толалар миячага импульс олиб келади ва олиб кетади.

Пастки ва ўрта мияча оёқчалари асосан афферент толаларидан иборат бўлиб, марказга интилувчи системани ташкил қилса, мияча юқори оёқчалари эса эфферент толалардан ёки марказдан келувчи характерга эга.

Мияча пастки оёқчалари миячани узунчоқ мия билан боғлайди.

Миячанинг ўрта оёқлари - мия пўстлоғининг пешона бўлагидан бошланиб, кўприк орқали ўтиб мияча пўстлоғида тугайди. Ушбу йўл -мия пўстлоғининг энса, чакка бўлагидан бошланиб, кўприкдан ўтиб мияча пўстлоғида тугайди. Миячанинг юқори оёқчалари - миячани қизил ядро билан боғлайди.

Шундай қилиб, мияча ҳаракат давомида қўзғалувчи барча рецепторлардан афферент импульс олади. Ҳаракат системасининг ҳолатини ҳисобга олиб, мияча қизил ядро ва мия устунининг тўр формациясини таъсирлайди. Бу таъсирлаш умумлашиб орқа мия олдинги шохларига импульс беради ва буларнинг барчаси мускул тонусини ташкил қилади.

Булардан ташқари мияча қўз олмасини ҳаракатлантирувчи нерв ядролари билан ҳам боғланади.

Мияча аниқ соматотопик хусусиятга эга, яъни унинг чувалчанги тана мускулларини идора қилса, унинг ярим шарлари эса қўл-оёқнинг дистал қисмидаги мускулларни таъсирлайди. Шу сабабли мияча атаксияси икки турга бўлинади.

1. Статик - локомотор атаксия. Асосан тик туриш ва юриш бузилади. Бемор оёқларини кенг ташлаб туради, чайқалади. Юриш жараёнида тана ён томонга кетиб қолади ва маст кишининг юришини эслатади. Чайқалиш мияча жароҳатланган томонда бўлади. Бундай юришни атактик юриш дейилади.

I.Статик атаксия

- 1.Тик туриш, оёқларни кенг тутиш
- 2.Юриш- маст киши юриши
- 3.Ромберг белгиси
- 4.Дорбоз белгиси

II. Динамик атаксия. Асосан ҳаракат бажарилишида кузатилади.

- 1.Бармоқ-бурун белгиси
- 2.Товон-тизза белгиси
- 3.Адиадохокинез
- 4.Дисметрия
- 5.Нутқнинг бузилиши, ҳар бўғимда урғу беради, скандирлашган.
- 6.Интенцион титраш
- 7.Ёзувнинг бузилиши, нотекис
- 8.Горизонтал нистагм
- 9.Мускул тонусининг ўзгариши (гипотония) зарарланган томонда

Текшириш учун саволлар:

- Мияча зарарланганда қандай белгилар кузатилади?
- Мияча атаксияси бошқа атаксиялардан (сенситив, вестибуляр ва пешона атаксияларидан) қандай фарқланади?
- Бош миянинг қайси қисмлари экстрапирамида системага киради?
- Стриар системанинг патологияси қандай белгилар билан намоён бўлади?
- Паллидар системанинг зарарланиши қандай белгилар билан намоён бўлади?

Бош ва орқа мия пардалар.

Бош ва орқа мия пардалар - бош ва орқа мияда 3 та қаттиқ, тўрсимон ва юмшоқ пардалар мавжуд. Пардалар мияни ҳар-хил таъсирлардан сақлайди. Қаттиқ мия пардаси ўсимталари ва цистерналари механик таъсирлардан сақлайди. Тўрсимон ва юмшоқ мия пардалари суюқлик айланишини мия тўқимасини озиқланишини таъминлайди.

Қаттиқ мия пардаси.

Қаттиқ мия пардаси - мияни ташқи пардаси ҳисобланади ва 2 қаватдан иборат. Ташқи қавати калла суягини ички пардасини, ички қавати фиброз

тўқималардан иборат бўлиб миёни бевосита қоплайди. Калла суягини ичида бу 2 қават қўшилиб бош миё ўроғи (Falx cerebelli), миёча ўроғи (Falx cerebelli), миёча чодир (tentorium cerebelli), эгар диафрагмаси (duafagma sellae), уларни ўзаро ажралган жойлари синусларни ҳосил қилади. Энг катталари юқори ва пастки сагиттал, кўндаланг ва тўғри синуслардир. Булар орқали веноз қон ички бўйинтуруқ венасига қуйилади.

Тўрсимон парда.

Тўрсимон парда - қаттиқ миё пардаси остида жойлашган ва ундан субдурал бўшлиқ билан ажралган. Бу парда остида субарахноидал бўшлиқ жойлашган, унда орқа миё суюқлиги жойлашади. Шу бўшлиқ ҳар хил жойларида цистерналар ҳосил қилади. Ликвор субарахноидал бўшлиқ тўрсимон ва юмшоқ пардалар орасида циркуляцияланади.


Қаттиқ парда умуртқа поғонасини эпидурал бўшлиқ билан ажралган. Ўрта ва тўрсимон пардалар қаттиқ пардадан субдурал бўшлиқ билан юмшоқ парда эса тўрсимон ости билан (от думи соҳасида) терминал қоринчани ва у орқа миё суюқлиги билан тўлган бўлади.

Орқа миё суюқлиги.

Орқа миё суюқлиги миё қоринчаларидаги томирлардан чиқади. Ён қоринчаларидан ликвор III чи қоринчага ундан сийвиев йўли бўйича IV чи қоринчага ва ундан миё ва орқа миё тўрсимон ости бўшлиғига ўтади. Суюқлик узлуксиз суткасига тахминан 600 мл ишлаб чиқарилади ва узлуксиз асосан веноз система орқали ажралади. Ликвор қисман лимфа системаси орқали сўрилади. Ликвор ҳаракати томирлар пульсацияси нафас, бош ва тана ҳаракати ёрдамида амалга оширилади. Орқа миё суюқлиги таркибига киради: сув, ҳужайралар, лимфоцитлар, оқсил, глюкоза, хлоридлар, электролитлар, микроэлементлар, витаминлар, гормонлар.

Нормада ликвор тиниқ, рангсиз миқдори катта одамда 120-150 мл, цитоз (лимфоцитлар) 7-12 та 1 мкл; глюкоза 0.5-0.8 г/л, оқсил миқдори 0.12-0.33 г/л, босими 200 мл сув.уст. (ёнбош ҳолатда).

Орқа миё суюқлигининг физиологик аҳамияти турли туман. Авваламбор у миёни гидравлик ёстиғи ҳисобланади ва миёни чайқалишидан механик ҳимоя қилади. Шунингдек у моддалар алмашинувида қатнашади, бош миё орқа миёга озиқлантирувчи маҳсулотларни етказди ва улардан алмашинув маҳсулотларини олиб чиқади; электролит балансни сақлайди ва миё ички муҳитини турғунлаштиради.




Расм 6. Цереброспинал суюқликнинг циркуляция қилиш схемаси

Гематоэнцефалик тўсик.

МНС қон-томирларининг ўзига хос хусусияти шундаки улар астроцитлар билан изолирланган бўлади ва уларни томирлари орқали йирик молекула ўта олмайди, фақатгина газлар ва майда молекулалар озиқлантирувчи моддалар киради. Бу чегараланиш гематоэнцефалик тўсик номини олган. Шунингдек миядан қонга моддаларни ўтиши чегараланган. Гематоэнцефалик тўсиқни шикастланиши мия фаолиятининг оғир бузилишига олиб келади.

Нерв системасининг қон билан таъминланиши.

Бош мия қонни иккита жуфт магистрал томирлардан: умуртқа ва ички уйқу артериясидан олади. Умуртқа артерияси ўмров ости артериясини тармоғи ҳисобланади. У бош мия чаноғига умуртқаларнинг қўндаланг ўсиғи тешиги орқали йўналади ва катта энса тешиги орқали киради. Мия устунини: соҳасида умуртқа артериялари битта умумий устунга қуйилади. Улар 2 та орқа мия артериясига бўлинади ва ўрта мия, кўприк, мияча катта ярим шарлари энса бўлагини қон билан таъминлайди. Бундан ташқари ундан иккита орқа мия артерияси (олдинги ва орқа) ажралади. Санаб ўтилган артериялар вертебро-базилляр хавзани ҳосил қилади. Каротид бассейни ички уйқу артериясининг тармоқларидан ҳосил бўлади. Ички уйқу артерияси умумий уйқу артериясининг тармоғи ҳисобланади. У калла бўшлиғига ички уйқу тешиклари орқали киради ва бир нечта: кўз артерияси, орқали қўшувчи ва олдинги сўрғичсимон артерияси тармоқларини беради.



Расм 7. Бош миёни қон билан таъминланиш схемаси


Ички уйқу артерияси олдинги ва ўрта миё артерияларига бўлинади. Олдинги миё артерияси пешона бўлагининг олдинги бўлимини ва ярим шарлар ички юзасини, ўрта миё артерияси пешона пўстлоқ қисмининг кўп қисмини тепа ва энса бўлагини пўстлоқ ости бўлақларини ва ички капсулани катта қисмини қон билан таъминлайди. Олдинги ўрта ва орқа миё артерияси миёга радиал кирувчи артериялар устунини бошлаб беради.

Иккала олдинги миё артериялари, олдинги қўшувчи артериялар ҳам бирикади. Орқа қўшувчи артериялар орқа ва ўрта миё артерияларини қўшади. Шундай қилиб миё ярим шарлари ички юзасида турли хил тизим томирлар ўзаро бирикиши натижасидан катта миё артериал халқаси ёки Виллизев халқаси ҳосил бўлади. У миё магистрал томирларининг бирида қон оқиши бузилишида коллатерал қон айланиш юзага келишида катта роль ўйнайди. Ички уйқу ёки умуртқа артерияларининг бир томонлама беркилиши қарама-қарши томондаги Виллизев халқаси томоирлар тизими ёрдамида компенсацияланади. Пўстлоқнинг кулранг моддаси оқ моддага нисбатан кўпроқ қон билан таъминланади. Бош миё ортериялари охириги артериялар ҳисобланмайди чунки артериолалар ва венулалар ўзаро анастомоз ҳосил қилади. Миё қаттиқ пардаси ташқи уйқу артерияси тармоқлари орқали қон билан таъминланади.

Веноз қон оқими томирлар чигали ва миёнинг чуқур қисмларидан катта миё венаси (Гален венаси) орқали амалга ошади ва тўғри веноз синусга қўшилади. Бошқа синусларга миё юзаки веналари қуйилади. Қаттиқ миё пардаси синусидан қон ички бўйинтуруқ венаси орқали ва кейинчалик юқори ковак венага қуйилади.

Орқа миёни қон билан таъминланиши.

Орқа миёни қон билан таъминланиши олдинги ва орқа орқа миёна артериялари ҳисобига амалга ошади. Олдинги орқа миёна артериялари узунчоқ миёна асосида умуртқа артериялари чиқиб орқа миёна чегарасида битта тоқ орқа миёна артериясига қўшилади ва у орқа миёна бўйлаб пастга йўналади. Орқа миёна артериялари умуртқа артерияларининг олдингига нисбатан пастроқдан чиқади ва орқа миёнанинг орқа юзаси бўйлаб пастга йўналади. Орқа миёна артериялари қон билан таъминланиши (кўндаланг кесим).



Расм 8. Орқа миёнада артериал қон айланиш схемаси (кўндаланг кесими):

1 — орқа миёнанинг олдинги артерияси; 2 — эгатсимон артерия; 3 — орқа миёнанинг орқа артерияси; 4- циркумферент артерия.

Олдинги ва орқа миёна артерияларига аортадан сегментар тармоқлар умуртқа артериялари тизимининг тугун артериялари қўшилади.

Орқа миёнанинг артериал қон билан таъминлашида 3 та бассейн фарқланади:

- 1) юқори (сигментлар $C_1 - T_3$), умуртқа артерияларидан қон олади
- 2) ўрта ($T_4 - T_8$ сигментлар), аортанинг илдиз артериялари қон билан таъминлайди
- 3) пастки ($T_9 - S_5$ сигментлар) 1 та илдиз ортерияси Адамкевич артерияси орқали қон билан таъминлайди. У пастки қовурғалари ёки бел аретрияси тармоғи ҳисобланади.

Веноз қон орқа миёнадан бир хил номланадиган артериялар билан паралелл кетувчи веналар орқали олади ва умуртқа канали веноз чигалига қуйилади.

Текшириш учун саволлар ва топшириқлар.

Нерв тизимини структура бирлиги нима?

Нерв тизимини қандай вазифаларини биласиз?


Орқа миёна тузилиши?

Катта ярим шарлар бўлаклари ва бош миёни қон билан таъминловчи бассейнларни санаб ўтинг.

Гематоэнцефалик тўсиқнинг аҳамияти нимада?

Орқа миёна

Орқа миянинг кулранг моддаси нерв хужайраларининг йиғиндисидан иборат ва горизонтал кесмада худди учиб кетаётган капалак ёки "Н" расмни эслатади. Кулранг модда марказида тор марказий канал мавжуд. Бу канал кўндаланг кесмани 2 га, яъни олдинги кулранг битишма ва орқа кулранг битишмага ажратади.



Расм 9. Орқа мия кўндаланг кесими:


1 — кулранг модда; 2 — оқ модда ; 3 — орқа илдизча; 4 — олдинги илдизча

Орқа миянинг кулранг моддасидан тузилган олдинги шохлар, ён шохлар, орқа шохлар тафовут қилинади. Бу ерда ҳаракатлантирувчи пирамида йўлининг 2-нейрон хужайралари жойлашган. Орқа мия олдинги шохларининг шикастланиши периферик фалажлик ривожланишига олиб келади ва мушаклар атонияси, арефлексияси ва атрофиясига олиб келади. Ён шохларда вегетатив трофик функцияга жавоб берувчи хужайралар жойлашган. Ён шохлар асосан орқа миянинг кўкрак қисмида яхши ривожланган. Д₁-Д₂ оралиғида цилиоспинал симпатик марказ жойлашган, шу соҳанинг шикастланиши Клод-Бернар-Горнер ярим птоз-миоз-энофтальм синдромини юзага келтиради. Шундай қилиб ён шохларнинг шикастланиши вегетатив трофик бузилишларга: оғриқсиз панариций, соч ва тирноқларнинг тўкилишига олиб келади. Орқа миянинг орқа шохларида юқори оғриқ сезгисининг ўтказувчи йўллариининг 2 нейронлари жойлашган.

Уларнинг шикастланиши сезгининг сегментар бузилишларига олиб келади, чуқур сезги сақланиб қолган бўлади.

Орқа миянинг оқ моддаси ўтказувчи йўллардан ташкил топган бўлиб, олдинги, ён, орқа устунларга бўлинади. Олдинги устундан кесишмаган пирамида йули, экстрапирамида йўллари ўтади. Ён устундан юқорига кўтарилувчи ва пастга тушувчи йўллар ўтади. Орқа устундан юқорига кўтарилувчи йўллар ўтади.

Орқа миянинг алоҳида сегментлари орасида зич боғланишлар бўлиб, улар махсус ассоциатив хужайра ва толалар томонидан амалга оширилади. Бу аппаратга орқа миянинг хусусий аппарати дейилади.



Расм 10. Орқа мия сегментлари билан умуртқа танаси ўртасидаги топографик нисбат.

Орқа миянинг ҳар бир сегменти ўз томонининг маълум бир қисмини иннервация қилади: тери-дерматома, мушак-миотома, ички орган - спланхлотома. Бундай кесма метомер деб айтилади.

Фойдаланиладиган адабиётлар

Асосий адабиётлар

1. Po‘latxo‘jayeva M.R. Defektologiyaning klinik asoslari. O‘quv qo‘llanma. T., TDPU – 2013.

Қўшимча адабиётлар

1. Sodiqova Q, Aripova S.X, Shaxmurova G.A . Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi. T., “Yangi asr avlodi” - 2009.

2. McGill-Franzen A., Allington R.L. (Eds.) Handbook of Reading Disability Research. Routledge, 2011. — 522 p.
3. David Ronald. Clinical Pediatric Neurology. Third edition. Demos Medical Publishing, 2009 - 640

8-маъруза. Инсон ҳаракатланиш тизими

Режа:

1. Асаб – мушак аппаратининг функцияси
2. Ҳаракат сифатларининг ривожланиши
3. Бош мия пўстлоғида ҳаракат марказларининг ривожланиши.
4. Ҳаракат фаоллигининг ривожланиши.

Таянч сўз ва иборалар: асаблар, мушаклар, ҳаракат, ҳаракат марказлари, ҳаракат сифати ва фаоллиги

- The average number of neurons in the brain is 100 billion.
- The length of myelinated nerve fibers in the brain is between 93,200 and 112,000 miles (150,000 and 180,000 kilometers).
- The difference in the number of neurons in the brain's left and right hemispheres: 186 million more neurons in the left hemisphere in comparison to the right hemisphere.

Миядаги нейронлар сони 100 миллиардан ортиқ.

Миядаги асаб тўқималарининг узунлиги 93,200 ва 112,000 милл (150,000 ва 180,000 км) атрофида.

Бош мия ўнг ярим шариға қараганда чап ярим шарида 186 миллион кўпроқ нейрон бор.⁵

Асаб импульслари миядан 170 милл (274 км) соат тезлигида ҳаракат қилади

Асаб-мушак аппаратининг функцияси.

Айрим функцияларнинг ривожланишида онтогенетик жараёнларнинг гетерохронизми намоён бўлади. Мисол учун янги туғилган болаларда мушакларнинг кўзғалувчанлиги жуда паст, лекин 6-7 ёшгача у жуда тез орта боради, ундан кейин эса нисбий барқарорлик бошланади. Ёш улғайиши билан электр токига кўзғалувчанлик бўсағаси орта борса, гуморал омилларга эса аксинча пасаяди.

Асаб-мушак тизимининг функционал ҳаракатчанлиги одатда асаб-мушак синапсларининг функционал ҳолати билан аниқланади. Бу тузилманинг етилиши секин-аста юз беради ва асаблардан мушакларгача кўзғалишни ўтказилиш вақтини 4 мартагача қисқартиради. Функционал ҳаракатчанлик (лабиллик)нинг ортиши 14-16 ёшгача давом этади.

Янги туғилган болалар мушакларининг функциясида доимий равишда фаол ҳолатда бўлиши ва ҳатто уйку пайтида ҳам бўшашмасдан терморегуляторлик функциясини бажариш хусусияти мавжуд. Терморегуляторлик функциясидан ҳаракат функциясининг устунлик даврига ўтиш пайти асосан чақалоқлик даври

⁵ Encyclopedia of Human Body Systems. Julie McDowell, Editor. Copyright 2010 by ABC-CLIO, LLC

давомида амалга ошади. Скелет мушакларининг доимий фаоллиги уларнинг массасини ўсишини стимулловчи омил ҳисобланади.

Ҳаётнинг 1-ойида мушакларнинг фаоллиги «янги туғилган чақалоқларнинг букулувчи гипердинамикаси» (гавданинг қўл-оёқларнинг ва бошнинг эгилган ҳолати) ҳолати билан характерланади. 1-1,5 ойлик ёшда унда бўйин мушакларининг рефлексор қисқаришини етилиши ҳисобига бошни вертикал ҳолатда сақлаб туришдан иборат бўлган (1-антигравитацион) реакция амалга ошади. 2,5-3 ойлик ёшда эса ҳолатнинг компонентларидан бири бўлган ушлаб туриш рефлекси сўнади ва 4 ойликда эса чамалаш рефлексининг компонентларидан бири сифатида фаол ушлаш шаклида қайта ҳосил бўлади. 5-6 ойларга келиб ўтириш ҳолати (2-антигравитацион реакция), 11-12 ойларда эса тик туриш ҳолати- 3-антигравитацион реакциялар ўзлаштирилади.

Тананинг вертикал (тик туриш) ҳолатини ўзлаштирилиши онтогенезнинг муҳим босқичларидан ҳисобланади. Бу пайтда ҳаракат реакцияларининг бажариш имкониятлари ҳосил бўлади. Ҳаракат фаоллигининг ҳажми сакрашлар шаклида ортади. Вертикал ҳолатни ўзлаштирилиши туфайли мушаклар фаолияти онтогенетик жараёнларнинг кечиши учун таъсир кўрсатувчи атроф муҳит омилларидан асосий бўлиб қолади.

Одамлар учун хос бўлган барча асосий ҳаракат кўникмалари (юриш, югуриш, сакраш ва бошқалар)болаларда секин-аста шаклланади. 4 ёшгача юришнинг айрим элементлари ўзлаштирилади ва уларнинг элементлари орасидаги вақтинчалик нисбатлар тикланади. Қўл ва оёқларнинг келишган ҳолдаги биргаликда бажариладиган координацияси болалар 3 ёшга киргунча –10%, 4 ёшда –50%, 5 ёшда –65%, 6-7 ёшда-80% кузатилади.

7 ёшдан 10 ёшгача тинч юрган пайтда темпни пасайиши ҳисобига ҳаракат амплитудаси ошади, қўл ва оёқлар ҳаракатидаги реципрок нисбатлар тикланади. Боланинг ёши ортиши билан юриш пайтида оёқ қафт суякларининг бурилиш бурчаклари катталашади, ниҳоят турғунликни ошишини ва қафт суякларининг бурилиш ассиметриясини камайишини таъмин этади. 11-12 ёшга келиб юриш пайтидаги оғишлар характери вояга етган одамларни майдондаги ҳаракатлари аниқлигидан жуда кам фарқ қилади. Ўғил ва қиз болаларнинг мактабгача ёшида юриш кинематикасида фарқ кузатилмайди. Секин-аста юришнинг вақтни кўрсаткичлари ва қадамнинг узунлиги-давомиёлиги катталашади. 7-8 ёшдан кейин болаларда тана массасининг кўшимча оғишлари сони камаяди. Юришда иштирок этувчи мушаклар иши параметрларининг вариацияси камаяди.

Югуриш, юришдан учиш фазаси мавжудлиги билан фарқ қилади ва бу фаза болаларнинг ҳаётининг учинчи йилида ўзлаштирилади. 10-11 ёшга келиб учишнинг дастлабки фазаси 2 марта ва ундан ҳам кўп ортади. 7-8 ёшга келиб югуриш пайтида қадамнинг узунлиги 3 мартагача ортади, 10-11 ёшга келиб 4-5 марта ортади. Бу энг аввало оёқлар суякларини қисиши ҳисобига ва бўғинлардаги ҳаракатчанликни ортиши ҳисобига юз беради. 10-11 ёшга келиб югуриш тезлиги юриш тезлигидан 4 марта юқори бўлади. Юришнинг максимал тезлигига 5-6 м/с дан кейин эришилади ва 7-8 ёшли болаларда 4,5 м/с га яқин, 10-11 ёшда 5,4 м/с ташкил қилади.

59 % ариқ болалар 3 ёшлигида икки оёқга таяниб симметрик ҳолдаги сакрашни бажара олмайди. Бу эса координациясини орқа мия тузилмаларини ҳаракатини таъминловчи тўлиқ етилмаганидан далолат беради. Фақатгина 6 ёшга баъзоидан кейин икки оёқга таяниб сакрашнинг тўлиқ маҳоратда бажаришлар намоён бўлади.

Одамнинг ҳар кунги ҳаётида зарур бўлган асосий ҳаракат кўникмаларининг шаклланиши асосан мактабгача бўлган ёшда юз беради.

Болаларнинг эркин ҳаракат функцияларининг фаол даври 3-ёшдан бошланади ва иккинчи сигнал тизимининг шаклланиши билан узвий боғланган. Бу пайтда сўз, нутқ секин-аста уларни характерловчи бевосита шартли сигнални ўрнини босувчи ўзича алоҳида қўзғатувчи характерини олади. 3 ёшли болаларда эркин ҳаракатнинг бошқарилиши «қайтар афферентацияси» асосида бажарилади («қайта алоқа тамойили»).

4-5 ёшга келиб мақсадли кучланишларни бажариш қобилияти ривожланади (биринчи ҳаракат функцияларининг тикланиш даври). Ҳаракат анализаторларининг ривожланишида анча муҳим давр бўлиб, 6 ёш ҳисобланади. Бу даврда тактил-кинетик сигналларни таҳлили жиддий даражада яхшиланади ва қўзғатувчи ҳамда тормозловчи жараёнларни жамланиши тезлашади. Болаларда мураккаб эркин ҳаракатлар реакцияси шаклланади.

Катта мактаб ёшидаги болаларнинг олий асаб фаолияти муҳим хусусиятларидан бўлиб, бу ёш даврида шаклланган шартли боғланишлар жиддий мустаҳкамлиги билан жиддий даражада фарқ қилади ва одамнинг бутун умри давомида сақланиб қолиши ҳисобланади.

Мактабгача ёшдаги болалар асаб тизимидаги қўзғалувчанлиги, реактивлиги ва пластиклигининг юқори бўлиши яхши ва анча тез вояга етган одамларга нисбатан етарлича мураккаб ҳаракат кўникмаларини ўзлаштиради. Бу ёшда ҳаракат кўникмаларини бирданига тўғри шакллантириши муҳим роль ўйнайди, чунки уларни қайта ўргатиш қийин. Бу вақтда болаларни жисмоний машқларни техникасини рационал бажаришга ўргатиш зарур, уларда турли маҳорат ва кўникмаларни ҳажмини кенгайтириш керак бўладики, қайсини уларни ҳаётни кейинги босқичларида такомиллаштириш зарур бўлади.

5-8 ёшда ҳаракатлар анча аниқ ва ўринли бўлиб қолади. Горизонтал нишонга отишда 4 яшардан 7-8 ёшгача бўлган болаларда тўғри мўлжал олиш анча ортиб борса, 9-10 яшар болаларда бирмунча камроқ ортиб боради. Мўлжалга аниқ қилиб отиш 13-15 ёшгача арзимас даражада ортади, шундан кейин ўзгармасдан қолади.

Мактабгача тарбия ёшидаги болалар учун вертикал нишонга отиш қийин бўлади. 6-7 ёшда нарсани отиб тегизиш аниқлиги бирмунча ортади ва мактаб ёшида ҳам ортиб боришда давом этади. Шунда ҳам қиз болаларда аниқлик ўғил болалардагига қараганда анча кам бўлади.

Ҳаракат сифатларининг ривожланиши

Ҳаракат фаоллиги ортиб, таянч ҳаракат аппаратининг айрим ҳалқалари морфологик жиҳатдан етилиб бориши билан бир вақтда ҳаракатнинг сифатлари ҳам ривожлашиб боради.

Ҳаракатлар тезлигининг ривожланиш суръати 7-9 ёшда, яъни кичик мактаб ёшида айниқса катта бўладн ва 14-15 ёшга келпб ўзининг энг юқорн даражасига етади.

Ёш улғайиши билан бир вақтда такрор бажариладиган ҳаракатлар частотаси ва хусусан берилган ритмда қилинадиган ҳаракатлар частотаси ортиб боради. Масалан, такрор бажариладиган ҳаракатлар суръати 7 ёшдан 16 ёшгача бўлган болаларда 1,5 баравар ортади. Лекин унинг шу тариқа ортиши бир текис бормайди. 7 ёшдан 9 ёшгача бўлган даврда ҳаракатлар частотаси ҳаммадан тез ўсиб боради. Шу даврда ҳаракатлар частотасининг йил сайин ўсиши ўрта ҳисобда секундига 0,3-0,6 ҳаракатни ташкил этади. 10-11 ёшда ҳаракатлар частотасининг ўсиши бирмунча камайиб, секундига 0,1-0,2 ҳаракатга тушиб қоладн ва 12-13 ёшда яна ортади (секундига 0,3-0,4 ҳаракатгача). Вақт бирлиги ичида бажариладиган ҳаракатлар частотаси қизларда 14 ёшда юқори даражага етса, ўғил болаларда 15 ёшда бу даражага етади. Шундан кейин ўғил болаларда ҳаракатлар частотасининг ўртача йиллик ўсиши секундига 0,1-0,2 ҳаракатгача камаяди, қиз болаларда эса 14-15 ёшдан кейин ҳаракатлар частотаси бутунлай тўхтайди.

Шуни айтиб ўтиш диққатга сазоворки, қиз болаларда қўл бармоқлари ҳаракатларининг частотаси ўғил болалардагига қараганда бирмунча каттароқ бўлади. Афтидан, бу – рўзғор ишларини бажаришда қўл панжасининг кўпроқ машқ қилишига боғлиқдир.

Берилган ритмда қилинадиган ҳаракатларнинг максимал частотаси ҳам ёш улғайган сайин аста-секин ортиб боради. Ўғил болалар билан қиз болаларда 4 ёшдан 17 ёшгача бўлган даврда у тахминан 3,3 баравар ортади.

Ҳаракатларнинг максимал частотаси билан нфодаланадиган тезлик сифати нерв процессларининг ҳаракатчанлигига боғлиқ, деган фикр бор. Бошқача айтганда, ҳаракатлар частотасининг чегараси биринчи галда антагонистик мускуллар марказларининг қўзғалиш ҳолатидан тормозланиш ҳолатига нечоғли тез ўтишига боғлиқ.

4-5 ёшдан кейин турли мускул группаларининг кучи орта бошлайди. Лекин ҳар қаёси мускул группасининг ривожланишида ўзига хос хусусиятлар бор. Масалан, гавда кучи, яъни одам гавдаси мускулларининг кучн бирмунча кечки муддатларда ўзининг юқори даражасига етади-ю, лекин қўл кучига қараганда секинроқ заифлашади.

Мактабгача тарбия ёшидаги болаларда мускулларнинг кучи жуда кам бўлади. Мактаб ёшидаги катта болаларда 15 ёш билан 18 ёш орасида, яъни мускулатура тез ривожланиб борадиган даврда мускулларнинг кучи айниқса зўр бернб ўснб боради. Бироқ мавжуд маълумотларни анализ қилиш мускуллар кучининг ортиб бориши мускулатуранинг ўсиб боришига қараганда тахминан бир йил кечикишини кўрсатадн. Бу – мускуллар ва умуман бутун организмдаги микроструктуралар ривожланиш процессларининг ёшга тааллуқли хусусиятларига боғлиқ, деб ўйлаш керак. Шу муносабат билан ўқувчилар учун ҳар қандай жисмоний нагрузкани ҳам чеклаш ва ёшига тўғри келадиган қилиб қатъий дозалаб бериш керак. Талайгина куч сарф қилиш билан алоқадор бўлган меҳнат ва спорт ҳаракатларини 18 ёшдан кейингина бажарса бўлади.

18 ёшдан бошлаб мускуллар кучининг ўсиб бориши сусайиб қолади ва 26 ёшга борганда тўхтайди. 35 ёшдан кейин мускуллар кучи камайиб боради.

15-18 ёшда мускул толалари, мускул ичндаги бириктирувчи тўқима ва толали тузилмалар, демак мускулнинг ўзи ҳам кўндалангига ўсишда давом этади.

Мускул, ундаги қон томирлар ва нервларнинг ривожланиши 25-30 ёшгача давом этади.

Мускулнинг иннервацион аппаратига келганда, чақалоқ болада анча яхши ривожланган ҳолда бўладиган афферент ёки сезувчи иннервация бола ҳаётининг дастлабки йилларида зўр бериб ривожланиб боради ва 7-8 ёшга келиб морфологик тузилиши жиҳатидан катталардаги даражага етиб қолади.

Холбуки, эфферент ёки ҳаракатлантирувчи иннервация фақат 11-13 ёшга келгандагина ўз тузилиши жиҳатидан катталардагига ўхшаб қола бошлайди.

Бироқ ҳаракатлантирувчи пилакчанинг кенгайиши, нозик структурасининг мураккаблашувчи 18-20 ёшгача давом этади.

Шундай қилиб, мускул сезги орган сифатида 7-8 ёшга борганда етилса, ишчи орган сифатида 10 йилдан кейин етилади.

Бош мия пўстлоғида ҳаракат марказларининг ривожланиши.

Бола туғилган пайтида ва унинг яшаш шароитлари кескин ўзгариб, актив ҳаракатлари анча кўпайиб қоладиган биринчи ёши мобайнида хужайра элементлари айниқса тез суръатлар билан етилиб боради. Мана шу вақтда бош мия пўстлоғидаги ҳаракат анализаторининг ядроси катта ёшли одамдаги худди ша соҳанинг 10-20 процентини ташкил этади.

Боланинг 4 яшарли пайти иккинчи давр деб ҳисобланади, бу даврда ҳаракат соҳаси ядросининг оддий ҳаракат актларини бажарувчи марказлар жойлашган тўртинчи майдони етилади.

7 ёшга бориб учинчи давр бошланади. Бу даврда ҳаракат соҳасининг олтинчи майдони етилиб боради, автоматик ҳаракат актлари шу соҳанинг фаолиятига боғлиқ. Бола 7 яшар бўлганида ҳаракат анализаторининг ядроси катта ёшли одамдаги худди шу соҳанинг 80 процентини ташкил этади.

Ва ниҳоят, 15 ёшга борганда ҳаракат анализаторининг пўстлоқдаги учи ўзининг хужайралари ва тузилиши жиҳатидан катта ёшли одамдагига яқинлишиб қоладн.

Ҳозир кўриб чиқиладиган майдонлар 4 ёшга келиб капиллярлар тўри билан аёниқса мўл-кўл таъминланади, 15 ёшга борганда эса томир-капиллярлар тўри асосан энди бутунлай уюшган ва тузилиши жиҳатидан катта ёшли одамнинг томир-капиллярлар тўрига яқинлашиб қолган бўлади.

Ўтказувчи йўллар ҳаётнинг биринчи икки йилида зўр бериб ривожланиб боради; 3-4 ёшга келиб улардаги толаларнинг миелин пардаси билан ўралиши тугалланади. Худди шу даврнинг ўзида пўстлоқ ички алоқалари ҳам ривожланиб боради. Кейинчалик, 10-12 ёшгача улар мураккабланиш ва катталанишда давом этади.

Ҳаракат фаоллигининг ривожланиши.

Бола туғилганида наслдан ўтган, оз миқдордаги ҳаракатларни бажара оладиган бўлади, унинг шу ҳаракатлари бола туғилганидаи кейин ҳам анчагача номукамал бўлиб қолаверади. Бола ўсиб-ривожланиб борган сайин ҳаракатлари тобора кўпроқ ва хилма-хилроқ бўлиб боради ва гўё индивидуал тажриба остида шаклланади. И.П.Павлов мана бундай деб ёзган эди: «Ҳайвонлар қаторидан нечоғли юқори кўтарилиб борар эканмиз, ҳаракатлар, биринчидан, тобора мураккаброқ бўлиб боради, иккинчидан эса бу ҳаракатлар ҳайвон дунёга келиши билан бирданига пайдо бўлмасдан, балки практикада пайдо бўлиб боради.

Биз эндиликда шартли ҳаракат рефлекслари деб атайдиган нарса – ҳайвон ёки одамнинг индивидуал ҳаёти мобайнида юзага келиб, пайдо бўлиб борган ва мукаммаллашган ҳаракатлардир».

Ҳаракат анализаторининг морфологик ва функционал жиҳатдан ривожланиб боришини белгилаб берадиган ҳал қилувчи омил – муҳит, бола тарбияси ва унинг ҳаракат активлигидир. Боланинг актив фаолияти натижасидагина янги-янги вақтинча алоқалар пайдо бўлиб боради, мураккаб ҳаракат стереотиплари шаклланади, тобора янги-янги шартли рефлексор алоқалар вужудга келиб боради.

Чақалоқлик даврида ҳаракат аппарати, жумладан ҳаракат анализаторининг турли халқалари ҳам маълум даражада эгилган бўладики, бу – жуда оддий, бир қанча ҳаракатларни бажаришга имкон беради.

Чақалоқ бола учун қўл-оёқлар гавда ва бошнинг тартибсиз, деярли тинмасдан ҳаракат қилиб туриши характерлидир. Бунда бўғимлар, мускуллар, шиллик пардалар ва вестибуляр аппаратдаги рецепторларнинг таъсирланиши туфайли юзага келадиган маҳаллий реакциялар кўрилади; ҳар хил шартсиз рефлекслар яхши ифодаланган бўлади.

Ҳаётнинг дастлабки ҳафталари катта аҳамиятга эга, чунки бу даврда то пустлоқ доирасигача етиб борадиган ҳамма даражадаги регуляция ишга тушади. Болада дастлабки шартли рефлекслар пайдо бўлади, булар ниҳоятда бўшлиғи, заифлиғи билан ажралиб туради ва 3-4 ойдан кейингина бирмунча турғун шаклга киради.

Энса мускуллари тонусининг кучайиб борганлигидан икки ойлик бола қорни билан ётқизиб қўйилса, бошини кўтарадиган бўлиб қолади. Тахминан 2,5-3 ойдан бошлаб кўзига кўринган нарсага қараб қўл чўзиш ҳаракатлари ривожланиб борса, 5-6 ойга бориб, бола нарсага, у қайси томонда турган бўлмасин, қўлини аниқ узатадиган бўлади.

Бола 4 ойлик бўлганида чалқанча ётган ҳолатидан ёнбошига ағдарилиш ҳаракатлари, 5 ойлик бўлганда эса қоринга ва қориндан орқага ағдарилиш ҳаракатларини ривожланади.

3 ойликдан 6 ойликкача бўлган даврда бола эмаклашга тайёрланиш ҳаракатларини ўзлаштиради – қорни билан ётган ҳолида боши ва гавдасининг юқори қисмини тобора баланд кўтарадиган бўлади.

6-7 ойлик бола қўл ва оёқларини ерга тираб турадиган, кейинчалик эса эмаклайдиган бўлади. Гавда ва чанок мускуллари ривожланиб бориши натижасида бола 6-8 ойлик бўлганида ўтира олади. Тахминан худди шу вақтда

у қўллари билан бирор нарсани ушлаб ўрнидан турадиган, тик тура оладиган ва ўтира оладиган бўлади.

Юришга тайёрланиш даврида боланинг антропометрик хусусиятлари мувозанатни ўзлаштириш процессини қийинлаштириб қўяди: оёқлар ва чанок-сон бўғимининг мускуллари ҳали нимжон; оёқлар калта ва ярим букилган бўлади; умумий оғирлик маркази катта ёшли одамдагидан кўра анча юқорида (чанок-сон суяги устида) туради, оёқ панжаларининг тиралиш майдони ҳам катталардагига қараганда кичик бўлади. Шу туфайли ривожланишнинг бу босқичида мувозанатни сақлашда болага ёрдам бериш жуда муҳим. Биринчи йилнинг охирига келиб бола бемалол тик туради ва аксари юрадиган бўлиб қолади. Бола бир неча қадам ташлаб юра олган дастлабки кунни мустақил юришнинг бошланиши, деб ҳисобласа бўлади. Лекин бу даврда бола юриш ва тик туриш вақтида ўзини тўғри тутишга анча қийналади. Қўлларини икки томонга узатиб, лангар қилиш ва оёқларини кериб қўйиш йўли билан у мувозанатни сақлашга муваффақ бўлади.

3-4 ёшга борганда бола ўсган сайин ривожланиб борадиган ҳаракатлар координациясини унга энди юриш ва тик туриш вақтида қўл ва оёқлардан фойдаланмасдан туриб мувозанатни сақлаб қолишга имкон беради.

Бола 4-5 ёшга тўлганида жуда хилма-хил ва мураккаб ҳаракатларни: югуриш, сакраш, конькида юриш, гимнастика, акробатика машқларини уддалайдиган бўлиб қолади. Худди шу ёшда у қўл панжасидаги майда мускулларнинг ривожланишига алоқадор анча аниқ ҳаракатларни ҳам ўзлаштира бошлайди. 3-5 яшар бола расм чизишга, музика асбобларини чалишга ўрганиши мумкин.

6-7 ёшга келиб гавда, сон ва тиззадаги ёзувчи мускуллар кучи сезиларли даражада ортади. Мана шу вақтда бутун таянч-ҳаракат аппаратининг ривожланиши учун функционал жиҳатдан муҳим стимул берадиган нарса – юришнинг шаклланишидир.

Ҳаракат аппаратининг чидамлилиги динамик ва статик ишни узоқ вақт мобайнида бажариш қобилияти билан белгиланади. Ёш улғайиб борган сайин чидамлилик жуда секинлик билан ортиб боради.

Мактабгача тарбия ёшидаги болаларда, улар жуда серҳаракат бўлишига қарамай, ҳаракатлар тўхтовсиз алмашилиб турадиган бўлгани учун машқ олиш натижалари айтарли бўлмайди. 6 ёшга келиб чидамлилик бирмунча ортади, шундай бўлса-да болалар фаолитни тез-тез ўзгартириб туришга ҳамон мойил бўладн. Улар бир жойда туриш, ўтиришга қийналади, уларнинг ҳаракатлари тинмасдан алмашилиб туради.

Болаларда ҳаракатлар координациясининг ривожланиб бориши ҳам ҳаракат анализаторининг морфологик жиҳатдан етилиш процессларига боғлиқ. Айни вақтда нерв толаларининг яқинлашиш жараёни алоҳида диққатга эга бўлади, бу процесс нерв системасининг турли бўлимларида ҳар хил муддатда бўлиб ўтади. Шу билан бирга нерв системасининг энг мураккаб функцияларни бажарадиган бўлимлари, худди катта ярим шарлар пўстлоғининг нейронлари сингари, бошқалардан кўра кечроқ миенлашади.

4-5 яшарлигида бола жуда хилма-хил ва мураккаб ҳаракатларни бажарадиган бўлиб қолади. Ҳаракатлар координацияси 13-14 ёшга бориб юқори даражасига етади. Бу ёшда болалар мураккаб координацияланган ҳар қандай ҳаракатни, агар ўша ҳаракат куч ишлатиш ва зўр беришни талаб қилмайдиган ҳамда катта амплитуда билан бажарилмайдиган бўлса, ўзлаштириб олишлари мумкин. Мана шунинг учун ҳам худди шу ёшдаги болалар музика асбобларини чалиш, хореографик моҳирликда виртуоз техникага, меҳнат ҳаракатларининг аниқ ва текис чиқишига эришадилар.

Физкультура, хореография ҳаракатлари, меҳнат ҳаракатлари ва бошқа мураккаб уйғун ҳаракатларни бажариш техникаси пайдо бўладиган энг оптимал давр 9-10 ёшдан 13-14 ёшгача бўлган даврдир, деб ҳисоблаш керак. Мана шу даврда ҳаракат анализаторининг ривожланишига доир кўрсаткичлар айниқса тез ўсиб боради. Шу ёшга келиб бу анализаторнинг барча морфологик субстрати етилиб қолади. Бирмунча каттароқ ёшда чидамлилиқ, куч, катта амплитудали ҳаракатларни бажариш қобилияти ривожланиб бориши муносабати билан вужудга келган ҳаракат техникаси асослари янада мукаммаллашиб боради.

Қиз болаларда ҳаракатларнинг ривожланишида баъзи хусусиятлар бўлишини айтиб ўтиш зарур. Балоғатга етиш даври қиз болаларнинг кўпчилигида ҳаракатларнинг камайиб қолиши билан бирга давом этади. Бу ҳол қизларнинг шу даврда морфологик жиҳатдан ривожланиб боришидаги хусусиятларига кўп даражада боғлиқдир. Илгаридан спорт ёки мускул фаолиятининг бошқа тури билан шуғулланиб келаётган қизлардагина ҳаракат активлиги сақланиб қолади.

Чаққонлик – аниқ, нозик ҳаракатларни имкони борича қисқа вақт мобайнида бажара олиш қобилиятидир. Ёш болаларда бу хусусият бўлмайди. Бола улғайиб борган сайин ҳаракатлар координацияси ривожланиши ва мукаммаллашиб бориши муносабати билан чаққонлик аста-секин ортиб боради.

Ўз танасини фазода кўчиришда (бир жойдан туриб узунликка сакрашда) ва нарсани нишонга олишда аниқликнинг ёшга қараб ўзгариб боришини чаққонлик сифатининг характеристикаси, деб ҳисоблаш мумкин. Фазодаги ўз ҳаракатларини бошқариш аниқлиги 4 ёшдан 17 ёшгача тинмай ортиб боради. Мактабгача тарбия ва кичик мактаб ёшида бир жойга аниқ сакраб тушиш ва нишонга тўғри текизиш қобилияти сезиларли даражада ортади. Кейинчалик, ўзлаштириб олинган ҳаракат малакаларининг кўпайиб бориши ва уларнинг машқ қилиниши муносабати билан ҳаракатларнинг аниқлиги аста-секин ортиб боради.

Болаларнинг жисмоний тарбияси ва меҳнат фаолиятида ёш хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда мускул активлигини мақсадга мувофиқ ташкил этиш уларнинг умумий ривожланиши ҳамда соғлигини мустаҳкамлашга ёрдам беради.

Asosiy adabiyotlar

1. Po‘latxo‘jayeva M.R. Defektologiyaning klinik asoslari. O‘quv qo‘llanma. T., TDPU – 2013.
2. Sodiqova Q, Aripova S.X, Shaxmurova G.A . Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi. T., “Yangi asr avlodi” - 2009.\\\

Кушимча адабиётлар

1. Encyclopedia of Human Body Systems. Julie McDowell, Editor. Copyright 2010 by ABC-CLIO, LLC
2. Nuritdinov E.N. Odam fiziologiyasi. Toshkent – 2005
3. Смирнов В.М., Дубровский В.И. Физиология детей и подростков. –М.: «Владос пресс», 2002, 341-365 с.
4. Смирнов В.М., Дубровский В.И. Физиология двигательной деятельности. –М.: «Владос пресс», 2002, 513-551 с.

9-мавзу. Инсон рефлектор тизими

Режа

1. Шартли рефлексни текшириш усули.
2. Шартли рефлексии хосил булиш тезлиги ва тургунлиги.
3. Овкатланиш ва бошқа фаолиятларга ҳаракат шартли рефлексини хосил килиш.
4. Вактга хосил килинадиган шартли рефлекслар.
5. Шартли рефлексларни тормозланиши.
6. I ва II сигнал системасининг узаро таъсири.
7. Нутқ функциясини ривожланиши.
8. Олий асаб фаолиятининг хусусиятлари ва уларни тарбиялаш.

Таянч сўз ва иборалар: рефлектор, рефлекс, шартли рефлекс, сигналлар тизими, нутқ, I ва II сигнал системаси

The human body's nervous system is divided into two parts: the central nervous system (CNS) and the peripheral nervous system (PNS). The CNS consists of the brain and the spinal cord, and the PNS consists of the cranial nerves (the brain's 12 pairs of nerves) and the spinal nerves (31 pairs of nerves associated with the spinal cord).

Асаб тизими иккига марказий асаб тизими ва ташқи (перифериал) асаб тизимига бўлинади. Таъсирлар ва бошқа ахборотлар реакциялар ва бошқа фаолликлар шаклини олади. Эндокрин тизимига қўшимча равишда асаб тизими инсон танасининг асосий коммуникация марказидир. Ушбу коммуникация асаб импульслари орқали тана асаблари тизими орқали рўй беради.

6

Олий асаб фаолиятининг ёшлик хусусиятлари

Болаларда шартли рефлексларни текшириш усули. Янги тугилган чакалоқда овкатланиш, химоя, акса уриш, йуталиш ва бошқа шартсиз (туғма) рефлекслар мавжуд булади. Бу рефлекслар боланинг ҳаётида муҳим биологик аҳамиятга эга булиб, шулар асосида шартли рефлекслар шаклланади.

Н.И.Касаткин узунлиги 118 см, баландлиги 75 см, махсус камерада бир ойлик болаларда шартли рефлекс хосил булишини урганган. Бунда кулланилган шартли таъсиротлар болага ҳеч қандай зиёнсиздир. Камерага қаравотча қуйилган булиб, бола ётадиган матрасга унинг ҳаракатларини ёзиб оладиган сезгир асбоблар жойлаштирилган. Тажрибанинг бориши ва бола ҳолати кабина «кузидан» кузатиб борилади. Эрталабки ва кундузги соатлар тажрибани

⁶ Encyclopedia of Human Body Systems VOLUME 1 Julie McDowell, Editor. Copyright 2010 by ABC-CLIO, LLC

утказиш учун кулай шароит ҳисобланади. Бунда тажрибанинг давомийлиги 10 марта кайтарилган ҳолда 10 минутдан ортмаслиги керак.

Овкат билан мустаҳкамланадиган тажрибада кул ҳаракатларини курмаслик учун боланинг кузи боғланади, ёки юзининг юкориги қисми оқ экран билан тусиб қуйилади. Овкатланиш шартсиз рефлексда шартли таъсирот сифатида боланинг - эмиш ҳаракатлари олинади. Уни мустаҳкамлаш учун сут ёки сутли аралашма берилади. Ҳимоя рефлексини ҳосил қилишда бола кузига ҳаво пуркалганда ковокларини юмиш реакцияси эътиборга олинади.

Болаларда сулак безлари секретор функциясига шартли рефлексларни ҳосил қилишда А.А.Юшенко ва Красногорскийлар (1907) томонидан ишланган сулак йигувчи аппаратдан фойдаланилади. 1916 йилда америкалик физиолог К.С.Лешли кулок ости сулак безлар безидан сулак йигиб олиш услубини ишлаб чиқди.

Болалар мия пустлоғи фаолиятини динамикасини урганишда ва айниқса болаларни типологик хусусиятларини аниқлашда Иванов-Смоленскийнинг суз билан мустаҳкамлаш услуби алоҳида аҳамиятга эга.

Шартли рефлекснинг ҳосил бўлиш тезлиги ва тургунлиги

Болаларда овкатланишга шартли рефлексларнинг ҳосил бўлиш тезлиги унинг иштаҳаси, асаб системасидаги овкатланиш марказининг кузғолувчанлигига боғлиқ бўлади. Масалан, боланинг овкатланишидан аввал канд ёки бошқа ширинлик берилса, боланинг иштаҳаси пасаяди, яъни овкатланишга рефлекс реакцияси сусаяди.

Болаларда товуш, сузга бошқа шартли таъсиротларга нисбатан шартли рефлекслар тезроқ ҳосил бўлади. Уларда шартли рефлекслар шартли ва шартсиз таъсирловчи 2-10 марта 5-30 секунд давомида кайтарилиб ва мустаҳкамланиб турилса шартли рефлекс ҳосил бўлади.

Болаларда сулак ажралиши учун ҳосил қилинган шартли рефлекснинг яширин даври эса тахминан 3 секундни, ҳаракат шартли рефлекснинг яширин даври эса 0,5 секундни ташкил этади. Боланинг ёши ортиши билан шартли рефлекс яширин даврининг давомийлиги камайиб боради.

Болаларнинг жинсий вояга етилиш даврида шартли рефлексларнинг ҳосил бўлиши тезлиги биров секинлашади. Чунки, бу даврда боланинг асаб системасида жинсий уйғониш асаб марказлари кузғолади. Боланинг ёши қанча катта бўлса, ташки муҳит таъсирловчиларига ишланган ҳаракат шартли рефлекслари шунча мустаҳкам бўлади.

Овкатланиш ва бошқа фаолиятларга ҳаракат шартли рефлексини ҳосил қилиш.

Янги тугилган боланинг биринчи кунидан бошлаб шартли ва шартсиз таъсирловчиларнинг адекватлигига қараб, овкатланишга ҳаракат шартли рефлекслари ҳосил бўла бошлайди. Боланинг бир кунлигидаёқ терини тактил сезгиларига таъсир этиб, шартли рефлекслар ҳосил қилиш мумкин. Бола 10-14 кунлигида кулда овкатланиш ҳолатида ушлаб турилса, болада овкатланишга нисбатан реакция ҳосил бўлади. У бошини буради, оғзини очади, сунг суриш

харакатларини бажаради. Бу рефлекс она болани эмизиш вакти билан боғлиқ шартли рефлекс бўлиб ҳисобланади.

Боланинг биринчи кунларидаёқ табиий шартли рефлекслар ҳосил бўла бошлайди. Болада 4 ойлигидан бошлаб овкатланишга салбий шартли рефлексларни вужудга келтириш мумкин. Унинг 7-9 ҳафталигидан бошлаб ёруғлик ёки товушга нисбатан овкатланишга ҳаракат шартли рефлексини ҳосил қилиш мумкин.

Болада тутилган вақтдан бошлаб шартсиз рефлекслар ҳосил бўла бошлайди. Чакалокнинг асаб системасида қузғалишнинг иррадиацияси катта одамга нисбатан тез бўлади. Бола она сутини эмабошлаши билан унда координациялашган ҳаракатлар вужудга келади.

Эмиш процессида боланинг тана мускуллари, калласи ва қул-оёқлари ҳаракатга келади.

Янги тутилган болаларда қуйидаги ҳаракат рефлекслари юзага келади. Қул мускулларининг тоник рефлекси, умуртка погонаси эгилиш рефлекси, қорачиғ рефлекси шулар жумласидандир. Бу рефлексларнинг барчаси шартсиз рефлекслар ҳисобланади.

Боланинг ёши ортиши билан ҳаракатланишидаги муҳим ҳаракат рефлекслари (юрйиш, югуриш ва б., оғзаки ёзма, нутқ ҳаракат рефлекслари ва б. рефлекслар) шакллана боради.

Болада биринчи марта эшитишга, қуришга, аста-секин тери тактил сезгиларга шартли рефлекслар ҳосил бўлади.

Икки ойлик бола товуш келган томонга бошини қаратади ва 1-1,5 минут мобайнида бошини тутиб тура олади. 2-3 ойлик болада ёзувчи мускулларга нисбатан буқувчи мускуллар тонуси ортик бўлади. Бола икки ойлигидан бошлаб бошини тутиб тура олади. 4-5 ойлигидан бошлаб эса қурган нарсаларини ушлаш учун координациялашган ҳаракатлар бажара бошлайди. 5 ойлик бола ҳар бир предметни қулида 20-30 секунд ушлаб тура олади ва оғзига олиб боради. 5-6 ойлигидан бошлаб узи утира олади ва тик туришга ҳаракат қилади. 7 ойлигидан бошлаб мустақил утиради, катталар ёрдамида тик тура бошлайди. 8 ойлигида нарсаларга суяниб туради, нарсаларни ушлаб юришга ҳаракат қилади. 9 ойлигидан бошлаб ҳеч қандай таянчсиз узи мустақил тик туради, бир қулидан ушлаганда юра олади, аста-секин мустақил узи юришга ҳаракат қиладиган бўлади. Болаларда ҳаракат шартли рефлексларининг ҳосил бўлишида ҳаракат қуникмаларини шаклланишида проприоцепторлар билан бирга қуриш, эшитиш, тери рецепторларининг таъсирланишлари муҳим аҳамиятга эга бўлиб ҳисобланади.

Вақтга ҳосил қилинадиган шартли рефлекслар

Янги тутилган бола ҳаётининг 7-8 кунидан бошлаб, унда онасининг эмизиш вақтига нисбатан шартли рефлекс ҳосил бўлабошлайди. Бола сутканинг маълум вақтларида овкатланишдан бир оз олдин уйғониб, эмиш ва бошқа ҳаракатларини бажара бошлайди. Болаларда вақтга нисбатан шартли рефлекслар ички органлардан, туқималардан ёки ташқи рецепторлардан асаб

системасига борган импульслар суз сигналлари билан богланиши туфайли вужудга келади.

Вактга нисбатан юзага келтирилган шартли рефлексни мустахкамлиги асаб системасининг типи, унинг кузгалувчанлиги, диккатнинг концентрацияси ва машк килишга боглик булади. Болада вактни сезиш аста-секин узок муддат давомида такомиллашиб боради.

Асаб системасида кузгалиш ва тормозланиш процессларининг узаро таъсири

Бош мия ярим шарлар пустлогига шартли тормозловчини таъсир этиши билан аввал шу анализатор маркази тормозланади, сунг тормозланиш кушни нейронларга таркалади. Тормозланиш процесси болаларнинг кундалик хаётида мухим ахамиятга эга. Бош мия нейронларининг кетма-кет координациялашган, фаолияти кузгалиш ва тормозланиш процессларининг алмашилиши туфайли руй беради.

Болаларда тормозланиш рефлексларини аста-секин хосил килиш билан асаб процессининг машк килинишига ёрдам беради, бу билан асаб процесслари координациялашган булади.

Кукрак ёшидаги болаларнинг мия ярим шарлар пустлогига богча ёшидаги болаларга нисбатан тормозланишнинг иррадияси осон ва кенг таркалади. Шунинг учун хам кукрак ёшидаги болалар кундузи хам ухлайдилар. Боланинг 4-6 ёшидан бошлаб ички шартли тормозланиш ривожлана бошлайди. Боланинг бу ёшида катта мия ярим шарлар пустлогининг аналитик - синтетик фаолияти мураккаблашади.

Шартли рефлексларнинг тормозланиши

Болаларда шартсиз индукцион тормозланиш ташки дунёдаги четки таъсиротларининг таъсири ва ички органлардан хосил булган асаб импульслари таъсирида вужудга келади. Масалан, бола сийдик копининг тулиши юзага келтирилган шартли рефлексии тормозлайди. Ташки тормозланиш четки таъсирловчининг кучига, юзага келтирилган шартли рефлекснинг мустахкамлигига ва боланинг ёшига (канча ёш булса шартли рефлекс шунча тез тормозланади) боглик булади. Ташки тормозланишнинг турларидан бири ута кучли таъсирловчилар таъсирида тормозланишдир.

Юксак тормозланиш 10-12 ёшли болаларда 7-10 ёшли болаларга нисбатан секин ривожланади. Болаларда юзага келтирилган шартли рефлексларнинг сунги тезлиги боланинг ёшига, соглигига, олий асаб фаолиятининг типи хамда хосил булган шартли рефлекснинг тури ва мустахкамлигига боглик, 11-12 ёшли болаларда шартли рефлекслар 8-10 ёшли болалардаги юзага келтирилган шартли рефлексларга караганда тез сунади. Овкатланишга нисбатан хосил булган шартли рефлексни сундириш корни тук болаларга нисбатан оч болаларда кийинрок булади.

Соглом болаларда шартли тормозланиш узига хос хусусиятига эга ва дифференциялашган холда булиб, шартли рефлекс 2-6 марта

мустахкамланмаганда вужудга келади. Болаларда сунган шартли тормозланиш вақт утиши билан қайта тикланади. Шартли тормозланишдан сунг кетма-кет тормозланиш тараккий этади. Болаларда баъзида шартли тормозланишнинг таъсири тугагандан сунг, индукция асосида кузгалиш ривожланади.

Болаларда индифферент таъсирловчи бир неча марта бирламчи ёки иккиламчи, учламчи ва ундан ортиқ юқори тартибли шартли тормозларни ҳосил қилиш мумкин. Юқори тартибли шартли тормозлар ҳам узок сақланиши ва сунити, қайта тикланиши мумкин. Шартли тормозлар болаларни тарбиялаш, уқитиш, хусусан уларни тарбиялаш ва интизомли қилишда катта аҳамиятга эга. Шартли тормоз ёрдамида укувчиларда ахлоқ, онг ва ҳулқ тарбияланади.

Олий асаб фаолиятининг тараккиёти

1,5-2 ёшли болаларда яққа таъсирловчиларга ҳаракат шартли рефлекслари тез ҳосил бўлади ва мустахкамланади. Иккита индифферент таъсирловчиларга вақтли боғланиш тезроқ ҳосил бўлади. Боланинг 2,5 ёшда олий асаб фаолияти анча такомиллашади. Осон ва биров мураккаб шартли рефлекслар мустахкамланиб турилмаса, тезда сунити мумкин. Боғча ёшидаги болаларда шартли рефлексларнинг ҳосил бўлишида индивидуал фарқлар мавжуд бўлиб, бу фарқлар боланинг асаб системасини физиологик, психик тараккиётига боғлиқ бўлади. 3-5 ёшли болалар олий асаб фаолиятининг тараккиёти олдинги босқичдаги болалар олий асаб фаолиятининг тараккиётидан тубдан фарқ қилади. Болаларнинг бу ёшида мулжаллаш реакцияларининг характери узгаради. Бола «бу нима» деган савол билан турли предмет ва ҳодисаларни билишга ҳаракат қилади.

2-3 ёшли бола предметларга қараб, уларни ушлаб қуриб формасини аниқлайди. Бола олдинги ҳосил бўлган қурув-кинестезлик боғланишлардан фойдаланади, предметларнинг шаклини чамалаб билади. Боғча ёшидаги боланинг бош мия ярим шарлар пустлоғида кузгалиш тормозланиш иррадиация, генерализация каби асаб процесслари қучлироқ бўлади. 5 ёшли боланинг ташқи ва ички тормозланишининг характеридаги муносабат узгаради.

Боғча ёшидаги болаларда ички тормозланиш ва унинг турлари борган сари катта аҳамиятга эга бўлиб боради (О.П.Копустник ва В.К.Фадаева, 1933. Р.М.Пен, 1933).

Боланинг бу ёш даврида бош мия ярим шарлари пустлоғида кечикувчи, из қолдирувчи шартли рефлекслар қийинлик билан ҳосил бўлади.

Текширишлардан маълум бўлишича, 5 ёшдаги болада асаб процессларининг қучи ва ҳаракатчанлиги ортади, бу эса болада динамик стереотипии биров енгиллик билан узгартириш имконини беради (Е.Н.Дегтярь, 1957). Бу ёшдаги болаларда чамалаш рефлекси қучлироқ бўлиб, у мустахкамлашиб боради.

Биринчи ва иккинчи сигнал системасининг узаро таъсири

Биринчи сигнал системасида вужудга келган асосий қонуниятлар, иккинчи сигнал системаси, яъни бола нутқида ҳам руёбга чиқади. Биринчи ва иккинчи

сигнал системалари бош миядаги асаб процессларининг шакллари хисобланиб, бу процесслар турли даражада мураккаб булиши билан фарк килади.

Одам хаётининг нормал шароитида иккинчи сигнал системаси маълум даражада биринчи сигнал системаси ва эмоционал фаолиятларини бошқаради. Биринчи ва иккинчи сигнал системалари факат функционал принципида бир-биридан фарк килади.

Одамнинг хаёти давомида биринчи ва иккинчи сигнал системалари тараккий килиб боради.

Богча ёшидаги болаларда кечикувчи шартли рефлекслар бошқа рефлексларга нисбатан жуда кийинлик билан аста-секин вужудга келтирилади. Болаларда тез-тез кечикувчи шартли рефлексларнинг кулланилиши, уларда мудраш, уйкучанлик, баъзида физиологик уйқунинг ҳам вужудга келишига сабаб булади. Агарда кечикувчи шартли рефлекслар тез-тез ва кучли хосил килинса, баъзида болаларнинг асаб системасининг вақтинчалик бузилишига олиб келади. Шартли рефлекснинг кечикиши факат шартли таъсирловчиларнинг характери билан белгиланмасдан, балки боланинг асаб системасининг тури, ҳолати билан ҳам белгиланади.

Болаларда таъсирловчиларни нозик дифференцировка килиниши аста-секин вужудга келади. Болаларда кийин, нозик дифференцировка хосил килиш учун аввал енгилроқ ва дағалроқ дифференцировка хосил килиш керак.

Болаларда дифференцировка тормозланиш кийинлик билан вужудга келтирилади, сунг аста-секин машқ килиш билан дифференцировка тормозланишнинг хосил булиши такомиллаша боради. Дифференцировка тормозланишга мисол булиб, болада кизил коптокка ҳаракат шартли рефлекс хосил килинган булса, коптокнинг ранги ёки катта-кичиклигини бир оз узгартириш дифференцировка тормозланиш хосил булади.

Дифференцировка тормозланиш организмнинг ташки муҳит таъсирига мосланиш имкониятини беради. Шартли таъсирларнинг 7-9 ёшли болаларда 10-11 мартада, 10-12 ёшли болаларда 4-6 мартада хосил булади. Укутувчилар укувчиларга дарс беришда дифференцировка тормозланиш усуллари: таккослаш, солиштириш ва б. фойдаланадилар. Укутувчи кушишни, айириш билан, улик табиат билан тирик табиатдаги ҳодисаларнинг карама-каршилигини тушунтиришда солиштириш каби методларидан фойдаланади. Мусика мактабларида укутувчи турли мусика товушларини болаларда дифференцировка (табакаланувчи) тормозланишни вужудга келтириш билан ургатади. Шундай килиб, дифференцировка тормозланиш боланинг мураккаб ташки муҳит таъсирларига мосланиш, билим олиш ва куп таъсирловчилардан муҳимларининг ажрата олиш учун муҳим аҳамиятга эга.

Болада машқ килиш билан табакаланувчи тормозланиш ортиб боради. Иккинчи сигнал системаси биринчи сигнал системаси асосида шакллана боради. А.Г.Иванов-Смоленский (1929) болаларда биринчи ва иккинчи сигнал системалари орасидаги узаро боғланишнинг ривожланишининг схематик равишда куйидаги этапларга булинади:

1. Биринчи сигнал системасининг бевосита шартли рефлекслари. Бунда ташки бевосита таъсирловчилар (куриш, эшитиш, тери, хидлаш, маза билиш)

органларга таъсир этиб, бола организмида ҳаракат ёки вегетатив реакцияларни келтириб чикаради.

Иккинчи сигнал системаси шаклланмаганлиги учун шартли рефлексларда суз иштирок этмайди. Бундай шартли рефлекслар боланинг дастлабки ҳаёти ва биринчи ойларида ҳосил қилинади.

2. Суз билан бевосита таъсирловчилар таъсирида бевосита характердаги шартли рефлекслар ҳосил қилиш. Масалан, бола сузлашга урганишдан анча аввал атрофдаги кишиларнинг сузларига вегетатив шартли рефлекслар ёрдамида жавоб беради.

Бу характердаги шартли рефлекслар бола бир ёшининг биринчи ярмида айниқса иккинчи ярмида ҳосил бўлади.

3. Бевосита сузга шартли рефлекслар ҳосил бўлиш. Бундай шартли рефлекслар атрофдаги кишилар ва предметларнинг номларини ҳодисаларни бола маълум сузлар билан боғлай бошлаши натижасида вужудга келади. Бола бу даврда юқоридаги икки гуруҳ шартли рефлексларга, учинчи гуруҳ шартли рефлексларни боғлайди.

Бола атрофдаги катта кишилар ва болалар билан бевосита муносабати натижасида турли сузларни эшитиб, нутқга ургана бошлайди.

Бола 6-7 ойлигидан бошлаб эшитган сузлардан бугимларни ажрата билади. Сузлардан ажратилган бугимлар шартли таъсирловчилар бўлиб, таъсир кучига эга бўлади ва ташқи таъсирловчилар билан боғланади.

Сузлар аввал шартсиз таъсирловчиларнинг сигналлари, сунг шартсиз рефлексларнинг сигналлари бўлиб, таъсир этади, аста-секин сузлар шартли ва шартсиз таъсирловчиларнинг урни алмашади.

Бола 5 ойлигидан бошлаб сузларга тушуна бошлайди. Ҳали сузлашни билмаган бола катталарнинг суз билан буюрган ишларини бажариши мумкин. Бу бола сузларнинг маъносини тушунади деган суз эмас. Болада нутқ билан бирга айтиладиган сузнинг интонацияси ва имо-ишорага ҳаракат шартли рефлекслари ҳосил бўлади.

Бир ёшлик бола 15-20 та сузни талаффуз қилади. Бола тахминан 1,5 ёшидан бошлаб атрофдаги кишилар билан нутқ орқали қисман муносабатда бўлади. Шу ёшдан бошлаб болада суз бойлиги ортиб боради. Бола 3 ёшида 600 дан ортиқ суз бойлигига эга бўлади. Боланинг суз бойлигини куп ёки оз бўлиши машқ қилишига унинг индивидуал хусусиятига, тарбия ва асаб системасининг хусусиятига боғлиқдир.

Бола туғилганидан бир неча кундан кейин, унинг асаб системаларида узғаришлар рўй беради. Масалан, холерик темпераментдаги бола тез-тез уйғонади ва жуда каттик йиглайди. Меланхолик темпераментдаги бола эса узок вақт ухлайди, кам йиглайди, жуда тинч бўлади.

Асосий адабиётлар

1. Po‘latxo‘jayeva M.R. Defektologiyaning klinik asoslari. O‘quv qo‘llanma. T., TDPU – 2013.

Адабиётлар:

1. Encyclopedia of Human Body Systems VOLUME 1 Julie McDowell, Editor. Copyright 2010 by ABC-CLIO, LLC
2. Бернштейн Н.А. Очерки по физиологии движений и по физиологии активности. М.: Медицина, 1966.
3. Беленков Н.Ю. Принцип целостности в деятельности мозга. М.: Медицина, 1980.
4. Н.Г. Андреева. Эволюционная морфология нервной системы позвоночных. М.: Наука, 1991.
5. Основы психофизиологии. Под ред. Ю.И. Александрова. М., 1998.
6. Алматов К.Т., Алламуратов Ш.И. Одам ва хайвонлар физиологияси. Тошкент: Университет, 2004.
7. Rajamurodov Z.T., Rajabov A.I. “Odam va hayvonlar fiziologiyasi” Toshkent: ‘Tib kitob’ nashriyoti, 2010.

10-март. Инсон сезги органлари физиологияси ва анатомияси

REJA:

1. Sezgi to'g'risida umumiy tushuncha
2. Sezgining neyrofizilogik asoslari
3. Sezgi turlarining psixologik tavsifi

Таянч сўз ва иборалар: сезги, нейрoфизология, психология, хид билиш, кўриш, ташқи сезгилар

Sezgi to'g'risida umumiy tushuncha.

Jahon psixologiyasi fani ma'lumotlarining ko'rsatishicha, sezish oddiy psixik bilish jarayoni hisoblanib, moddiy qo'zg'atuvchilarning muayyan retseptorlarga bevosita ta'sir etishi orqali mavjud olamdagi narsa va hodisalarning ayrim xususiyatlarini, shuningdek, inson organizmining ichki holatlarini aks ettirishdan iborat bilishning dastlabki bosqichidir. Sezgi biosfera va neosferada harakatlanuvchi jamiki narsalarning, xoh mikro, xoh makro tuzilishidan qat'iy nazar, sezgi organlariga ta'sir qilish natijasining sodda obrazlar, timsollarning ayrim tarkibiy xususiyatlar sifatida aks etishidir. Inson atrof-muhitdagi moddalar shaklini, harakatlar ko'rinishini, ularning xossalarini o'ziga xos xususiyatlarini sezgi organlari yordamida biladi.

Sezgilar to'g'risidagi ilmiy ta'limotlarga ko'ra narsa va ularning xossalari, tarkibiy qismlari, xususiyatlari, shakllari, harakati birlamchi hisoblanib, sezgilarning o'zi esa tashqi va ichki qo'zg'atuvchilarning sezgi a'zolariga ta'sir ko'rsatishining mahsulidir. Ma'lumotlarga qaraganda, sezgilar moddiy borliqning, voqelikning haqqoniy tasvirini in'ikos qiladi, binobarin, moddiy olam qanday ko'rinishga, shaklga, xususiyatga ega bo'lsa, ular xuddi shundayligicha o'zgarishsiz aks ettiradi.

Psixologiyada sezgilarning fiziologik asosini va mexanizmlarini qo'zg'atuvchining o'ziga mutlaq mos bo'lgan analizatorlar ta'siri natijasida yuzaga keluvchi asab jarayoni, uning tizimi, tuzilishi tashkil qiladi. Fiziolog va psixologlar-ning ta'limotlariga ko'ra, analizator uch o'zaro uzviy uyg'unlikka ega bo'lgan tarkibiy qismlardan iborat. Sodda qilib aytganda, mazkur tarkiblar quyidagi ketma-ketlikda tuzilgandir:

- 1) tashqi kuch-quvvatni asab jarayoniga aylantirib beruvchi periferiya qismdan, ya'ni retseptordan;
- 2) analizatorlarning periferiya qismini markaziy qism bilan bog'lovchi afferent (markazga intiluvchi asab tolasi), o'tkazuvchi asab yo'llaridan;
- 3) periferiya qismlaridan keluvchi nerv impulslari qayta ishlanuvchi analizatorlarning miya po'stlog'idagi qismlaridan iboratdir.

Boshqacha aytganda, periferik nervlarning uchlari (ko'z, quloq, teri, burun kabilar), ta'sirotni eltuvchi (afferent), javob qaytaivchi (efferent) nerv tolalari, analizatorlarning orqa va bosh miya markazlari analizatorini tashkil qiladi.

Jahon psixologiyasi fani so'nggi yutuqlari hamda atamalariga qaraganda sezgilar quyidagicha tasniflanadi (ushbu tasniflanishning dastlabki ko'rinishi ingliz olimi Ch.Sherringtona tegishlidir):

1) tashqi muhitdagi narsa va hodisalarning xususiyatlarini aks ettirishga moslashgan hamda retseptorlarga gavdaning tashqi qismiga joylashgan sezgilar, ya'ni eksterio-retseptiv sezgilar (retseptorlar);

2) ichki a'zolar holatlarini in'ikos etuvchi hamda retseptorlari ichki a'zolarida, to'qimalarida joylashgan sezgilar, ya'ni interoretseptiv sezgilar;

3) gavdamiz va tanamizning holati hamda harakatlari haqida ma'lumot beruvchi, muskullarda, bog'lovchi paylarda, mushaklarda joylashgan sezgilar, ya'ni proprioretseptiv sezgilar.

Birinchi turkum sezgilarni ko'rish, eshitish, hidlash, teri-tuyush, ta'm-maza kabi turlar tashkil qiladi. Ko'rish 380 dan 770 gacha millimikron diapazondagi elektromagnit nurlardan iborat jarayondir. Eshitish esa tebranish chastotasi 16 dan to 20000 gacha bo'lgan tovush to'lqinlaridan iboratdir. Ko'rish sezgilari bosh miya po'stlog'ining orqa bo'lagida joylashgan bo'ladi. Eshitish sezgilari bosh miya po'stlog'ining tepa burmasi qismidan joy egallagan. Teri-tuyush, harakat sezgilari bosh miya po'stlog'ini markaziy burmasi orqa qismidan o'rin olgandir.

Endi sezgilarning tavsiflanishi, mohiyati va lining negiziari haqida fikr yuritamiz.

A.R.Luriyaning fikricha, interoretseptiv sezgilar asl ma'nodagi sezgilar emas, balki emotsiyalar bilan sezgilar o'rtasidagi oraliq sezgilar sifatida namoyon bo'ladi. Psixologiyada mazkur sezgilarning subyektiv ravishda paydo bo'lishi yetarli darajada chuqur o'rganilmagan, shu bois uyar „noma'lum hislar“ doirasiga kiritilgan. Ular to'g'risidagi bilimlar bilan tanishish, o'zgarishlarni tekshirish „kasalliklarning ichki manzarasi“ni ifodalashda muhim o'rin tutadi. Ichki a'zolarining xastaligida vujudga keluvchi mazkur holatlar ichki kasalliklarni tashxis qilishda alohida ahamiyat kasb etishi turgan gap (A.R.Luriya tadqiqotlaridan).

Bunday xususiyatli ixtiyorsiz sezgilar insonda juda erta uyg'onadi, shuningdek, ularning ifodalanishi ham o'ziga xos shakllarga ega. Chunonchi, ular „oldindan his qilish“ sifatida paydo bo'lib, hatto inson ularni ta'riflab berish imkoniyatiga qodir emas, ko'pincha ushbu kechinmalar tushda ayon berib, qaysidir kasallik xurujidan darak beradi, xolos.

Ular insonning kayfiyatida, emotsional reaksiyalari o'zgarishida ko'zga tashlanadi, shu tufayli bola xatti-harakatining keskin o'zgarishiga sabab bo'ladi. Chunki, bola o'z tana a'zolaridagi ichki holatlarning o'zgarishini anglash, sezish, his qilish uquviga ega emas, shu bois buni undagi xatti-harakatning umumiy o'zgarishidan sezish mumkin. Bu hodisaga misol tariqasida quyidagi voqelikni keltirish mumkin: bola o'z ichki interoretseptiv sezgilarini namoyish qilish maqsadida „kasal“ bo'lib qolgan qo'g'irchog'ini parvarish qila boshlaydi.

Interoretseptiv sezgilarning obyektiv ahamiyati juda yuqori, chunki ular ichki jarayonlarning o'zaro o'rin almashish balansini ta'minlab turish asosi hisoblanadi. Boshqacha aytganda, ular organizmdagi jarayonlarni o'zaro o'rin almashib turishining gemostazi (barqarorligi) deb ataladi. Ichdan paydo bo'ladigan signallar xatti-harakatni vujudga keltiradi, stress, zo'riqish, affekt holatlarini yo'qo-tishga, pasaytirishga, paydo bo'layotgan mayllarni esa qoniqtirishga yo'naltiradi. Oqibatda, tana ichki a'zolari faoliyatining izdan chiqish holati yuz berishi mumkin. Shu sababli tibbiyot psixologiyasida interoretseptiv sezgilar ham muhim o'rin tutadi. Somatik va visperal jarayonlar, ruhiy holatlar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish imkonini yaratadi.

K.M.Bikov, V.N.Chernigovskiylar tomonidan interotseptiv sezgilarning fiziologik mexanizmlari interotsepsiya bilan birgalikda atroflicha o'rganilgan. Bularning barchasi shartli reflektor faoliyati mexanizmlaridan kelib chiqqan holda sharhlab berilgan.

Proprioretseptiv sezgilar tana dvigatel apparatining va gavdaning fazodagi holati to'g'risida signallar bilan ta'minlab turadi. Ular inson harakatining regulatorini va afferent asosini tashkil qiladi.

Periferik retseptorlar muskullarda, paylardava bo'g'imlarda joylashgan bo'lib, maxsus tanacha shakliga egadir. Mazkur tanachalar Puchchini tanachalari deb ataladi.

Tanachalarda vujudga keluvchi qo'zg'atuvchilar muskullarning taranglashuvi natijasida va bo'g'imlar holatining o'zgarishida, nerv tolalari yordamida orqa miyaning orqa ustunidagi oq suyuqliklarga yetkaziladi. Qo'zg'ovchilar Burdak va Goll yadrosining quyi bo'limlariga yetib keladi va undan po'stloq osti tugunlaridan o'tib, bosh miya katta yarim-sharining qorong'ilashgan zonasida o'z harakatini yakunlaydi.

Proprioretseptorlar harakatning afferent asosi ekanligini A.A.Orbeli, P.K.Anoxin (hayvonlarda), N.A.Bern-shteyn (odamlarda) o'rganganlar.

Psixologik ma'lumotlarga ko'ra, gavdaning fazodagi holati sezgirliigi statik sczgilarida o'z ifodasini topadi. Uning markazi ichki quloq kanallarida joylashgan bo'lib, o'zaro bir-biriga perpendikular bo'shliqda tutash holatda yotadi. Masalan, bosh holatining o'zgarishi quyidagi sxemaga binoan amalga oshadi:

a) o'zgarish endolimfa suyuqligiga bog'liq qo'zg'aladi;

b) cshitish nervi;

d) vestibulator nervi;

e) bosh miya po'stlog'ining chakka bo'lmasi;

f) miya apparatiga o'tadi.

Vestibulator sezgirlik apparati ko'rish bilan bevosita aloqadabo'lib, fazoni mo'ljallash jarayonida ishtirok etadi. Masalan, avtomobilning yo'ldan o'tishi (qatnovi), qalin o'rmonni kesib o'tish payti va hokazo. Xuddi shunday holat uchishda ham yuzaga kelishi mumkin. Patologiya holatida ham xuddi shunday jarayonga duch kelinadi.

Ekstroretseptiv sezgilar modallikdan (5 tadan) tashqarisi intermodal nospetsifik sezgi turkumlariga ajratiladi. Masalan, eshitish a'zosi orqali bir soniyada 10 — 15 tebra-nishni sezish mumkin, lekin quloq bilan etnas, balki suyaklar yordamida (miya qopqog'i, tirsak, tizza uchlari orqali) payqash — vibratsiya sezgirliigi deyiladi. Masalan, karlar-ning tovushlarni idrok qilishi, pianinoni ushlab turish, pol yoki mebelning harakati kabilarda. Odatda, vibratsion sezgirlik intermodal sezgi deb ham nomlanadi. Intermodalning boshqa bir ko'rinishi mana bunday holatda namoyon bo'ladi:

a) hid, ta'm va maza sezgilarida;

b) o'ta kuchli tovushda, o'ta yorug'likda;

d) tricheminal, ya'ni uch xil ta'sirning uyg'unlashgan, integrativ holati va shu kabilarda.

Sezgining o'ziga xos bo'lmagan shakli — terining foto sezgirliigi, ya'ni ranglarning nozik jilolarini ajratish hamda qo'l uchlari bilan sezish orqali ro'yobga chiqadi. Terining foto sezgirliigi A.N.Leontyev tomonidan kashf qilingan bo'lib, bu narsa ko'pgina holatlarga oqilona yondashish imkoniyatini vujudga keltiradi. Ushbu kashfiyot qo'l uchiga yashil va qizil rangli yorug'lik yuborish orqali dunyo yuzini ko'rgan. Rang signallarining og'riq qo'zg'atuvchilar bilan munosabati qiyosiy jihatdan olib qaralganda, insonni faol mo'Ijal

olish jarayonida uning qo'l uchi terisiga kelib tu-shadigan rang-nurlarini farqlashga o'rgatish mumkin ekan.

Psixologiya fanida terining foto sezgirligining tabiati hali yetarli darajada o'rganilmagan. Shunga qaramay, talamitik sistema va po'stloq ostining qo'zg'alganida asab tizimi hamda teri ektodermlaridan kelib chiqqan va atrofga yoyilgan rudimentlar—yorug'lik sezish elementlari maxsus sharoitda muvaffaqiyatli harakat qiladi. Ko'pincha „oltinchi tuyg'u,hissiyot" sharofati bilan insonning „masofa"ni sezishi, ko'r odamlarda to'siqni his qilishi ushbu jarayon uchun yorqin misol bo'la oladi. Ehtimol, yuz terisining issiq havo to'lqinlarini idrok qilish, to'siq oralig'ida mavjud bo'lgan tovush to'lqinlarini o'zida aks ettirish terining foto sezgirligini ilmiy jihatdan izohlashga muayyan asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Sezgining neyrofiziologik asoslari

Bilish jarayonlarini, xususan, sezgilarni o'rganishdan avval shaxs psixikasining barcha tomonlari bilan uzviy bog'liqliklarni anglash, tushunish lozim. Chunki sezgilar idrok jarayonining tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lsa, idrok insonning hayotiy tajribasi, uning xotirasi bilan bevosita bog'liqdir.

Psixologiya fanida va falsafada bilishning ikki bosqichi, ya'ni uning hissiy (sezgi, idrok, tasavvur) va aqliy pog'onalari mavjud bo'lib, bu mumtoz xususiyat sifatida ma'lum. Aqliy bosqich xotira, tafakkur, xayol jarayonlarini qamrab olgan bo'lib, o'zining mukammalligi, yuksakligi, mahsuldorligi, ijodiyligi bilan oldingi bosqichdan keskin ajralib turadi. Biroq bugungi kunda bilish bosqichlarining miqdori, tavsifi psixologiya fani oldida turgan zarur vazifalarni bajara olmay qoldi. Ong darajalari xususiyatlariga ko'ra bilishga oid qo'shimcha bosqichlarga kuchli ehtiyoj sezadi. Xuddi shu bois bilishning harakatli hissiy, aqliy, ijodiy, tarixiy bosqichlarga (tabaqalashtirish)ajratib tadqiq qilish maqsadga muvofiqdir (E.G'oziyev). Harakatli hissiy bosqich nutqqacha davrda ustuvorlik qilish bilan boshqa bilish ko'rinishlaridan keskin farq qilib turadi. Hissiy va aqliy bosqichlar barcha insonlarga xos bo'lib, ular ontogenezning turli davrlarida hukm surishi mumkin va aks ettirish imkoniyati boshqalarga qaraganda samaraliroqdir,

Tarixiy bilish bosqichi yangilik yaratish, kashfiyot qilish, muayyan sifat o'zgarishlarini vujudga keltirish, u yoki bu xossalarni takomillashtirish bilan tavsiflanadi.

Jahon psixologiyasi fani ma'lumotlariga qaraganda, sezgilar biz uchun atrof-muhit to'g'risida va o'z haqimi/da yagona bilish manbayi sifatida xizmat qiladi. Sezgilar shunday bir axborot kanalidirki, ular tashqi olamdan va ichki tana a'zolaridan keladigan barcha holatlar, taassurotlar aynan xuddi shu yo'للar orqali miya po'stlog'iga yetib boradi, insonga ta'sirlarga nisbatan to'g'ri javob reaksiyalari qaytarishga yordam beradi.

His etish yoki sezishning filogenetik taraqqiyoti shuni ko'rsatadiki, hayvonlarda ma'lum bir narsani sezish, his etish ularning biologik jihatdan zaruriyat, ehtiyoj ekanligi nuqtayi nazaridan rivojlangan.

Bu holatlar ko'pgina chet ellik olimlar tomonidan izchil ravishda o'rganilgan va o'ziga xos omillar, mexanizmlar mavjudligi ta'kidlab o'tilgan. Masalan, Frish asalari xatti-harakatlarini kuzatganda, u quyidagi ishni amalga oshirgan: gulga o'xshash murakkab geometrik shaklga nisbatan asalarining differensirovkasi (farqlashi) oson kechgan.

Agarda shu murakkab geometrik shakl botanikaga oid bo'lmaganda, arida differensirovka juda qiyinlik bilan vujudga kelgan bo'lardi. Tadqiqotchi Botsning kuza-tishicha, jonivorlar, qurt-qumursqalar, shu turdagi hasharotlar ham o'ziga xos bo'lgan tovushlarga befarq bo'lmaganlar. Mabodo tovushlar kuchaytirilsa yoki sur'ati tezlatilsa, unda ular hech qanday e'tibor bermaganlar. Ushbu vaziyatni o'zicha baholashga intilgan olim, biologik shartlanganlikdan kelib chiqib, tabiiy ehtiyojni instinkt bilan uzviy bog'lagan.

Tadqiqotchi Boytendayk o'z kuzatishlarida shu narsani ta'kidlaydiki, jumladan, itlar organik kislotalarning hidini yaxshi his etsalarda, ammo ular hayvonlarning tanasi, xushbo'y gullar, o'tlar hidini his etish irnkoniyyatiga ega emas ekanlar.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, qo'zg'atuvchilarning biologik jihatdan aynan mosligi ularning fiziologik rivojlanishi uchun moddiy negiz, tabiiy ehtiyoj, zarurat bilan bog'liqlik ekanligi ta'kidlandi. Shu narsani ta'kidlash joizki, insondagi aniq sezgilarning shu darajada taraqqiy etishiga ijtimoiy muhit, jarayon muhim omil bo'lib xizmat qilgan. Chunki ayrim individlarning sezuvchanligi ularning kundalik faoliyatidan kelib chiqqan holda, biologik shartlangan xususiyatlar bilan birgalikda rivojlanishi ham mumkin ekan. Tadqiqotchi Reussaning ma'lumotiga qaraganda tikuvchilar, bo'yoq sexida ishlovchilar qora rangning 40 xilini bir-biridan farqlash irnkoniyyatiga ega ekanlar, umuman, boshqa sohada faoliyat ko'rsatadigan odam esa bunday rangning ikki turinigina farqlay olar ekan, xolos. Bundan tashqari, degustatorlarda ta'm bilish sezgilari juda ham aniq va yaxshi rivojlangan bo'lar ekan. Chunki sezgining o'sishi qo'zg'atuvchilarning retseptorga ta'siri natijasida yuzaga keladi, ya'ni u retseptorlar rivojlanishi bilan bog'liq. Retseptor — bu qo'zg'atkich yoki qo'zg'atuvchini qabul qilishga mo'ljallangan nerv tolalaridan tashkil topgan. Retseptorlarning asosiy xususiyatlaridan biri uning ixti-soslashgan biologik apparat ekanligidir. Xuddi shu bois u juda seziluvchan qo'zg'alishni qabul qiladi. Har bir retseptor muayyan bir xususiyatli qo'zg'atuvchinigina qabul qiladi, binobarin, retseptorlar o'sha „tanish“ qo'zg'atuvchilarning ta'sir etishi natijasida yuzaga keladi va rivojlanadi.

Ma'lumki, inson o'zining tana a'zolariga ta'sir ko'rsatayotgan rang, issiqlik yoki sovuqlikni, hidlarning o'ziga xosligini sezadi hamda aks ettiradi. Ana shu vaziyat oqiba-tida analizatorlarning periferik qismlarida javob reaksiya hosil bo'ladi. Misol uchun ko'z qorachig'i qisqaradi, kengayadi, qo'l esa issiqlikdan seskanadi va boshqalar. Harakat-larni qabul qiluvchi tana a'zolaridan bosh miya po'stlog'iga harakat to'g'risida signal keladi, qayta aloqa orqali ichki tana a'zolari va boshqa apparatlari ish bajaradi.

Ingliz psixologi Ch. Sherrington sezgilarni aks ettirishning xususiyati va retseptorlarning joylashishiga qarab uch katta guruhga ajratadi.

1. Tashqi olamdagi narsa va hodisalarning ayrim xususiyatlarini aks ettiruvchi hamda tananing yuza qismida retseptorlari joylashgan eksterotseptiv sezgilar.
2. Tananing ichki a'zolarida (o'pka, yurak, jigar va hokazo) va to'qimalarida joylashgan hamda ichki tana a'zolarining holatini aks ettiruvchi retseptorlar bilan mujassamiashgan interotseptiv sezgilar.
3. Inson gavdasining harakati va holati haqida ma'lumot berib turuvchi, retseptorlar mushaklarida, paylarida propriotseptiv sezgilar.

Psixologiya fanida harakatni sezuvchan propriotseptiv sezgi turi kinesteziya deb atalib, unga tegishli retseptorlar esa kinestezik yoki kinestetik tushunchasi bilan nomlanadi.

Ekstrotseptorlar, o'z navbatida, kontakt va distant retseptorlarga ajratiladi, goho sezgilar tushunchasi „his-tuyg'u" atamasi deb ham yuritiladi. Odatda, distant retseptorlar muayyan masofadagi obyektidan keladigan qo'zg'atuvchilarni qabul qilib, so'ng ularni nerv yo'llari orqali markazga uzatadi. Ko'rish, hid bilish sezgilari bunga yorqin misolbo'laoladi.

Ekstratseptiv, ya'ni tashqi sezgilar to'g'risidagi dastlabki ma'lumot qadimgi yunon olimi Arastu tomonidan tavsiflanib berilgan bo'lib, eramizdan oldingi 384 — 322-yillarda yashab o'tgan. U sezgilarni ko'rish, eshitish, hid bilish, maza, ta'm turlariga ajratgan edi. Psixologik ma'lumotlarga qaraganda, sezgilar goho o'zaro bog'lanib, boshqa sezgi turlarini yuzaga keltirishi mumkin: masalan, paypaslab ko'rish natijasida sezish tarkibida taktil teri tuyush sezgilar bilan bir qatorda sezgilarning tamoman boshqa turi, ya'ni harorat sezgisi ham ishga tushadi. Xuddi shunga o'xshash voqelik, taktil va eshitish sezgilari oraliqda vibratsion sezgi yuzaga kelishi mumkin.

Muvozanat sezgisi murakkab vestibular apparati, vestibular nervlari hamda ko'z po'stosti qismlarini o'zida birlashtiradi. Turli analizatorlar uchun umumiy hisoblangan og'riq sezgilari qo'zg'atuvchilarning ta'sir kuchi haddan tashqari kuchli ekanligidan dalolat beradi. Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, insonning tana a'zolarida retseptorlarning joylashuv darajasi har xildir, jumladan, barmoq uchlarida retseptorlar zich, yelka qismida esa juda siyrak joylashgandir. Hozirgacha sezgilar ichki va tashqi turlarga qariyb ajratilmagan bolsada, ular harorat, og'riq, maza, vibratsion, statistik, dinamik sezgilar deb yuritiladi.

S .V. Kravkovning(1893 —1951) ma'lumotlariga ko'ra, bir sezgi a'zosi faoliyati ikkinchisining ta'siri tufayli o'zga-radi. Masalan, tovush sezgisi, asosan, ko'rish sezgisining yorug'lik sezuvchanligini orttiradi. Shunga o'xshash turli hidlar ham yorug'lik va hid bilishga nisbatan sezgirlikni oshirishi yoki kamaytirishi mumkin. Miya ustining yuqori qismi va ko'rish bo'rtiqlariga tegishli o'simtalarning yaqin joylashganligi tufayli bunday o'zaro ta'sir, ya'ni boshqasiga o'tish osonroq amalga oshadi.

Bundan tashqari, sezgilarning o'zaro qo'zg'alishi va tormozlanishini o'rganish ham alohida ahamiyatga ega. Chunki! avtomatik boshqarilish tufayli ayrim hollarda, ya'ni tungi uchishda sun'iy sezgirlikning pasayish yoki ortishi yuzaga keladi. I.P.Pavlov tomonidan analizatorning murakkab o'zaro ta'sir shakllari mavjud ekanligi qayd etilgandir. Ular bevosita bosh miya po'stlog'ida namoyon bo'lib, bu bir vaqtning o'zida ko'rayotgan jismni, eshi-tilayotgan tovushni, kelayotgan hidni sezishimizda o'z ifodasini topadi. Bosh miya po'stlog'ida kechadigan bu fiziologik jarayonlarni bosib o'tishi zarur bo'lgan zonalar perikritik zonalar deb nomlanadi. Sezgilarning tasnifi ularning turli spetsifik tavsifiariga, ya'ni modalligiga qarab emas, balki tashkil ctilishining har xil darajalariga qarab amalga oshiriladi.

Ingliz nevrologi Xed sezgilarni protopatik va epokritik nomlar ostida ikkita darajaga ajratadi. Protopatik sodda tuzilishga ega bo'lgani uchun unda mavjud haqiqiy holat bilan emotsional holatni ajratish qiyin deydi. Murakkab epokritik darajasida aqliy bosqich tarkiblari ishtirok etishi mumkin, jumladan, ko'rish sezgisi bunga yaqqol misoldir. Ma'lumotlarning ko'rsatishicha, dastlab protopatik sezgilar, keyinchalik epokritik sezgilar yuzaga keladi.

Sezgilarni obyektiv yo'nalishi bo'yicha Y.N.Sokolov, O.S.Vinogradovlar tekshirish ishlari olib borganlar, ular sezgilarni passiv jarayon emas, balki vegetativ elementlar

fiziologik nafas olish tizimida o'zgarishga sabab bo'luv-chilardir deb tushuntirganlar. Ushbu vaqt reflektor o'zga-rishlarini, ya'ni sezgining obyektiv ko'rsatkichi sifatida ishlashga imkoniyat yaratadi. Ma'lumki, sezgini paydo qiluvchi liar bir qo'zg'atuvchi, ya'ni qo'zg'atgich, reflektor jihatdan yuzaga keluvchi jarayonlarni yuzaga chaqiradi, chunonchi bular tomirlarning torayishi, teri galvanik reflektorlarning paydo bo'iishi (teri qarshiligining o'zgarishi), miyaning elektr faolligining o'zgarishi, ko'z-larning qo'zg'atgich tomon burilishi kabilar. Bularning barchasi sezgi jarayoni paydo bo'layotgandagina ishga tushadi, shu sababli ular sezgilarning obyektiv ko'rsatkich-lari sifatida xizmat qila oladi.

Tajribalardan ko'rinib turibdiki, qo'zg'atuvchilar intensivligi oshgan sari javob reaksiyasi ham jadallashib borar ekan. Bu esa sezgilarning intensivligiga asos sifatida qarashga muhim negiz hozirlaydi. Tomir va elektrofiziologik reaksiyalar chegaralarda odatdagi qo'zg'atuvchilarga qaraganda keskinroq bo'ladi.

Avval I.P.Pavlov, keyinroq uning shogirdlari anali-zatorlarning o'zaro bog'liqligini konvergensiya asosida tadqiq qilganlar. P.P.Lazerev esa (1878 — 1942) teri ultrabinafsha nurlar bilan nurlanishi natijasida ko'rish sezuvchanligining susayishini aniqlagan. Bu holat agar boshqa analizatorlarga quyi chegarada qo'zg'atuvchilar ta'sir ko'rsatishi orqali ham biron analizatorning sezuvchanligini o'zgartirishi mumkin, degan umumiy xulosa chiqarishga olib keladi.

Y.N.Sokolovningtajribalarida qo'zg'atuvchiga nisbatan muvofiqlashuvchi reaksiyaning susayishi mumkinligi haqida dalillar to'plangan edi. Nerv sistemasi sezgi a'zolariga ta'sir ko'rsatganda ularning xususiyatlari nafisroq namoyon bo'ladi. Bunda nerv modellari tanlab ta'sir qiluvchi filtr vazifasini bajaradi. Muayyan paytda retseptorga ta'sir qiluvchi qo'zg'atuvchi ilgari tarkib topgan nerv modeii bilan muvofiq kelmaganda taxminiy ta'sirotni hosil qiluvchi muvofiqlashtirish signallari vujudga kelishi mumkin. Va aksincha, ilgari tajribalarda qo'llanilgan qo'zg'atuvchi taxminiy ta'sirotni yo'qotib qo'yishi chtimoli ham bor.

Chet ellik psixolog va fiziologlar sezgirlikni Mendelning qonuniyatiga asoslanib nasl bilan bog'liq holda tadqiq qilganlar. Speyder ta'm bilish naslga bog'liq dsgan xulosa chiqaradi va 100 oilada buni sinab ko'radi. Ma'lumotlarga qaraganda, ota-onalar bilmagan ta'mni bolalari ham payqamaganligi namoyon bo'lgan.

I.P.Pavlovning shogirdi P.K.Anoxin o'zining qirq yillik faoliyati davomida organizm integrativ faoliyatining nozik mexanizmlarini o'rgangan. Muallif o'zining bir qator asarlarida funksional sistema nazariyasi mohiyatini bayon qiladi, ya'ni organizmda faoliyat sistemasi mavjud bo'lib, u yopiq takrorlanuvchi fiziologik siklik tuzilmadan iborat. Muallifning fikricha, organizmning funksional sistemasi organizm xatti-harakati reaksiyalarining fiziologik mexa-nizmining prinsipial sxemasidan iboratdir. Organizmning barcha jarayonlari, xatti-harakatlari, vegetativ aktivlar agarda foydali samara bilan tugallansa, u holda uch bosqich orqali bajariladi. Mazkur bosqichlar afferent, sintez, qaror qabul qilinib bajarilishi uchun zarur bo'lgan harakatlar natijasi, ya'ni model hosil qilish yo'li bilan oldindan aks ettirishdan iborat. Afferent, sintez bosqichi bar qanday xatti-harakat akti ri voj lan i shin ing boshlang'ich pog'onasidir. Ushbu bosqich tugagach, muayyan xatti-harakat akti shakllanishining navbatdagi bosqichi boshlanadi. Aynan shu bosqichda organizm xatti-harakatining uch asosiy masalasi, ya'ni nima? qanday? va qachon? bajarilishi ha! qilinadi.

Afferent sintez bosqich, asosan, to'rtta komponent negizida sodir bo'iishi tajribalarda sinab ko'rilgan. Uning asosiy jabhalari, eng awalo dominant motivatsiya (o'ta xohish) va unga hamroh hisoblangan emotsiyaning kuchliligi hamda barqarorligida namoyon bo'ladi:

1. Organizmga qo'zg'atuvchilarning ma'lum birta'siri.
 2. Yo'naltiruvchi afferentatsiyaning mavjudligi.
 3. Afferentatsiyaning muayyan shart-sharoitlari.
 4. Xotira apparatlari va mexanizmlari.
 5. Bularning o'zaro ta'siri quyidagi uchta neyrodinamik omil orqali bajariladi: a) yo'nalganligi; b) neyronlarda qo'zg'alishning konvergentsiyasi (to'yinishi); d) qo'zg'alishning po'stloq va po'stloqosti tuzilmalarida qayta hosil bo'lishi va tiklanishi.
 6. Bu mexanizmlar nerv sistemasida turli qo'zg'alishlarni to'plashga, birlashtirishga, solishtirishga va mazkur muhitda eng qulay xatti-harakat aktini bajarish uchun qaror qabul qilishga olib keladi.
 7. Miya po'stlog'i hujayralarida qo'zg'alishning konvergentsiyasi va ularni solishtirish jarayoni butun miya bo'ylab bu o'zaro ta'sir natijalarining integratsiyasi harakat maqsadining shakllanishiga hamda uni unumliroq qaror tanlash sari yetaklaydi.
- Katta yarimsharlarning murakkab integrativ faoliyatining boshlang'ich bosqichini turli qo'zg'atuvchilar bir neyronidagina konvergentsiyasi deb qarash mumkin.
- Katta yarimsharlarda maxsus neyronlar guruhi borligi sababli ularturli-tuman qo'zg'alishlarni qayta qabul qilish bilan cheklanmay, balki miya po'stlog'ining piramida hujayralaridan akson orqali keluvchi efferent qo'zg'alishlarni ham qabul qiladi. Bu esa orqa miya po'stloqosti va po'stloqdagi ko'plab aksonlar neyronlarning vazifasi, ya'ni siklik qo'zg'alishni ko'pincha saqlab turish, o'ziga xos „kutish“ to'plamini saqlaydi. Shu bilan bir vaqtda periferik ishchi a'zolariga yuboriladigan buyruq nusxasini butun miyaga tarqalishini ta'minlaydi. Bir neyronning o'zidagi efferent qo'zg'alish konvergentsiyasi periferik retseptorlardan keluvchi afferent qo'zg'alish bilan aksonga uzatilgan buyruq nusxasi olingan natijalarni baholash uchun shart-sharoitlaryaratadi. Evolutsiyajarayonida hosil bo'ladigan bilishning neyrodinamik mexanizmlarining kashf etilishi bar qanday bo'lajak hodisalarni tahlil qilish va oldindan bilishga asos bo'ladi.
- Ko'rish analizatori o'zaro bir-biri bilan alohida bo'lgan o'tkazuvchan periferik qismdan, po'stloqosti va bosh miya yarimsharlaridagi ko'rish markazlaridan iboratdir. Eshitish analizatori have to'lqinlarining tebranishini qabul qiladi, ularning mexanik energiyasini nerv hujayrasining qo'z-g'alishiga aylantiradi.
- Ko'rib o'tganimizdek, sezgilarning neyrofiziologik asosi juda murakkab bo'lganligi tufayli uni ancha vaqt o'rganish lozim bo'lar ekan.

Sezgi turlarining psixologik tavsifi

Psixologiya fanida sezgilar uchta katta guruhga ajratil-gan (eksteroretseptiv, prioretseptiv, interoretseptiv) bular, o'z navbatida, yana quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Ko'rish sezgilari.
2. Eshitish sezgilari.
3. Hid bilish sezgilari (eksteroretseptiv).

4. Ta'm bilish sezgilari.
5. Teri sezgilari.
6. Muskul-harakat (kinestetik).
7. Statik sezgilar (proprioetseptiv).
8. Organik sezgilar (interoretseptiv).

Ko'rish sezgilari

Insonning rang va yorug'likni sezishi, ko'rish sezgilari tarkibiga kiradi va seziladigan ranglar xromatik, axromatik turlarga bo'linadi.

Psixofiziologik qonuniyatga ko'ra, yorug'lik nurlari uchburchak shisha prizma orqali o'tib singanda hosil bo'ladigan ranglar xromatik ranglar, deb ataladi. Ular **kamalak** ranglar hisoblanadi va tarkibiga qizil, zarg'aldoq, sariq, yashil, havorang, ko'k, binafsha tuslarini qamrab oladi. Biroq mazkur ranglarning turlari, ko'rinishlari tabiatda xilma-xil va nihoyatda ko'pdir. Odatda, oq rang, qora rang, kulrang va ularning turlicha ko'rinishlari axromatik ranglar deb nomlanadi.

Ko'rish sezgilari organi ko'z hisoblanib, u ko'z soqqasi va undan kelib chiqadigan ko'ruv nervlaridan tashkil topadi. Ko'z soqqasini tashqi tomirlar va to'r pardalari o'rab turadi.

Tashqi pardaning tiniq bo'lmagan oq qismi sklera yoki qotgan, qattiq parda deb nomlanadi. Uning old tomoniga joylashgan birmuncha qavariq qismi tiniq muguzparda bo'lib, uning oldingi qismi rangdor parda deb ataladi. Mazkur pardaning rangiga binoan, uning tovlanishiga qarab, odamlarda ko'z ko'k, qora, sariq jilo beradi va ularni biz ko'kko'z, qo'yko'z, qorako'z va hokazo deb ataymiz. Rangdor pardaning o'rta qismida yumaloq teshik mavjud bo'lib, biz uni qorachiq deb ataymiz. Xuddi shu teshik orqafi ko'z ichiga yorug'lik nurlari kiradi. Kelayotgan yorug'likning ozligi yoki ko'piigiga qarab, qorachiqning kengayish yoki torayish jarayonlari yuzaga keladi.

Ko'zlarning uchinchi pardasi to'r parda deb nomlanib, u ko'z soqqasining deyarli butun ichki yuzasini qoplaydi. Qorachiq bilan rangdor pardaning orqasida ikki tomoni qavariq, tiniq jism — ko'z gavhari joylashgan bo'ladi, yorug'lik nurlari undato'planib, so'ngsinadi vato'r pardaga narsa yoki jismning surati tushadi. Halqa shakldagi kipriksimon muskulning uzayishi yoki qisqarishi tufayli gavhar yo yassilanadi yoki qavariq holga keladi (jism ko'zdan uzoqlashtirilganda gavhar yassilanadi, ko'zga yaqin-lashtirilganda esa u shar shakliga kiradi). Ko'z gavharining mazkur xossasi tufayli narsa xoh uzoqda, xoh yaqinda bo'lsin, narsalarning aksi gavhardan o'tib, so'ng to'r pardaga tushaveradi.

Ko'z soqqasining gavhar bilan to'r parda o'rtasidagi butun ichki yuzasi shishasimon jism deb nomlanuvchi maxsus tiniq suyuqlik bilan qoplangan bo'ladi. Bu to'r parda rang va yorug'likni sezish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, unda ko'ruv nervining tarmoqlari joylashgandir. Ushbu tarmoqlarning uchlarida tayoqchalar va kolbachalar deb ataladigan maxsus nerv hujayralari mavjuddir. Inson ko'zining to'r pardasida 130 millionga yaqin tayoqcha va 7 millionga yaqin kolbacha bor deb taxmin qilinadi. Kolbachalar yordami bilan xromatik (kunduzgi) ranglar ko'riladi. Tayoqchalar yorug'likni yaxshi sezuvchan bo'lib, xira va qorong'i paytlarda ham o'z funksiyasini bajaradi, axromatik ranglarni aks ettiradi.

To'r pardaning eng sezgir joyi — sariq dog'ning, asosan, kolbachalar bilan to'lgan markaziy chuqurchasi hisoblanib, unga qaysi narsaning aksi tushsa, xuddi shuni hammadan

ravshanroq ko'ramiz. Obyektga tik qarash natijasida, ko'z muskullari unga qaratiladi va aks ettiriluvchining surati sariq dog'ga tushadi, bunday tarzda ko'rish to'g'ridan ko'rish deyiladi. Agarda narsalarning surati sariq dog'dan tashqarida bo'lsa, ya'ni to'r pardaning bu joyida rang va yorug'likni sezadigan tayoqchalar, kolbachalar mavjud emas, bu ko'ruv nervining ko'z soqqasidan chiqish joyi bo'lib, u yorug'likdan ta'sirlanmaganligi uchun ko'r dog' deb ataladi.

Odam ko'zi ranglarni taxminan 380 millimikrondan 780 millimikrongacha uzunlikdagi to'lqinlar ta'sirida sezadi: 1)780—610 qizil rangni; 2)610 — 590 zarg'aldoqni; 3) 590 - 575 sariqni; 4) 560 -510 yashilni; 5) 480 - 470 havorangni; 6)470-450 ko'k rangni; 7)450-380 binafsharangni sezadi.

A)Ko'rish sezgilarining xossalari.

1. Rangning toni (150 ga yaqin tuslari).
2. Ochiqlik (qora bilan oq rangda 200 gacha tus ajratiladi).
3. Rangning ravshanligi (600 ga yaqin).
4. Rangning quyuqligi (tonining yaqqolligi).
5. Ranglarni aralashib ketishi (turli uzunliklardagi yorug'lik nuri).

B) Ko risk sezgisi jarayoni

Uch rangli nazariyasi:

1. 1756- yilda M.V.Lomonosov asosiy qoidalarini bayon qilib bergan.
2. 100 yildan keyin nemis fizigi G.Gelmhols uni to'la isbotlab bergan.
3. Ushbu nazariyaga binoan, to'r pardaning kolbachalarida uchta asosiy element mavjuddir, ulardan birining qo'zg'alishi qizil rang sezgisini, ikkinchi birining qo'zg'alishi **yashil rang** sezgisi va uchinchi birining qo'zg'alishi binafsharang sezgisini hosil qiladi. Nazariyaga ko'ra, yorug'lik to'lqinlari birdaniga uchta elementni bir xilda qo'zg'atsa, oq rang sezgisi vujudga keladi. Lekin yorug'lik to'lqinlari ikki yoki uch elementga ta'sir qilsa-yu, ammo bu ta'sir bir tekis kechmasa, u holda sezuvchi elementlar bar birining qanchalik qo'zg'alganligiga qarab, rang sezgilari bar xil namoyon bo'ladi.

Hozirgi zamon psixologiyasida ranglarni sezish yolg'iz to'r pardasidagi jarayonlar bilangina emas, balki miya po'stlog'ida yuzaga kladigan boshqa jarayonlar bilan ham bog'liq ekanligi aniqlangan. Zamonaviy ma'lumotlarga binoan, tayoqchalarda ko'rish purpuri degan maxsus modda borligi isbotlangan. Ko'zga yorug'lik ta'sir etganda ko'rish purpuri kimyoviy yo'l bilan parchalanib, tarkibiy qismlarga bo'linadi va mazkur jarayon ko'rish nervini qo'zg'atib, yorug'lik sezgisi hosil qiladi, qorong'ilikda esa purpur o'z funksional holatini qayta tiklaydi.

D) Ko 'risk sezgilarida yuz beradigan maxsus hodisalar;

1. Rang kontrast (kuchsizlanish tufayli).
2. Shapko'rlik.
3. Rang ajrata olmaslik (traxoma) — kunduzi va tunda yuradigan hayvonlar shular jumlasidandir.

Eshitish sezgilari

Eshitish sezgilarining vazifasi tovushlarni eshitishdan iborat. Bular musiqa va turli-tuman shovqinlar bo'lishi mumkin. Odatda, tovushlar oddiy va murakkab turlarga ajratiladi, ularning birinchisi tonlar, ikkinchisi esa bir necha tondan tashkil topganlaridir. Tonlardan biri asosiy ton hisoblanadi va tovush balandligini,

kuchini belgilaydi, boshqalari qo'shiluvchi tovushlar sanalib, ular obertonjar deyiladi. Musiqa asboblaridan taralayotgan tovushlarning o'ziga xosligi fan tilida *tembr* deb ataladi. Hatto nutq tovushlari ham ohangli tovushlar (unli tovushlar) yoki shovqin tovushlardan (undosh tovushlar) tashkil topgan bo'ladi.

Eshitish sezgilari organi quloq bo'lib, tashqi quloq (quloq suprasi bilan eshituv yo'lidan iborat), o'rta quloq (nog'ora parda va unga yopishgan uchta suyakcha: boig'acha, sandon va uzangidan tashkil topgan), ichki quloq (quloq labirinti o'zaro birlashgan uchta bo'lakdan tuzilgan). Tashqi quloq havo to'lqinlarini yig'uvchi karnay vazifasini bajaradi. Nog'ora parda va unga yopishgan suyakchalar havo to'lqinlarini ichki quloqqa uzatadi. O'rta quloq maxsus yo'l orqali og'iz va burun bo'shlig'i bilan tutashgan bo'ladi. Ichki quloqning yuqori qismi uchta yarim doira kanaldan, o'rta qismi kameradan va pastki qismini chig'anoqdan tashkil topgandir. Ichki quloqning uchala bo'limi endolimfa nomli maxsus suyuqlikdan iboratdir. Ichki quloqning asosiy qismi chig'anoqdan iborat bo'lib, uning ichida kortiy organi mavjud, u gumbaz shakliga ega, asosida esa membrana joylashgan. Membrana uzunligi qisqarib boruvchi elastik tolalardan iborat bo'lib, ular tarang tortilgan turlarga o'xshaydi, uning yuqori qismida maxsus tayoqchasimon hujayralar mavjud va ular kortiy dugalari deb yuritiladi. Membrananing tolalari endolimfaga ingichka qillari bor maxsus hujayralar yordamida kortiy dugalari orqali miya katta yarimsnarlari po'stlog'ining bo'lagiga joylashgandir.

Eshitish sezgilarining fizik sabablari. Havo to'lqinlarining harakati tufayli tovush chiqaruvchi jismlar tebranganida eshitish sezgilari hosil bo'ladi. Agarda musiqaviy tovushlar havo to'lqinlarining tekis ritmik harakatlari natijasida vujudga kelsa, shovqinlar ularning notekis harakatlaridan tug'iladi.

Hid bilish sezgilari

Hid bilish sezgilariga hidlarni his qilish kiradi va ularning organi burun kovagining yuqori tomoni hisoblanib, bu yerda hid bilish hujayralari hamda sezuvchi nerv tarmoqlari joylashgan, ular shilliq pardalarda botib turadi.

Hidli moddalar sezuvchi nervni qo'zg'aydi, hid bilish markazi bosh miya yarimsharlari orqa yuzasining pastki qismida mavjud deb taxmin qilinadi. Hidli moddalar hid bilish hujayralariga gaz holatida ta'sir etib, kimyoviy reaksiyalar yo'li bilan ularni qo'zg'atadi (ularning barchasi bug'lanadi va eriydi). Odatda, gaz holatidagi hidli moddalar havo bilan nafas olish jarayonida burun kovagiga kirib keladi, natijada aks ettirish holati hosil bo'ladi.

Ta'm bilish (maza) sezgilari

Ta'm bilish sezgilari shirin, achchiq, nordon, sho'r singari mazalarni his qilish bilan tavsiflanadi. Ular muayyan turkumga kiritilgan va kiritilmagan xilma-xil turlarga ega bo'lib, narsa va moddalarning nomlari bilan yuritiladi: nonning mazasi, qovunning mazasi kabilar.

Ta'm bilish sezgilari tilning yuzasi va tanglayning yumshoq qismida tashkil topgan. Tilning shilliq pardasida maxsus ta'm bilish so'rg'ichlari mavjud bo'lib, ularning tarkibida tayoqsimon hujayralardan tuzilgan maxsus ta'm bilish „kurtaklari“ („so'g'onlari“) bo'ladi, O'ziga xos xususiyatlari, sifatleri bilan tafovutlanuvchi ta'm bilish so'g'onlari til yuzasida bir tekis taqsimlanmaganligi uchun lining orqa qismi achchiq mazani, uchi shirin mazani, chetlari esa nordon mazani aniq sezadi, lekin

uning o'rtasi ta'm mazasini to'liq seza olmaydi. Ta'm bilish so'g'onlarining hujayrali qismlarida maxsus sezuvchan nervlarning chekka uchlari joylashgan, ularta'm bilish organidagi qo'zg'alishni bosh miyaga uzatib turadi, uning markazlari hid bilish markazlariga yaqin joydadir,

Ta'm bilish sezgilari moddalarning kimyoviy xossalari ta'sirida hosil bo'ladi va so'g'onlar erigan moddalar ta'siri ostida qo'zg'aladi.

Hid va ta'm bilish sezgilari o'zaro chambarchas bog'-langan bo'lib, kimyoviy moddalarning ta'sir etishi natijasida yuzaga keladi. Ammo ularning bittasi kontakt, ikkinchisi distant sezgilar toifasiga kiradi.

Teri sezgilari

Teri sezgilari tarkibi tuyush va harorat turlaridan iborat bo'lib, ularning bunday nomlanishining sababi — retsep-torlarning teri va organizmning tashqi shilliq pardalarida joylashganligidir.

Tuyush sezgilari ikki xil axborotni qabul qilish imko-niyatiga ega bo'lib, ularning birinchisi tegish va tarqalishni tuyush, ikkinchisi esa siliq yoki g'adir-budurni tuyush bilan ifodalanadi. Odatda, tana a'zosiga narsalarning tegishini sezish tashqi qo'zg'alish kuchayganda siqiqni sezishga aylanadi, u yanada kuchayganda siqiq og'riq sezgisiga aylanadi.

Trigeminal nervlar pastki jag'ni boshqaradigan mushaklarni innervatsiya qiladi; yuz nerv-facial mushaklari, shu jumladan lablarini harakatga keltiruvchi mushaklar, yonoqlarni shishiradi va tortib oladi; glossofaringeal va blistering nervlari girtlak va vokal kıvrımları, soch va yumshoq tomoq mushaklari. Bundan tashqari, glossofaringeal asab tilning sezgi asabidir va vagus nafas a'zolari va yurak muskullarini innervatsiya qiladi. Bo'yinning aksariyat nerv nerv mushaklari va hipoglossal nervlar mushaklarni vosita nervlari bilan ta'minlab turadi va turli harakatlar ehtimoli haqida xabar beradi.

16-Мавзу. Нуткида нуксони бор болалар ривожланишининг психо-физиологик хусусиятлари.

Режа


1. Нутқ анализаторининг анатомик тузилиши.
2. Нутқ марказий бўлим патологияси.
3. Нутқнинг периферик турдаги патологияси.
4. Товуш ҳосил бўлишидаги бузилишлар.
5. Овоз ҳосил бўлишидаги бузилишлар.

Таянч иборалар: нутқ, нутқ марказлари, асаблар, мушаклар, ихтиёрий ҳаракат, ҳаракат марказлари, ҳаракат сифати ва фаоллиги, вестибуляр системалар, марказдан қочувчи йўллар, марказга интилуи йўллар.

Periferik nutq apparati uch qismdan iborat: 1) nafas olish; 2) ovoz; 3) artikulyatsion (yoki tovush chiqarish).


Ko'krak o'pkasi, bronx va traxeyani o'z ichiga oladi (12-rasm). Insonning nutqini shakllantirishda nafas olish bo'limining o'rni shamol musiqiy asboblari - organlar rolini eslatadi. Bu tovush ishlab chiqarish uchun havoni etkazib beradi, chunki jismoniy jihatdan nutq tovushlari ovozli apparatlarning keyingi periferik qismida yuzaga keladigan turli xil chastotalar va kuchlarning ekshalatsiyalangan havo mexanik tebranishlaridan boshqa narsa emas.

1 - burun bo'shlig'i; 2 - og'iz bo'shlig'i; 3 - tanglay; 4 – burun va halkum; 5 – tomoq qismi; 6 – hiqildoq usti qismi; 7 – til osti suyagi; 8 hiqildoq; 9 - qizilo'ngach; 10 - traxeya; 11 – chap o'pkaning ustki qismi ; 12 - chap o'pka; 13 - chap bronx; 14-15 – o'pka pufakchalari (alveolalar); 16 - o'ng bronx; 17 o'ng o'pka 12. nafas yo'llari, o'pkada bronxial shohlar (bronxial daraxt) ko'rsatilgan.



Ovoz bo'limida hiqildoq ichidagi tovush burmachalardan iborat (13-rasm). Tog'ay va yumshoq to'qimalardan tashkil topgan keng, qisqa trubka. Old bo'yin qismida joylashgan bo'lib, uni oldi va yon tomondan, ayniqsa ozg'in odamlarda paypaslab ko'rish mumkin.

Yuqoridan hiqildoq tomoqqa, pastdan - nafas olish qismiga (traxeya) o'tadi - (10-rasm). Tomoqda - nafas olish va qizilo'ngach qilishda ikki yo'l kesishadi. Ushbu o'tish joyidagi "otishni yo'ltiruvchi" ning roli yumshoq tanglay va hiqildoq ustki qismi tomonidan bajariladi(15-rasm).



. hiqildoq : (A - old tomondan, B - orqada) 1 - traxeya; 2 – uzuksimon tog'ay; 3 - qalqonsimon togay;


4 – cho'qqisimon tog'ay; 5 – hiqildoq ustki qismi

Yumshoq tanglay qattiq tanglay ortidan davom etadi; shilliq qavat bilan qoplangan mushaklarning shakllanishi. Yumshoq tomoqning orqa tomoniga poraning pardasi deyiladi. Cho'qqisi mushaklarining yengiligi bilan palatin pardasi pastga qarab osadi va ularning qisqarishi paytida (u yutish jarayonida kuzatiladi) yuqoriga ko'tariladi. Tanglay pardasi ortida uzunchoq o'simta - tilcha.

Hiqildoq ustki qismi tog'ay toqimalardan Bolalarda gırgırlar kichkina bo'lib, turli vaqtlarda tengsizlikka uchraydi. Uning sezilarli o'sishi 5-7 yoshda, so'ngra pubertal davrda ro'y beradi: 12-13 yoshdagi qizlar, 13-15 yoshdagi o'g'il bolalar. Ayni paytda qizlardagi gurzilarning miqdori asta-sekin uchdan bir qismga ko'paydi va o'g'il bolalar bu jarayonni "portlovchi" deb ataydilar: Kadyk tezda ko'rsatila boshlaydi va sezilarli darajada (2/3) ovoz katlamlarini "ovoz o'zgarishini" - uning tembrini o'zgartirish.


Рис. 15. Yumshoq tanglay va hiqildoq ustki qismi
Nafas olishda (A) и yutishda(B)

1 – yumshoq tanglay; 2 – hiqildoq ustki qismi; 3 – traxeya; 4 – qizilo'ngach




Artikulyatsion bo'lim. Ortiqning asosiy organlari til, lablar, jag'lar (yuqori va pastki), qattiq va yumshoq tanglay, alveolalar. Ularning tillari, lablari, yumshoq tanglayi va pastki jaglari ko'chma, qolganlari esa harakatsiz (18-rasm).

Ortiqcha oro bermay tanasi tildir. Til katta massali organdir. Yopiq jag'lar bilan deyarli butun og'iz bo'shlig'ini to'ldiradi. Tilning old qismi mobil, orqa tomoni teskari va til ildizi deb ataladi. Tilning harakatlanuvchi qismida uchi, old tomoni (pichoq), yon chekkalari va orqa qismi farqlanadi. Tilning mushaklarining murakkab ichki tizimi (19-rasm), ularning biriktirilishi nuqtalarining xilma-xilligi tilning keskinligining shakli, pozitsiyasi va darajasini katta miqdorda o'zgartirish imkonini beradi. Bu so'zlar tovushlarni talaffuz qilish jarayonida katta rol o'ynaydi, chunki til barcha unli tovushlarning shakllanishida ishtirok etadi va deyarli barcha unli tovushlarni (labial tovushlardan tashqari), shuningdek, chaynashni va yutishni ham ta'minlaydi.



18/ Artikulyatsion organlarining sxematik profile 1 - lablar; 2-tishlar; 3 - alveolalar; 4 - qattiq tanglay; 5 - yumshoq tanglay; 6 – ovoz burmachalari; 7 - tilning ildizi; 8 - tilning orqasi; 9 - tilning uchi



Shakl. 19. Til mskullai 1 - tilning uzunchoq mushagi; 2 – yak osti-til mskullari; 3 – til osti suyagi; 4 – til osti mushaklar; 5 bigizsimon –til mushaklar; 6 – bigizsimon o'simta

17- MAVZU.Bolalar psixiatriyasi

REJA:

Bilish faoliyati 3 qismdan iborat:

idrok, xotira va tafakkur.

Idrokning buzilishi ikki xil bo'lib, bular illuziya va gallutsinatsiya.

Illuziya - bu aniq narsalarni noto'g'ri idrok etish. Illuziyalar ko'ruv, eshituv, hid bilish, taktil va ta'm bilish illuziyalariga bolinadi. Illuziya soglom odamda ham uchraydi. Masalan, shisha idishdagi suvga solingan qoshiq xuddi singandek ko'rinadi. Ko'ruv illuziyasida uyda osilib turgan to'n odam bo'lib ko'rinadi va h. k. Illuziyalar ko'pincha, yuqumli kasalliklar bilan og'rikan bemorlarda, turli xil zaharlanishlar oqibatida va juda jismoniy toliqqan odamlarda ham uchraydi.

Gallutsinatsiya - yo'q narsalarni bor deb idrok etish. Illuziyalarda chindan ham bor narsalar boshqacha bo'lib idrok etilsa, gallutsinatsiyalarda bemor yo'q narsalarni ko'radi, eshitadi, hidlaydi, sezadi. Ko'ruv gallutsinatsiyasida bemorlarning ko'ziga odamlar, hayvonlar har xil mahluqlar ko'rinishida aks etadi. Eshituv gallutsinatsiyasida bemorning qulogida har xil tovushlar eshitiladi. Hid bilish gallutsinatsiyasida bemorning dimogiga qoiansa hidlar kiradi va bemor burun teshiklarini yopib oladi. Ko'ruv gallutsinatsiyasi o'tkir psixozlarda, yuqumli kasalliklarda, ichkilik vasvasalarida uchraydi. Hid bilish va eshituv gallutsinatsiyalari esa shizofreniyaning boshlang'ich davrida kuzatiladi.

Xotiraning buzilishi. Xotira hayot tajribasida esda qolgan ma'lumotlarni

esda saqlash va takror aytib berishdir. Xotiraning buzilishi 3 ta: a) gipomneziya - xotiraning susayishi, bunda o'tmishdagi va yaqin vaqtdagi voqealar eslab qolinmaydi; b) giperamneziya - ancha ilgari bo'lib o'tgan voqealarni xotirada saqlab qolish; d) amneziya - xotiraning yo'qolishi yoki eslay olmaslik. Retrograd amneziyada bemorlar kasallikdan oldin bo'lib o'tgan voqealarni eslay olmaydilar. Bu holat, ko'pincha, bosh miya lat yeyishi, chayqalishidan keyin kelib chiqadi. Anterograd amneziyada kasallik boshlangandan keyin ro'y bergan hodisalar bemor xotirasidan tushib qoladi va kundalik voqealarni eslab qola olmaydi.

9 - Afsusli kasalliklar

Konfabulatsiya - xotiradan ko'tarilgan voqelikni uydirma hodisalar bilan to'ldirish. Bemor ilgari hech qachon qilmagan ishlari bilan shug'ullanishini aytadi. Bemor 3 oyga yaqin shifoxonada yotgan bo'sa-da, ikki kun ilgari chet el safaridan qaytib keldim, deb uydirma va yolqon gaplari bilan ishontirishga harakat qiladi. Xotiraning bunday buzilishlari bosh miyaning organik kasalliklarida uchraydi (bosh miya qon tomirlari aterosklerozi, bosh miya zaxmi va h. k.). Tafakkurning buzilishi. Tafakkur (fikrlash)ning buzilishi xilmaxil bolib, uning tezlashuvi va sekinlashuvi kuzatiladi. Tafakkurning tezlashuvi maniakal-depressiv psixozning maniakal bosqichida bo'ladi. Bunda bemorning fikrlashi shu qadar tezlashib ketadiki, u fikrlarni so'z bilan ifodalashga ulgura olmay qoladi. Natijada, ba'zi so'z va jumalarni tushirib gapiradi. Bunda bemorning gapirgan gaplarini tushunish qiyin bo'lib qoladi. Maniakal-depressiv psixozning depressiv bosqichida tafakkurning sekinlashuvi kuzatiladi. Bunda bemorning tafakkuriga biror tushuncha chuqur o'rnatib qoladi.

Bemor qisqa jum lalar bilan sekin-sekin cho'zib gapiradi. Xayoldan ketmaydigan holatlar. Xayoldan ketmaydigan, miyaga o'rnashib qolgan xotiralar vahimalar, shubha va istaklar hamda xatti-harakatlar shaklida namoyon bo'Madi. Bularning keraksizligini bemor biladi, lekin ulardan qutula olishning ilojini topa olmaydi. Bemor fikrlarini band qilib qo'yadigan holatlar nevrozlar, psixasteniya va shizofreniya kasalliklarida uchraydi. 1. Fobiyalar - miyaga o'rnashib qolgan vahimalar. Bemor biror kasallik bilan og'rib qolishdan qo'rqish, ochiq joylarda yurishdan va yopiq binolar ichida yurishdan qo'rqish, quturish kasalligi bilan og'rib qolishdan qo'rqish natijasida quturgan it tishlab oladi, deb vahimaga tushib yuradi. 2. Miyaga o'rnashib qolgan shubhalar. Bemor biror joyga ketayotib eshiklar yopildimi, chiroq o'chirildimi deb shubha qilaveradi. 3. Miyaga o'rnashib qolgan istaklar. Bunday bemorlar ko'p qavatli bino derazasidan o'zini tashlab yuborgisi kelaveradi, o'tib ketayotgan mashinalarga qo'Mini tekkizmoqchi bo'Maveradi. Bunda bem or bu istaklarning noto'g'ri ekanligini tushunadi va ularni bajarmaydi, lekin bu xayollardan qutula olmaydi. 4. Miyaga o'rnashib qolgan xatti-harakatlar. Bunda bemorlar ba'zi xatti-harakatlarni qilaveradi. U uylarning derazasini, simyog'ochlarni sanab chiqadi, o'tib ketayotgan mashinalarning raqamlarini bir-biriga qo'shib yuraveradi. Bunday xatti-harakatlar ba'zan yo'Malish, ko'zlarni mahkam yum ib olish va qollarni tez-tez yuvish bilan ifodalanadi.

Ota qimmatli fikrlar. Bu fikrlar real aniq shart-sharoitlar asosida paydo bo'Madi, lekin bemor fikriga to'g'ri kelmaydi. Bemor o'z xotinini menga xiyonat qilyapti yoki o'g'lim yomon ish bilan shug'ullanyapti, deb o'ylaydi. O'ta qimmatli fikrlar odamni hayajonga solib, butun fikrlarini egallab oladi va uni diqqinafas qilib qo'yadi. Bunday fikrlar aniq bor, real faktlar tufayli kelib chiqadigan bolishi bilan vasvasalardan farq qiladi. Vaqt o'Mishi bilan bu fikrlar asta-sekinlik bilan yo'qoladi.

Vasvasalar - kasallik tufayli bemor xayolida aqlga tobg'ri kelmaydigan noto'g'ri fikrlar, tanqid, nasihat qilish yo'Mi bilan tuzatib bo'Mmaydigan alahlashdir. Vasvasalar boshlansa, bemorni nohaq ekanligiga ishontirishga har qancha urinib ko'rilmasin, o'sha fikrdan qaytarib bo'Mmaydi. Vasvasalar bu ruhiy kasalliklar belgisidir. U quyidagi turlarga bo'Minadi: 1) ta'qib vasvasasi – bemor orqamdan odam tushgan, u derazadan qarab turibdi, ko'chadan ketayotganimda poylab yurishadi, deb o'ylaydi. Bunday bemor ta'qibdan qochib, boshqa shaharlarga ko'chib ketadi; 2) jismoniy ta'sir vasvasasi - bunday bemor men maxsus mashinalardan berilayotgan nurlar yoki radioto'Mqinlar ta'sirida qoldim, bular salomatligimga zarar keltiryapti, deb da'vo qiladi; 3) munosabat vasvasasi - bemor atrofdagi hodisa va narsalarning menga aloqasi bor, deb da'vo qiladi. Biror odam gaplashayotgan yoki kulayotgan bo'Msa, u kishi faqat mening ustimdan gapiryapti yoki kulyapti, deb o'ylaydi; 4) zaharlanish vasvasasi - bunda bemor atrofdagi odamlar ovqatimga zahar solib qo'yishadi, deb o'ylaydi va ovqatni yemay qo'yadi; 5) ipoxondrik vasvasa - bunday bemorlar o'zini og'Mr kasallikka uchragan, deb hisoblaydilar. Bemorlar oshqozonim chirib borayapti yoki ichagimga suyak qadalib qoldi, deb da'vo qiladilar. Bu xil vasvasa shizofreniya kasalligida uchraydi; 6) ulug'vorlik va buyuklik vasvasasi – bunda bemorlar o'zlarini ulug' lashkarboshi, olim yoki kashfiyotchi, o'zini bir talay puli, tillasi bor odamday badavlat hisoblaydilar; 7) ziyon-zahmat

vasvasasi - bunda bemorlar meni o'g'ri urib ketadi, deb ishonishadi, shundan keyin bemorlar buyumlarini bekitib yurishadi. Natijada, bemorlarning xotirasi buzilib, yashirib qo'yilgan buyumlarining joyini topolmaydi. Natijada bemorlarda vasvasa kuchayib ketadi. Bunday bemorlar shifoxonada o'rin-to'shaklarini yig'ish tirib, tugun qilib, kimdir o'g'irlab ketishidan qo'rqib yuradilar; 8) o'z-o'zini ayblash vasvasasi - bemorlar o'zini jinoyatchi, deb hisoblaydilar. Jamiyatga, oilaga katta ziyon yetkazib qo'ydim, deb hisoblaydilar.

Aqli pastlik yoki tentaklik. Aqli pastlik yoki tentaklik tafakkurning buzilishi bo'lib, bunda odamning hodisalar o'rtasidagi boglanishni tushunish qobiliyati pasayib ketadi. Asosiy narsani ikkinchi darajali masaladan farq qila olmay qoladi. O'zining yurish-turishiga, fikrlariga tanqidiy baho berolmaydi. Xotira susayib, tafakkur qilish pasayib ketadi. Xulq-atvor ancha pasayib ketgan bo'ladi. Aqli pastlik ikki turga bo'ladi. 1. Tug'ma aqli pastlik (oligofreniya) – genetik o'zgarishlar tufayli bolaning ona qornida zararlanishi, go'daklik davrida kasal bo'lub qolishi natijasida bosh miyaning yetarlicha rivojlanmay qolishidan kelib chiqadi. 2. Turmushda orttirilgan aqli pastlik (demensiya) - katta yoshda bosh miyaning organik kasallikka uchrashi natijasida, bosh miyaning shikastlanishi, qarilik psixoz, bosh miya qon tomirlari aterosklerozi va boshqa kasalliklar sababli paydo bo'ladi. Bunday bemorlarning fikrlash doirasi past bo'lub, ular atrofdagi vaziyatga to'g'ri baho berolmaydi.

His-tuyg'uning buzilishi. His-tuyg'u fewo/szyqj - shodlanish, xursand bo'lub, nafratlanish, xafa bo'lub, qo'rquv g'azablanish kabi holatlardir. His-tuyg'u ikki turga bo'ladi. Salbiy va ijobiy his-tuyg'ular. His-tuyg'ularni to'ldirib-toshib namoyon qilish affekt deyiladi. Affekt vaqtida odamning es-hushi ham kirarlichiqarlichi bo'lub turadigan bo'ladi, buni patologik affekt deyiladi. Mana shunday holatda odam o'g'ri jinoyatlar qilib qo'yishi mumkin.

Bemorning mimikasi (yuzning imo-ishorasi) aytayotgan gapso'zlari, harakatlariga, moddalar almashinuvida ro'y bergan o'zgarishlarga, vegetativ reaksiyalarga qarab, his-tuyg'ular holati to'g'risida fikr yuritiladi. His-tuyg'ularda qondagi qand miqdori oshadi, qonning yopishqoqligi o'zgarib qoladi, ichki a'zolarining qon tomirlari kengayadi yoki torayadi, yurak urishi tezlashadi. His-tuyg'u po'stloqosti tugunlari bilan idora qilinadi. Turli ruhiy kasalliklarda his-tuyg'uning kuchayishi yoki sekinlashuvi kuzatiladi. Eyforiya, depressiya, hayajonlanish, vahimaga tushish holatlari kuchaygan his-tuyg'ularga kiradi. Beparvolik, g'amginlik, loqaydlik emotsiyaning sekinlashuviga kiradi. Eyforiyada odamning kayfiyati yaxshi, har doim kulib, quvnabshodlanib, har narsadan ko'ngli to'ldirib yuradi. Depressiyada esa bemor ko'ngli g'am-gbussaga botgan, harakatlari sustlashib qolgan, hamma narsalardan xafa bo'lub, kayfiyati yomonlashib yuradi. Bular maniakal-depressiv psixoz kasalligida uchraydi.

18- MAVZU. Bolalar psixikasining buzilishi.

Iroda faoliyatining buzilishi. O dam ning ongli ravishda va m a'lum bir m aqsad bilan qiladigan xatti-harakatlari irodaga zo'r berishdir. R uhiy kasallarda irodaning buzilishi ikki turga boMinadi. Bular: iroda (harakat) faoliyatining kuchayishi va susayishi. M aniakal holatda iroda faolligining kuchayishi, asosan, nutq va harakat qo'zg'alishi bilan nam oyon boMadi. Bunda bem orlar ongli ravishda ko'p ishlarni am alga oshirishga harakat qiladilar, lekin bularni bajarishga jism oniy kuchlari yetm aydi.

Nutq va harakat qobzg'alishlari shizofreniyada ham kuzatiladi. M aniakal-depressiv psixozning depressiv shaklida iroda faolligi sekinlashadi. Bunda bem orlar bir necha soatlab bir m arom da oMiradilar, hech narsa bilan ishlari boMmaydi. B em orlar suhbat vaqtida asta-sekin qisqa ju m lalar bilan javob berishadi. Iroda faolligining pasayib qolishi bosh m iyaning organik kasalliklarida uchraydi (bosh m iya o'sm asi, bosh m iya aterosklerozi va boshq.). Iroda faolligining susayishi stupor deb ataladi. Bunda harakat va nutqning sekinlashuvi, hatto tildan qolish (mutizm) darajasiga boradi. Bunda bem or topshiriqlarni um um an bajarm aydi, ularni eshitishni ham istam aydi (m asalan, bem or qoMini koMarib qotib tu rad i, to m ushaklar bo'shashib o'zi tushib ketm aguncha). Iroda buzilishlari nevrasteniya va shizofreniya kasalliklarida uchraydi.

M arazm - ruhiy va jism oniy kuch-quvvatdan qolish (ma'naviy tushkunlik), aql kamayishi, tashqi muhit bilan bogManish xususiyatlarining yo'qolishi, o'z-o'ziga xizm at ko'rsata olmaslik, so'zlashish, intilish va tushunchalarning yo'qolishi bilan kechadigan ogMr bir ahvol. Rivojlangan turlarida aql shunday darajada kamayadiki, hatto bem orlar oq-qorani, toza-iflosni, yaqin va uzoq tanishlarini ajratib ololmaydilar, ochko'z, uyatsiz boMib qoladilar. Bemorlarda tashqi va ichki a'zolarida ham o'zgarishlar kuzatiladi, suyaklar mo'rt boMib qoladi, terida yaralar paydo boMadi.

Ruhiy kasalliklarning asosiy sindromlari

Es-hushning buzilishi. Ong bosh miya po'stlogMning eng zo'r faolligi natijasidir. Ongi sogMom kishilar atrof-muhitni va o'z xattiharakatlarini, vaqtni to'g'ri baholaydilar.

1. K araxtlik holati. Karaxtlik (gangib qolish) holatida bosh miyapo'stlogMning tormozlanishi natijasida atrofdagi ta'sirlarga kuchsiz javob reaksiyasi paydo boMadi. Javob olish uchun esa ancha kuchli ta'sir oMkazish kerak yoki savolni bir necha marta qaytarish kerak. Bemor bunda sust javob beradi, harakatlari, imo-ishoralari kam boiadi. Oldingi b o lib o'tgan voqealarni qiynalib esga oladi, qisqaqisqa gapiradi. K araxtlik holati bir necha daqiqadan bir necha soatgacha va bundan ham uzoqroq cho'zilishi mum kin. Karaxtlik holati bosh miya shikastlanganida, miya o'smasida, uremiya, qandli diabet, zotiljam, tif va boshqa kasalliklarda uchraydi. M ana shu holat o'tib ketganidan keyin bemorlar o'zlariga nim a bolganligi to'g'risida qisqacha so'zlab berishlari mumkin.

2. Dovdirash alomati (sopor), bunda bem orning es-hushi kirarlichiqarlib o lib turadi va bu alomat birdan paydo b o lib , birdan barham topadi. Bu ongning torayib qolishi bilan cheklanadi. Bemorlar o'zlari turgan sharoitga beparvo b oiad i lar, chaqirgan

odamga javob bermaydilar, og‘riqlarga kuchsiz javob beradilar. Esning kirar-chiqar b o lib turishi bir necha daqiqadan bir necha kungacha va hatto bir necha haftagacha davom etishi mumkin. Bunda bemorlar nima bolganligini aytib berolmaydilar. Bu holat tutqanoq, isteriya va bosh miya shikastlanishida kuzatiladi.

3. **Delirioz holati**, bunda bosh miya po‘stlog‘ida to liq bolm agan tormozlanish boiadi. Bemorlar besaranjom b o lib qoladilar. Bu holatda es-hush aynib, gallutsinatsiya va illuziyalar aralash b o lib turadi. Bemorning ko‘ziga vahimali manzaralar ko‘rinadi, atrofdagi narsalarni tanimaydi. Delirioz holatidan so‘ng bemorlar ko‘rgan i.arsalarining ayrim larini eslaydilar. Delirioz holati bir necha soatdan bir necha kungacha davom etadi, bu holat kechgga borib zo‘rayadi. Es-hushning delirioz holati turli yuqumli kasalliklarda, shikastlanishlarda va zaharlanishlarda kuzatiladi.

4. **Oneyroid holati**, bunda es-hush buzilib, odam xayolga botgandek yoki tush ko‘rayotgandek b o lib qoladi. Delirioz holatidan farq qilib, bu holatda bem orlarning kechinmalari bilan yurishturishlari o‘rtasida boglanish bolm aydi. Bemorlar o‘zlarini boshqa sayyoralarda, boshqa dunyoda yurgandek his qiladilar. O ‘zlarini bir vaqtning o‘zida bir necha joyda his qiladilar. Bemorning o‘zi xonada yotgan b o isa ham men A m erikada yuribm an, deb boshqalarni ishontiradi. Bemor o‘rniga yotishdan bosh tortadi, qarshilik qiladi. Bu holat bir hafta va bir necha oygacha davom etishi m um kin. Bu holat shizofreniya kasalligida kuzatiladi. 5. Amentiv holat, bunda bemor atrofdagi vaziyatni mutlaqo anglamaydi, o‘zining kim ligini bilmaydi. Bosh miya po‘stlog‘ida qo‘zg‘alish va tormozlanish jarayonlarining izdan chiqishi oqibatida amentiv holat yuz beradi. Bu holat bir necha haftagacha cho‘ziladi, u o‘tib ketgandan keyin to‘la amneziya kuzatiladi. Bu holat turli yuqumli kasalliklarda, zaharlanish va asab tizimi qattiq holdan toygan vaqtlarda kuzatiladi.

6. **Komatoz holati**, bunda bemor behush bo‘lib, savollarga mutlaqo javob bermaydi, og‘riq ta’sirlariga javob reaksiyasi bo‘lmaydi. Ko‘z qorachiqqlari kengaygan, yorug‘likka reaksiyasi bo‘lmaydi. Bu holat bosh miya po‘stlog‘ining chuqur tormozlanishi natijasida paydo bo‘ladi.

Harakatning buzilishi.

- bemorlar harakat qilmasdan, bir joyda qotib qolishadi. Stupor quyidagi turlarga boiinadi: A. **Depressiv stupor** – bu maniakal-depressiv psixozning depressiv shaklida kuzatiladi. Bemorlar biror ish yoki harakatni bajara olmaydigan boMib qoladilar, savollarga qiyinchilik bilan javob berishadi. Bunday bemorlarga ovqat yedirib qo‘yishga to‘g‘ri keladi. Bemor yuzida g‘amginlik, xafachilik, ma’yuslik ifodasi bo‘ladi, bu holat yurak siqilishi bilan almashinib turadi.

B. **Psixogen stupor**, bunda bem orlar qimirlamay, indamasdan o‘tiradilar; uzoq vaqt hech kim bilan gaplashmasdan, savollarga javob berm asdan jim yuradilar. Bemor stuporni keltirib chiqargan so‘zlarni eshitib qolsa, unda kuchli emotsional holat: kuchli hayajonlanish, yigMash, qizarish yoki oqarish alomatlari yuz beradi.

D. **Katatonik stupor**, bu shizofreniya kasalligida uchraydi. Bunda bemorlar mutlaqo qimirlamay qo‘yishadi, ba’zi hollarda mushaklar tonusi pasayadi. Bunga bo'shang stupor deyiladi. Bemor tanasiga biror holat berib qo‘yilsa, shu holatda uzoq vaqt qotib turaveradi, buni o‘zgartirish qiyin boMadi. Bemorlar stupor vaqtida ovqat yemay qo‘yadilar, shuning uchun ham shiralar bemorga zond orqali ovqat berib

turishlari kerak. Stupor bosh miya po'stlog'ining harakatlantiruvchi bo'lim larida miyaning po'stloqosti va miya ustunida tormozlanish oqibatida paydo bo'ladi. Harakat-qo'zg'alib turuvchi holatlar uch turga bo'linadi:

A. Maniakal qo'zg'alishda bemor tinim ay harakat qiladi. Bunda bemorning xatti-harakatlari ma'lum maqsadga qaratilgan bo'lsada, lekin ularning diqqat-e'tibori hamisha chalg'inyveradi; bemorlar bironta ham ishni oxirigacha yetkaza olmaydilar, ular juda ko'p va tez gapirishadi, ayrim so'z va jumalarni tushirib qoldirishadi. Bemorlarning juda ko'p gapirishi natijasida ovozi bo'g'ilib qoladi. Atrofdagi kishilarga doimo barxil savollar va takliflar bilan murojaat qilishadi. Bu holat maniakal-depressiv psixozda kuzatiladi.

B. Katatonik qo'zg'alishda bemorlar hech bir maqsadsiz harakat qiladilar, harakatlari bir xil, ularni nima maqsadda qilayotganini tushunib bo'lmaydi. Masalan, bemor oyoqlarini mutlaqo qimirlatmagani holda qo'llari bilan harakat qilib, aftini burib turaveradi, ayrim so'zlarni baqirib-chaqirib aytadi. Bemorning gaplari ma'nosiz bo'ladi. Bu holat shizofreniya kasalligida uchraydi.

D. Gebefren qo'zg'alish, bunda bemor har xil qiliqlar qilib, aftini burishtiradi, o'zidan o'zi kulaveradi, gaplarining ko'pi safsata iborat bo'lib, so'zlarni buzib gapiradi. Bu holat shizofreniya kasalligida kuzatiladi. His-tuyg'ucuning buzilishi. His-tuyg'u (emotsiya) buzilishi uch turga bo'linadi:

1. **Maniakal holatida** bemorlar kayflari chog'ib yuradilar, doimo xushchaqchaq, xursand, o'zlaridan o'zlari mamnun bo'ladi. Bemorlar o'zlariga yuqori baho berib yuboradilar, har qanday ishlarni yengil va oson deb bilishadi. Tasavvurlar tez-tez almashinib turadi. Bemorlar qo'zg'alish holatida juda kam uxlashadi, shu bilan birga, charchoqni sezishmaydi, serharakat bo'ladi qolishadi. His-tuyg'uning shunday yengil darajada buzilishi gipomaniakal alomat deyiladi. Bu holat maniakal-depressiv psixoz kasalligida uchraydi.

2. **Depressiv alomatda** bemorlarning harakatlari kam, nutqi sekin, sust bo'ladi, dunyo ko'ziga qorong'u bo'ladi ko'rinadi. Bunday holatda bemorlarda o'zini o'zi ayblash fikrlari paydo bo'ladi, ovqat yeyishdan bosh tortib, yaxshi uxlay olmaydilar. Bunday bemorlar o'zini o'ldirishgacha yetib boradi. Depressiv alomatda g'amginlik holati ertalab kuchli bo'ladi, kechqurun bemorlarning ahvoli biroz yaxshilanadi.

3. Xavotirga soladigan depressiv alomat - bemorlarda ma'yuslik ustiga qanday bo'lsam biror falokatni kutib, xavotirga tushish qo'shiladi. Bemor besaranjom bo'ladi, hadeb gapiraveradi. Biror ish bilan shug'ullana olmaydi, ovqat yemay qo'yadi, uxlay olmaydi. Bunday bemorlar xavotirga tushib, o'z-o'zini o'ldirishgacha yetib boradi. Bu holat presenil psixoz kasalligida kuzatiladi.

Talvasa alomatlari. Talvasa xuruji 2 xil bo'ladi:

1. Epilepsiya (quyonchiq) talvasalari - bunday talvasa epileptic tutqanoq deb ataladi. Boshqa kasalliklar - bosh miya jarohatlari, bosh miya qon tomir aterosklerozi, bolalar bosh miya falajligi, miya zaxmida kuzatiladigan tutqanoqlar - epileptiform tutqanoq yoki epileptik turdagi tutqanoq deb ataladi. Epilepsiya tutqanoqi va epileptiform tutqanoq xuruji tutib qolgan vaqtda bemor to'satdan o'zidan ketib, yiqilib tushadi, rangi oqarib, so'ngra ko'karadi. Bemor birdan hushidan ketadi va tonik, keyin klonik qaltirash xuruji boshlanadi. Bunda bemorning butun tanasidagi mushaklar vaqt-vaqti bilan qisqarib-bo'shashib turadi. Tonik talvasada mushaklar

uzoq tortishsa, klonik talvasada esa mushaklar vaqt-vaqti bilan qisqarib, bo'shashib turaveradi. Bemordagi bu holat - tonik talvasa 30-40 soniyadan so'ng, klonik talvasa bilan almashinadi. Klonik talvasa daqiqa davom etadi va shu bilan tutqanoq xuruji tugaydi. Shundan so'ng bemor uxlab qoladi yoki karaxt bo'Mib, qayerda yotgani, nima bo'lganligini anglab yetmaydi. Bunda bemorlarning asab tizimini tekshirib ko'rganim izda ko'z qorachiqklarining yorugMikka javob reaksiyasi bo'Mmaydi, reflekslar yo'qoladi. Bemorlar tutqanoq xuruji vaqtida yiqilib, har xil shikastlanishlar olishi mumkin.

2. Isterik talvasa lar - bu bem orlar biror tashqi ta'sirga uchrashi natijasida kelib chiqadi. Bu tutqanoq epilepsiya tutqanogMga qaraganda sekinroq bo'Madi. Bemor xuruj paytida qulay joyga yiqiladi. Bunda bem orning hech yeri shikastlanm asdan, es-hushini batamom yo'qotm asdan yiqiladi. Bemorlarni tekshirganim izda ko'z qorachigM yorugMikka javob beradi, reflekslar chaqiriladi. Bunday xuruj soatlab davom etishi m um kin, epilepsiya xuruji uzoq davom etmaydi. Isterik talvasada epileptik tutqanoqdagi kabi oldin tonik, keyin klonik tortishishlar bo'Mmaydi. Ba'zan ongi torayadi, lekin isteriya xurujida bem or atrofdagilar diqqat-e'tiborini sezsa, isteriya **uzoq vaqtgacha cho'zilishi mumkin.**

Korsakov (amnestik yoki xotiraning buzilishi) alomati, bemorlarda oMMishdagi hodisalar xotirada saqlanib qolgani holda, hozir bo'Mib turgan hodisalarning esdan chiqib qolishi bilan xarakterlanadi. Bemorning xotirasi pasayib ketadi, bugun nim a ovqat yegani, kim bilan uchrashganini mutlaqo eslay olmaydi. Berilgan savollarga javob qaytarmaydi, eshitgan savollarini tez unutadi. Bunda bemorlar bir necha daqiqa nima ish qilib turganini esdan chiqarib qo'yishadi. Bu alomat bosh miya aterosklerozi, qarilik psixozi, bosh miya shikastlanishi, yuqum li kasalliklar va zaharlanishlarda kuzatiladi.

Gallutsinator-paranoid alomat, bunda bemorlarda gallutsinatsiya va vasvasalar bo'Mib turadi. Bemorlar ko'pincha kim dir ularni ta'qib qilayotganini, ularga ta'sir ko'rsatayotganini aytishadi. Masalan, bemor devor orqasida boshqa odam lar uni o'ldirish rejasi to'g'risida gapirayotganini eshitadi. Ba'zan bemorlar bundan qochishga urinishadi, eshiklarni bekitib olishadi, boshqalarni yordamga baqirib chaqirishadi. Bu holat shizofreniya, alkohol psixozlari, bosh miya zaxmi va boshqa kasalliklarda uchraydi.

Aqli pastlik (tentaklik, esi pastlik) alomati, bunda bemorlarda aqliy qobiliyatning pasayishi, xotiraning susayishi kuzatiladi.

Bemorlar yangi ma'lumotlarni qabul qila olmaydilar, eskilarini esa unutib yuboradilar. Zehn va farosat juda pasayib ketadi. Bemorlar oddiy turm ush masalalarini ham yecha olmaydilar. Mana shular tufayli ularning yurish-turishi va qiliqlari bem a'ni bo'lib qoladi. Bular bosh miyaning organik kasalliklarida uchraydi. Nevrasteniya alomati (nevrotik, astenik) - bunda bemorlar tashqi ta'sirlardan juda bo'shashib, holdan toyadigan bo1 lib qolishadi. Tashqi ta'sirlar (ovoz, yorug'lik, issiq-sovuq)ga ortiqcha sezuvchanlik, har qanday hodisalardan ta'sirlanish (xafachilik yoki xursand bo'lish), jismoniy toliqish oqibatida paydo bo'Madi. Bu holatga tushgan bemorlar tajang, betoqat, tez charchab qolish, xotiraning susayishi, asabiylashish, jismoniy toliqish, ish va aqlning pasayishi va ruhiyatning tez-tez o'zgarib turishi bilan xarakterlanadi. Bunda bemorning uyquasi buzilib turadi, tezda uxlay olmaydi,

barvaqt uygʻonib ketadi; bemorning uyquasi yuzaki, uyqudan keyin odam oʻzini dam olgandek sezmaydi. Kunduz kunlari bemor boʻshashib, mudrab yuradi. Bunda bemorda bosh ogʻrishi, saiga terlash, holsizlik, ishtahaning yoʻqolishi kuzatiladi. Bu holat yuqumli kasalliklar, turli xil zaharlanishlardan soʻng va bosh miya aterosklerozi, shizofreniya,

surunkali kasalliklar hamda nevrasteniyada kuzatiladi. Ipoxondrik (miyadan ketmaydigan) alomatlar, bunda bemorlar oʻz salomatligining ahvolidan xavotirlanib, oʻzlaridagi yoʻq kasalliklarni topib, davolanmasam, oʻlib qolaman, deb oʻylashadi.

Bemorlar koʻpincha qorin va yuragi ogʻrib turishidan noliydi va kayfiyati buzilib yuradi. Shifokor siz sogiom siz, hech qanday kasalligingiz yoʻq, deb aytsa ham ular ishonishmaydi yoki boshqa shifokorga borib uchrashadi. Ular bu kasallik toʻgʻrisida turli xil kitoblarni oʻqib chiqishadi. Miyadan ketmaydigan oʻrinsiz shubha, xavotir va qoʻrqinchli fikrlar - dismorfofobiya deb ataladi. Isteriya alomati, bunda bemorlar qattiq ovoz bilan yigʻlab yoki kulib, atrofdagilar diqqatini tortishga harakat qiladilar. Bu holat tezlik bilan ikkinchi bir holatga oʻtib turadi. Bemorlar oʻzlarining xatti-harakatlarida

aql-idrok bilan ish koʻrmay, balki his-tuygʻulariga qarab ish koʻrishadi. Bemorlar oʻzlariga koʻproq eʼtibor berish, atrofdagilardan ajralib turish va koʻzga tashlanishga harakat qiladilar. Bunday bemorlar xomxayol boʻlishga moyil boʻlishadi. Tashqi taʼsirlar tufayli talvasa xurujlari tutib turishi mumkin. Bu holat kalla bosh miya jarohatlarida, shizofreniya va zaharlanishlardan keyin kuzatiladi. Bu alomat bosh miya poʻstloqosti sohasining zaiflashuvi natijasida kelib chiqadi.

Kandinskiy-Klerambo alomati (ruhiy avtomatizm, tashqi taʼsir, yotsirash, qamrab olish alomatlari) - oʻz shaxsiy ruhiy jarayonlarining oʻzligiga yoki oʻz shaxsiga tegishlilikning yoʻqolishi. Ruhiy va jismoniy taʼsir vasvasalari bilan birga namoyon boʻladi. Ruhiy avtomatizm 3 turga boʻlinadi: assotsiativ - bu turga mentizm

- boshqarib boʻlmaydigan, ixtiyordan tashqari sodir boʻladigan fikrlar, oʻylar, xayollarning betoʻxtov oqishi mansubdir. Xayollar, fikrlar mazmuni juda ogʻir boʻlib, ulardan bemorlar qutula olmaydilar, xayol va fikrlarni miyada yigʻib olmaydilar. Baʼzan bemorlar koʻz oldiga har xil xayollarni keltirib, xuddi koʻrib turgandek boʻladilar.

Bu fikran koʻrinishlarning mazmuni oʻylangan xayollar mazmuniga mos keladi: fikr ochiqlik belgisi - bemorga atrofdagi odamlar uning fikrlarini boʻlayotgandek tuyuladi; fikrlar jarangdorligi belgisi - bunda bemorning fikrlari ichki nutqqa aylanadi. Bemorning xayol, fikrlari baland tovush bilan chiqayotganday boʻlib, bemorga atrofdagilar

ularni eshitayotganday tuyuladi.

Mayl buzilishlari. Mayl instinktiv (tugʻma his-tuygʻu)lar asosida paydo boʻladi va shakllanadi. Instinktiv xulq (ovqat qidirish, tashnalikni qondirish, jinsiy juft qidirish) va instinktiv harakatlar (ovqatlanish, ichish, jinsiy aloqalar) tafovut qilinadi. Faqat instinktiv harakatlar, yaʼni tugallash aktlari instinktiv hisoblanadi.

Mayl buzilishlari muhim sharoitlarni istashga va ulardan qochishga undaydigan holat boʻlib, u shu sharoitlarda instinktiv harakat bilan yuzaga chiqqan olishi mumkin. Mayl qandaydir bir tugʻma holat emas. Mayl vaqt-vaqti bilan paydo boʻladi va yoʻqoladi. Maylning belgilari shakli har xil va koʻpincha maylning qondirish

tabiatiga bog'liq bo'ladi. Asosiy mayl - ochlik, tashnalik, jinsiy mayl. Eng oddiy ehtiyojlar: uyquga, harakatga bo'lgan ehtiyojlar va boshqalar. Mayl buzilishlari turli-tuman bo'lib, ayniqsa, ovqatga bo'lgan mayl buzilishlari ko'proq uchraydi. Ishthaning turg'un bo'lganligi ovqatdan bosh tortish bilan kechadi, bu maylning susayishi bemorni juda holdan toydiradi, bunga anoreksiya deyiladi. Ovqatdan butunlay bosh tortishda zaharlanish vasvasa g'oyalari yoki shu ovqat yeb bo'lmaydigan mahsulotlardan tayyorlangan, deb ishonch hosil qilishlari mumkin. Ovqatdan bosh tortish depressiv holatlarda stupor, isteriyaning har xil turlarida uchraydi. Shuni e'tiborga olish kerakki, ko'p hollarda anoreksiya himoya qiluvchi fiziologik holat bo'lib, organizm uning yordamida kasalliklarga moslashadi va uni yengadi.

19- Mavzu. Turli kasalliklarda uchraydigan psixik buzilishlar

Epilepsiya (*epilambano* - ushlab olaman) - tutqanoq yoki quyonchiq - surunkali kasallik bo'lib, m ushaklar tortishi va tortishuvisiz qaytarilib turuvchi hamda bemorning shaxsiyati o'zgarib borishi bilan kechadigan kasallik. Kasallikning kelib chiqish sabablari juda ko'p va xilma-xildir. 1. Neyroinfeksiyalar (gripp, brutselloz, revmatizm, sistoserkoz, exinokokk, glistlar). 2. Bosh miyaning turli xil yalligianishlari (meningit, leptomeningit, ensefalit). 3. Bosh miyaning yopiq jarohatlari (tug'uruqdagi jarohatlar, asfiksiya). 4. Bosh miyaning qon tomir kasalliklari (ateroskleroz, xafaqon kasalligi, voskulitlar). 5. Turli xil zaharlanishlar va alkogolizm. 6. Bosh miyada qon aylanishining buzilishlari (insultlar). 7. Bolalarda surunkali tonzillit va turli xil bosh miyaning organik kasalliklari (bolalar serebral falajligi). 8. Irsiy-degenerativ kasalliklar va bosh miya o'smalari va h. k. Epilepsiya boiishi uchun, asosan, epileptik o'choq va epileptogen manba boiishi kerak. Epileptik o'choq deb miya tizimidagi cheklangan o'zgarishlarga aytiladi. U atrofdagi neyronlarning kasallikka qo'zg'alishiga sabab boiadi. Natijada bu neyronlar o'zidan fokal epileptik kuchlanish chiqara boshlaydi. Epileptik o'choqdagi ko'plab neyronlarning qo'zg'alishi oqibatida shunday razryadlar rivojlanadi.

Bu holat EEGda «tig'» shakldagi tolqinlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Epilepsiyada bosh miyada glioz to'qimalar ko'payadi, bulardan chandiqlar hosil bo'ladi. Epilepsiya bilan og'rigan bemorlarda moddalar almashinuvi buziladi (oqsil-azot, suv-tuz, uglevod almashinuvi), tutqanoq oldidan asetilxolin moddasi miqdorining oshishi kuzatiladi.

Klinik manzarasi 4 bosqichda kechadi: 1. Aura. 2. Tonik tortishish. 3. Klonik tortishish. 4. Uyqu holati.

Aura (grekcha - *shamol* degani) tutqanoq xurujining xabarchisidir. Aura har doim hushning yo'qolishidan oldin keladi. Aura har xil ko'rinishda paydo bo'ladi. Bularga oshqozon atrofidagi yoqimsiz hislar, ko'ngil aynishi, bu hislar tananing yuqori qismiga ko'chib, bosh miyaga ta'sir qiladi. Natijada, bemor hushdan ketadi. Ba'zi bemorlarda ko'z qorachig'ining torayib-kengayib turishi, terisida uvishish, isib ketishi, qorin-ichaklarda og'riq, eshitish va ko'rishning pasayishi, gallutsinatsiyalar, bosh aylanishi, muvozanatning buzilishi, qattiq qichqirib yuborish holatlari kuzatiladi. Aura bir xilligi va qisqa vaqtligi bilan xarakterlanadi hamda har bir bemorda o'zining aurasi bo'ladi. Auradan so'ng xuruj tonik tortishishga o'tadi, bunda bemor boshida baqiradi, nafas olish to'xtaydi, yuzi oqaradi, keyin ko'karib ketadi. Bosh yonga, orqaga tashlanadi, ko'zlar ham yon tarafga yjki tepaga qaratilgan bo'lib, ko'z qorachig'ini kengayib, yorug'likka javob bermaydi. Bo'yin tomirlari shishgan, jag' qattiq qisilgan, lab burchagida ko'pik, ba'zida qon keladi, qoM-oyoqlar katta bo'lganlardan yozilib, qoM panjalari siqilgan bo'ladi. Ixtiyorsiz ravishda siydik va najasni chiqarib yuboradi. Tonik qaltirashdan keyin klonik qaltirashga o'tadi. Bunda bosh, qoM va oyoqlar qaltirab, tana zarb bilan yonga va orqaga uriladi. Kasai yana chuqur nafas ola boshlaydi, ko'karish kamayadi, terlaydi. Bu bosqich 30 soniyadan 5 daqiqagacha davom etadi. Klonik qaltirashdan so'ng bemor uyquga ketadi. Bemor uyqudan turgandan so'ng o'zini og'ir ish qilgandek yomon sezadi. Ba'zan tutqanoq ketma-ket boshlanib, bir necha kungacha davom etishi mumkin. Bunday tutqanoq tutishiga *epileptik status* deyiladi.

Epileptik statusda talvasa xurujlari har 10-30 daqiqa davomida takrorlanib turish bilan kechadi. Status bir necha soatgacha davom etishi mumkin. Bunda klonik va tonik tirishishlar bilan birga, nafas olish a'zolari va yurak faoliyatida buzilishlar boMib, miya shishishiga olib keladi. Tonik tirishishda yuz, qoM va oyoqlar, tana mushaklarida tortishish, ko'z olmasi yon tomonga va yuqoriga qaragan, qorachiqalar kengaygan boMadi. M ushaklarning qattiq tortishuvi natijasida bem orning qo'l-oyoqlarini to'g'rilashning hech iloji boMmaydi. Tonik tirishish 30 -60 soniya davom etadi. Keyin klonik tirishish ko'proq q o i va yuz mushaklarida kuzatiladi. Pastki jag' m ushaklarining ritmik qisqarishi natijasida bem orning og'zi ochilib-yopilab turadi. Bunda bemor tilini tishlab olishi mumkin. Bemor og'zidan so'lak bilan birga qon aralash ko'pik keladi. Q oilar ham bukilib-yozilib turadi. Klonik tirishish asta-sekin pasayib, keyin um um an to'xtaydi. Klonik tirishishda qorin mushaklari va siydik pufagi sfinkterining asab bilan ta'minlanishi buzilishi natijasida bemorda ixtiyorsiz siyib yuborish va axlat chiqarish holatlari kuzatiladi. Bemorning terisi ko'kargan, vena qon tomirlari shishgan, tom ir urishi sekinlashgan boMadi.

K ichik epileptik tutqanoqlar. Absans - birdaniga va qisqa (2-5 soniya) vaqtda hushdan ketish bilan kechadi. Hushdan ketish m a'nosiz boqish, faoliyatning buzilishi va vegetativ alomatlar bilan oMadi. Xuruj paytida bem or yiqilmaydi va bir joyda ko'zi qimirlamay, ko'rga o'xshab qotib qoladi. Xuruj birdan boshlanib birdan to'xtaydi. Bu xuruj *oddiy absans* deb ataladi. Ba'zi bemorlarda absans m ushaklar tonusi o'zgarishi (yuz, bo'yin, qoM m ushaklarining tortishuvi) va chuqur vegetativ buzilishlar bilan

davom etadi, bunda *murakkab absans* kuzatiladi.

Epilepsiyada ruhiy o'zgarishlar kuzatiladi. Bunda bem orning kayfiyati yaxshi, shirinso'z, yurish-turishida, oilada saranjomsarishta boMib yurishadi, qo'ygan narsalarini kim dir buzsa, darrov

janjal qiladilar. Ba'zi bem orlar esa ju da ham qo'pol, o'zining gapini .oMkazadigan, boshqalar bilan kelishmaydigan boMadi. Tashxis qo'yishda ko'proq EEG dan foydalaniladi, bunda epilepsiyaga xos

«tig'» toMqinlar paydo boladi.

Bosh miya jarohatida uchraydigan ruhiy ozgarishlar

Bosh miya jarohati deganda kalla suyagi, miya pardalari, uning qobig'i, miya moddalari va qon tom irlarining tashqi kuch ta'sirida jarohatlanishi tushuniladi. Asosan, yopiq va ochiq jarohatlar boladi.

Yopiq bosh miya jarohatida miya bo'shlig'i butunligi buzilmaydi, miya moddasiga tashqi muhit ta'sir qilmaydi. M iyaning yumshoq qavati (teridan apanevrozgacha) butun boMadi. Bosh miyaning

ochiq jarohatida miya bo'shligM tashqi muhit ta'siriga uchraydi. Bunda miya jarohati kuzatilib, jarohat miya moddasiga kirib boradi. Miyaning yumshoq qavati aponevrozi, suyaklar sinishi kuzatiladi, miyaning qattiq qobigM va miya moddasi zarar ko'radi. Tashqi kuchning miyaga ta'siri natijasida miya chayqaladi, lat yeydi va eziladi. Miya jarohatining rivojlanishida, asosan, to'rtta davr boMadi:

1. BoshlangMch yoki o'ta oMkir davr. 2. OMkir davr. 3. Tiklanish yoki tuzalish davri. 4. Kechki asoratlar yoki surunkali davr. Ruhiiy o'zgarishlar shu toMtta davrga asoslangan boMadi. B o s h l a n g ' i c h d a v r d a g i ruhiiy o'zgarishlar hushning buzilishi, karaxtlik, sopor, koma, somnolensiya koMinishida

boMadi. Miya jarohatidagi oMkir psixozlar tashqi ta'sirdan so'ng boshlangMch yoki oMkir davrda paydo boMadi. O 'rtacha yoki cho'zilgan psixozlar jarohatdan keyin bir-ikki oy oMgach va bir yil davom ida rivojlanadi. Kechki asoratlar davrida ruhiiy o'zgarishlar bir necha yil oMgandan keyin paydo boMadi.

O 't k i r d a v r n i n g ruhiiy o'zgarishlari bosh m iyada qon aylanishining buzilishi, kislorod yetishmasligi natijasida paydo bo'ladi. Bunda qon tom irlarning o'tkazuvchanligi oshadi va miya shishiga olib keladi. Ruhiiy o'zgarishlar sinapslar o'tkazuvchanligi, mediatorlar almashinishi, retikular va gipotalamus ishining buzilishiga bog'liq.

K e c h k i a s o r a t l a r davridagi ruhiiy o'zgarishlar bosh miya jarohatining og'irligiga, bem orning yoshi, kasallikdan oldingi xulqatvoriga bog'liq boMadi. Bunda orqa miya suyuqligining o'zgarishi

katta ta'sir qiladi. BoshlangMch va oMkir davrdagi ruhiiy o'zgarishlar miya jarohatlanganda hushning yo'qolishi bilan ifodalanadi. Faqat yengil miya chayqalishida hushning bulutsimon ko'rinishi paydo

boMadi. Qolgan turlarida es-hushning o'zgarishi koma holatigacha boradi. Bemor hushiga kelganidan so'ng oMkir davr boshlanadi. Unda xotiraning yo'qolishi kuzatiladi, retrograd am neziyada bemor

hushdan ketishdan oldingi voqea va hodisalarni eslay olmaydi. Antegrad am neziyadan keyin bemor boMgan voqealarni eslay olmaydi. OMkir davrida asteniya belgilari ham uchraydi. Miya chayqalishida quyidagi vestibular o'zgarishlar kuzatiladi: bosh aylanishi, ko'ngil aynishi, qusish, asab tizim idagi o'zgarishlarda nistagm, konvergensiyaning susayishi, pay reflekslarining oshishi, m ushaklarning bo'shashishi, vegetativ o'zgarishlar: qon tom irishining buzilishi, tom ir urishining sekinlashishi, qon bosimining o'zgarishi, terlash, ko'karib ketish, haroratning oshishi, yuzning qizarib ketish belgilari. Miya lat yeyishida falajlik, sezgining yo'qolishi yoki kamayishi kuzatilishi mumkin. Yuzning bir tomonga qiyshayib qolishi, eshitish, koMish, ko'z harakatlarining buzilishi ham da meningial belgilar paydo boMadi. Miya lat yeganida miyaga va miya bo'shliqlariga qon quyiladi. Bu miyaning qisilib qolishiga olib keladi. Miya jarohatidagi oMkir davr bir-ikki oy davom etadi. OMkir davrdagi psixozlar dastlabki kunlarda yoki bir-ikki hafta ichida hushning o'ziga kelishi bilan boshlanadi. Bunda turli qo'zg'alishlar, allutsinatsiya, vasvasalar boMib turadi.

D e l i r i y - koMish gallutsinatsiyalarida bem orning ko'ziga qoMquv, vahim alar koMinadi. O n e y r o i d d a bemorlar o'zini fazoda uchayotgandek sezadi lar. K o r s a k o v alomatida xotira susayadi.

Amneziyalar, konfabulatsiya, affekt o'zgarishlari kuzatiladi. Affekt alomatida bemorlar ko'zlari ochiq holda qimirlamasdan yotadilar, atrofga befarq qarab, gapirmaydilar, himoya refleksleri yo'qolgan, hech narsa bajarmaydilar. Bemorlarda siydik va axlat tutilmaydi, yutinish saqlangan, uyqu kecha-kunduzga bogMiq boNmaydi. Bunday hollarda bemorlar tezda o'lib qolishlari mumkin.

A k i n e t i k m u t i z m d a harakatsizlik va gapirm aslik holatlari namoyon boMadi. Bunda ko'zlardagi harakatlar saqlangan, lekin ular berilgan savollarga javob bermaydilar. Kasallikning oMkir yoki kechki davrida paydo boMgan ruhiy o'zgarishlar uzoq vaqt davom etishi mumkin. Astenik holatda qo'zg'aluvchanlik, holdan toyish, tez jahli chiqish, chidamsizlik, ish qobiliyatining pasayishi, xafa boMish belgilari kuzatiladi. Bemorlarda bosh og'rigM, bosh aylanishi, uyqusizlik holatlari namoyon boMadi.

Bemorlar ahvoli ob-havoga, issiq-sovuqning almashinuviga, charchoqqa, havo bosimining o'zgarishiga va boshqa kasalliklarning qo'shilishiga bogMiq boMadi. Psixopatsimon o'zgarishlar astenik hamda isterik holatlar bilan birga kechadi. Bu holat 10-20 yilgacha saqlanib qoladi. Bunda kayfiyatning pasayishi, ko'zyosh qilish, tezda xafa boMish, o'z sogMigM haqida xavotirlanish belgilari namoyon boMadi. Asab sohasidagi o'zgarishlar kam rivojlangan boMadi.

Davosi. Kasallikning o'ta oMkir va oMkir davrida davolash jarohatning ogMrligiga bogMiq. Bemor bir hafta o^rnidan turm asdan yotishi kerak. Ikki hafta shifoxonada davolanishi lozim. Bosh m iyaning yopiq jarohatlarida bem orlar asab kasalliklari boMimida davolanishlari, agar ruhiy o'zgarishlar paydo boMsa, psixiatriya shifoxonasida davolanishlari tavsiya etiladi. Bemorlarga degidratatsion terapiya: 2 5 % li 10,0 ml magneziiy sulfat, laziks, 40% li 20,0 ml glukoza tom ir ichiga, seduksen, fenazepam buyuriladi. Agar bem or ruhiy bezovta boMsa - am inazin; vasvasalar boMsa, galoperidol; paroksizmal o'zgarishlarda - benzonal, fenobarbital, depakin tavsiya etiladi. K asallikning tiklanish davrida trankvilizatorlar: sidnokarp, neuleptin, nootropil; uyquni yaxshilovchi dorilardan: eunoptin, dim edrol; jahldorlikda elenium, am inazin neuleptin; holsizlik va tez charchash boMganda jenshen, eleutorokokk, sidnokarp; vegetativ o'zgarishlarda seduksen; diensefal o'zgarishlarda esa belloid, betaserk, bellospan, bellataminal dorilaridan berish tavsiya etiladi.

Nazorat savollari

1. Tutqanoqxurujining kelib chiqish sabablarini malardan i borat?
2. Epilepsiyada aural belgilari qanday kechadi?
3. Tutqanoqxurujlarida birinchi yordam qanday ko'rsatiladi?
4. Boshmiyajarohatida ruhiy o'zgarishlar qanday paydo boMadi?

Psixogeniyalar

Psixogeniyalar ruhiy jarohatlar natijasida paydo bo'ladigan kasallik bo'lib, unga psixogen kasalliklar: reaktiv psixozlar va nevrozlar kiradi. Odam ruhiy jarohatlanishga kutilmaganda, to'satdan yoki asta-sekin uchrashi mumkin. Masalan, bunga yer qimirlashi, suv toshqini, fojialar, bosqinchilik, yaqin kishilarning kutilmaganda vafot etganligi to'g'risida xabar sabab boMishi mumkin. Nevrozlar markaziy asab tizimi faoliyatining psixogen yo'l bilan kelib chiqqan funksional buzilishidir. Nevrozlarning kelib chiqishiga uzoq vaqt tez-tez takrorlanib turuvchi ruhiy ezilish sabab boMadi. Bundan tashqari, ruhiy iztiroblar, shaxsning asosiy xususiyatlari, nasl-irsiyat ham muhim ahamiyatga ega. Nevrozlarning

rivojlanishi zamirida bosh miyaning tormozlanishi va qo'zg'alish jarayonlarining zo'rayishi, susayishi, ular orasidagi muvozanatning buzilishi (nevrasteniya) yoki bosh miyada qo'zg'alish o'choqlarining paydo bo'lishi (yopishqoq fikrlar) va miya po'stlogi, po'stloqosti jarayonlari muvozanatining buzilishi (isteriya) yotadi.

20- Mavzu. Bolalar psixozlari va nevrozlari.

Psixopatiyalar

Psixopatiya - emotsional iroda buzilishidan xarakterning, ya'nife'l-atvorning kasallik tusiga kirishidir. Boshqacha aytganda,psixopatiya xarakter kasalligidir. O dam ning atrofdagilarga moslashib olishi qiyinlashib qoladi. Bunday odam lar o'zlarining ishlaydigan jam oalari bilan yaxshi chiqisha olmaydi lar. U lar doimo janjallashib turishadi. Psixopatlar tajovuzkor boMib, o'z xarakterining g 'alatiligidan o'zlari qiynalib yuradilar.

Psixopatlarning quyidagi turlari bor: Q o ' z g ' a l u v c h I p s i x o p a t l a r - bem orlar arzim agan bahona bilan tutoqib ketadi lar. Bemorlar tajovuzkor boMib, ko'pchiligida ruhiyatning ay nib, isteriya ko'rinishida boMishidir. Bu turdagi bem orlar juda janjalkash, tez hayajonlanuvchi shaxslardir. U lar osoyishtalik davrida o'zlarining yurish-turishlariga tanqidiy ko'z bilan qarab,yoM qo'ygan xato va kam chiliklarini to'g 'rilash choralarini izlashadi.

P s i x o a s t e n i k p s i x o p a t l a r (tormozlanuvchi) – bunday odamlar ko'proq shubha bilan xayol surib, xavotirga tushib yuradilar.Bular uyatchan, tez toliqadigan, boshqalar bilan muloqotga tez kirishib

keta olmaydilar. Bemorlarning ko'pchiligi tortinchoq boiib, saiga qizarib ketishadi. Shuning uchun bemorlar yanada battarroq xijolat tortishadi. Bular ruhan zaif, ish qobiliyati susaygan, ko'ngliga doimo

vahimalar tushib yuradi. Bemorlarning kobproq boshi og'riydi, ular yolglz yurishga harakat qiladi, ko'pchiligi odamlar orasidan qochadi.

Davosi. Psixopatlarni davolashda trankvilizatorlarga, neyroleptiklarga katta ahamiyat berish kerak. Qo'zg'aluvchanlik bilan o'tadigan psixopatik o'zgarishlarga neyroleptiklar (neuleptil, mellipril, stelazin) yaxshi ta'sir ko'rsatadi. Paranoyyal psixopatlarda stelazin, galoperidol, pimoqid (orap) qollaniladi. Agar kasallik o'tkir affektiv qo'zg'alishlar yoki notinchlik bilan kuzatilsa, neyroleptiklar trankvilizatorlar bilan birga tom ir ichiga yuboriladi. Astenik o'zgarishlarda nootropil, ensefabol, glitsin, novopassit, riboksin,

vitaminlar, nikotin kislotasi yaxshi samara beradi. Bemorlarni hayotga moslashtirish maqsadida ularni o'rab turgan muhitni soglom lashtirish, kerak b o lsa bemorlarni vaqtincha ichuvchi,narkoman yoki salbiy ta'sir etuvchi shaxslardan ajratish lozim. Bu borada bemor oilasi bilan psixoterapevtik ishlar olib borish, ular orasida o'zaro tinch munosabatlar yaratish muhim ahamiyatga ega.

Nevrozlar

Nevroz so'zini fanga birinchi b o iib shotland shifokori Kellen 1776-yilda olib kirgan. N e v r o z -b u markaziy asab tizim ining funksional kasalligi hisoblanadi.Nevrozlarning quyidagi alomatlar bor: A s t e n i k a l o r n a t - a s a b va ruhiyatning zaiflashuvi, toliqishi. Juda ko'p kasalliklardan keyin va sog'lom odamlar charchaganda, toliqqanda astenik alomat kuzatiladi. Bunda bosh og'rig'i, bosh aylanishi,

ko'ngil aynishi, serjahlilik, yurak sohasida og'riq, tez charchab qolish, xotiraning susayishi, mehnat qobiliyatining pasayishi va kayfiyatning buzilishi boiib turadi. Bemorlarning uyqusi buziladi, uyqusi yuzaki boiadi, tezda uxlab qolmaydi, ko'p o'ylaydilar, uyqudan turgandan keyin karaxt bo iib turadilar.

O b s s e s s i v a l o m a t - miyadan ketm aydigan holatlar. Bunda bem orlar qilgan ishlarini qayta-qayta tekshirib yuradilar.

M asalan: eshik qulflanganm i yoki yo‘qmi, gaz o‘chirilganm I yoki yobqm i deb bezovta b o iib yuradilar. Bem orlarning miyasiga qo‘rqinchli, vahim ali narsalar o‘rnashib qoladi va ulardan qutulish choralarini ko‘p o‘ylab yuradilar.

F o b i k a l o m a t - b e m o r l a r biror narsalardan qo‘rqib yashaydilar, kardiofobiya - yurak kasali b o iib qolishdan qo‘rqish, *lissophobia* - ruhiy kasal b o iib qolishdan qo‘rqish, *gipsofobiya* - alandlikdan qo‘rqish, *kanserofobiya* - mak kasalligidan qo‘rqish, *klaustrofobiya* - yopiq imoratlardan qo‘rqish, *agorafobiya* - ochiq joylardan qo‘rqish.

I p o x o n d r i k a l o m a t - b e m o r l a r o‘z so g iig ig a nisbatan ortiqcha qayg‘uradilar va ko‘p o‘ylaydilar. Ipoxondrik alomat ruhiy kasalliklarda ko‘p uchraydi va fobiyalar bilan birga kechadi.

Ipoxondrik alomatda bemorlar tanasida uvushish, yoqimsiz histuyg‘ ular va og‘riqlar b o iib turadi.

N e v r o t i k d e p r e s s i y a a l o m a t i - b e m o r l a r tashqi voqealarga befarq, loqayd b o iib qoladilar. Bemorlarning kayfiyati buzilgan, ishtahasi yo‘qolgan va uyqusi buzilgan boiadi. Bemorlar

bir o‘zi y olg iz qolishga intiladi. Nevrotik depressiyada bemorlar o‘zini qo iga oladi, isteriyadagi singari harakatlar qilmaydi.

Nevrasteniya

Nevrasteniya - bu asteniya va depressiya alomatlarining birgalikda qo‘shilishi natijasida yuzaga keladi. Nevrasteniyada bemorlar shikoyati bosh og‘rig‘i, bosh aylanishi, uyqusizlik, yurak sohasidagi uvushish va og‘riq, qoi-oyoqlarning sovuq qotishi, ko‘p terlash, dispeptik buzilishlar - ko‘ngil aynishi, qusish, oshqozon sohasida va ichaklarda og‘riq ham da ich ketishi yoki qotishidir. Bundan tashqari, jinsiy zaiflikdan, tez jahl chiqishidan shikoyat qiladilar. Nevrasteniya qo‘zg‘alishning kuchayishi natijasida ish

qobiliyatining pasayishiga olib keladi. Bunda bemorlar tez charchab qoladi, aqliy va mehnat qobiliyati pasayadi, xotira susayadi.

Bemor tekshirib ko‘rilganda qoMlarida titrash, ko‘p terlash, pay reflekslarining jonlanishi kuzatiladi. Nevrasteniyaning 3 ta turi bor: *G i p e r s t e n i k t u r i*, bunda bemorlarning asabiylashishi, arzimagan narsalardan ta’sirlanishi, saiga ko‘zyosh qilishi va diqqatning buzilishi kuzatiladi.

G i p o s t e n i k t u r i d a bemorlar jism oniy va aqliy qobiliyatining pasayishi, toliqish va uyquchanlik belgilari kuzatiladi.

A r a l a s h t u r i d a bemorlar birpasda asabiylashadilar. Bu toliqish, uyquchanlik belgilari bilan almashinib turadi.

Nevrasteniyada vegetativ o‘zgarishlar ham kuzatiladi. Nevrasteniyaning davolashda bem orning umumiy ahvolini yaxshilovchi dorilar, temir dorilari, glitserofosfat, B guruh vitaminlar, toza havoda sayr qilish, iliq suv muolajalari qabul qilish, fizioterapiya muolajalari hamda shifobaxsh badantarbiya bilan shug‘ullanish tavsiya etiladi.

Uyquchanlik va tez charchash kuzatilganda xitoy limoni, jenshen, pantokrin 30 tomchidan 3 mahal, ovqatdan 30 daqiqa oldin yoki 4 soatdan keyin, bir oy davomida ichiriladi. Qo'zg'aluvchanlik, tez jahli chiqish, asabiylashishda am inazin 0,025 g yoki propazin 0,025 1 tabletkadan 3 mahal ichishga buyuriladi. Vegetativ buzilishlarda trioksazin 0,3 g, elenium 0,01 g dan 2-3 mahal 3 -4 hafta ichishga buyuriladi.

Isteriya

Isteriyaning klinik ko'rinishi turli-tuman bo'lib, uning ba'zi belgilari boshqa bir kasallikka o'xshab ketgani uchun isteriyani «*buyuk taqlidchi*» deb atashadi. Isteriyada bosh miya po'stlog'i tormozlanib, po'stloqosti tugunlari faoliyati oshadi. Natijada, po'stloqosti tugunlarining ixtiyorsiz qo'zg'alishlari va tutqanoq xurujlari paydo boladi. Isteriyada tashqi ta'sirlar bemorning ruhiyatiga ta'sir qilishi natijasida yuzaga keladi. Isteriyada bemor harakati tartibsiz, birdan boshlanadi. Ko'proq kunduz kunlari bo'lib, bunda es-hushi saqlangan bo'Madi. Bemor bo'Mib o'Mgan voqealarni eslaydi. Isteriya tutqanoq xurujida bemor hushdan ketishdan oldin o'ziga qulay joy tanlaydi, so'ng biror joyi lat yemasligi uchun sekin yiqiladi. Agar bemorning atrofida odamlar bolsa, isterik tutqanoq xuruji uzoq davom etishi mumkin. Isteriyada harakat va sezuvchanlikning buzilishi, shuningdek, monoplegiya, paraplegiya, gemiplegiya, giperkinezlar hamda gapira olmaslik, eshita olmaslik (surdomutizm) kuzatiladi. Isteriya falajida mushaklar tonusi o'zgarmaydi, pay reflekslari buzilmagan, patologik reflekslari va atrofiya bo'lmaydi.

Davolash usullarida psixoterapiya keng qo'Mlaniladi.

Miyadan ketmaydigan holatlar nevrozi

Miyadan ketmaydigan holatlar nevrozi obsessiv va fobik alomatlar bilan birgalikda kechadi. Bu nevrozlar nevrasteniya va isteriyaga nisbatan kam uchraydi. Bunda kasallik belgilari miyaga obrnashib qoladi. Bemorning ko'nglida vahimalar, xavotirlanish va qo'rquv hissiyotlari paydo bo'Madi. Bunday bemorlar tekshirib ko'rilganda ichki a'zolar va asab tizimidan asosiy kasallik belgilari topilmaydi.

Bemorlarda ko'proq pay reflekslari biroz jonlangan, qoM panjalarining titrashi, mushaklar tonusi biroz taranglashgan, yurakning tez urishi va ko'p terlash hamda boshqa vegetativ o'zgarishlar

kuzatiladi. Bemorlarda ko'proq fobik alomatlar, ya'ni kardiofobiya, insultfobiya, mizofobiya - o'ziga infeksiya yuqib qolishidan qo'rqish, suisidofobiya - o'zini o'zi o'Mdirib qo'yishdan qo'rqish va boshqa

belgilar kuzatiladi. Bunday nevrozlar uzoq davom etadi va odam mehnat qobiliyatini vaqtincha yo'qotadi.

Yatrogeniyalar. Bu tibbiyot xodimlari bemorlarga nisbatan noto'g'ri muomala qilishi hamda dori-darmonlarni bo'lar-bo'lmasga (ko'proq, yuqori dozalarda) buyurishi natijasida kelib chiqadigan

kasallikdir. Bemorlar bilan suhbat qilganda uning kasalligi to'g'risida ehtiyot bo'lib gapirish lozim. Ba'zi bemorlarning oldida tibbiyot atamalarini so'zlash mumkin emas. Bemorlar esa shu atamalar haqida

o'ylab qolishlari yoki yomon fikrlarga borishlari mumkin. Ko'pchilik bemorlar shifokor tomonidan qo'yilgan tashxisni, uning oqibatini hamshiralardan so'rab oladilar. Ayrim hamshiralarning e'tiborsizligi

tufayli bemorlarga kasallik tarixini ko'rsatib yoki qo'yilgan tashxisni to'liq aytib qo'yadilar. Natijada bemorning sog'ayib ketishiga yomon ta'sir ko'rsatib, ahvolini og'irlashtirib qo'yadilar.

Gipnoz. Gipnoz uyqu bilan uyg'oqlik o'rtasidagi oraliq holatdir, b u - b o s h miya po'stlog'idagi hujayralarning muayyan ta'sirlar (to'satdan berilgan o'ta kuchli yoki kuchsiz ta'sirlar) tufayli yuzaga

keladigan chala tormozlanishdir. Davo maqsadida odam da yuzaga keltiriladigan gipnoz holatlari unga ta'sir ko'rsatib, chala uxlatib qo'yishdir, bunday paytda odam qisman uyg'oq bo'lib, unda saqlanib

qoladigan shu chala uyg'oqlik holati shifokor bilan bemor o'rtasida aloqa o'rnatishga imkon beradi. Davo maqsadida ta'sir ko'rsatish (*suggestio*) - shifokorning m a'lum maqsadni ko'zlab, bemorga so'z

bilan faol ta'sir ko'rsatib borishidir.

Nazorat savollari

1. K a s a l l i k n i m a u c h u n p s i x o g e n i y a d e b a t a l a d i v a u n g a q a y s i

k a s a l l a r k i r a d i ?

2. R e a k t i v p s i x o z l a r n i n g q a n d a y t u r l a r i b o r ?

21- Mavzu. Bolalar shizofreniyasi .

Shizofreniya yunoncha so'zdan olingan bo'lib, ruhning parchalanishi

yoki bo'Minishi degan m a'noni bildiradi. Shveysariyalik olim Bleyler bu kasallikning klinik m anzarasini aniqlagan, shuning uchun Bleyler kasalligi deb ataladi.

Shizofreniya ko'p uchraydigan ruhiy kasalliklardan biri bo'lib, aholi o'rtasida 1-2% gacha uchraydi; ko'proq 15-17 yoshdan boshlanadi. K asallikni keltirib chiqaruvchi sabablardan biri virusli infeksiya va bosh miya jarohatlarining asoratlari natijasida yuzaga keladi. Bundan tashqari, irsiy om illar ham muhim o'rin egallaydi. K asallikda bosh miya po'stlog'i torm ozlanishi natijasida qo'zg'aluvchanlik ortadi.

Bunda po'stloqosti sohasi nazoratdan chiqib, qo'zg'aluvchanlik holati yuzaga keladi. Bosh m iyaning bunday o'zgarishlariga asab hujayralarining zaifligi va oqsil alm ashinuvining buzilishlari sabab bo'Madi. K asallik ko'pincha astenik o'zgarishlar bilan boshlanadi. Bular darm on qurishi, xavotirlanish, tez charchab qolish, atrofdagilarga shubha bilan qarash, yoqtirm aslik va har xil xatti-harakatlar qilish bilan davom etadi.

Shizofreniyaning klinik kechishi xilma-xil bo'Madi. 1. To'xtovsiz davom etib turadigan shakli. Bunda klinik belgilar asta-sekin kuchayib, zo'rayib borish bilan o'Madi. Bunda bem orning ahvoli yaxshilanib qolganini ko'rsatadigan belgilar bo'Mmaydi. Kasallik davomida nevrozsimon vasvasali gallutsinator, gebefrenik va katatonik alomatlar kuzatiladi.

2. Vaqt-vaqti bilan bo'lib turadigan yoki sust kechuvchi shaklida to'satdan, qisqa muddatda psixozlar boshlanib qoladi. Bundan keyin yana musaffolik davri boshlanadi. Bu shaklida shaxsiyat asta-sekin o'zgarib boradi. Bu shakl ko'proq o'smirlik davridan boshlanadi.

Dastlab asabiylashish, ortiqcha fikrlash va miyadan ketmaydigan xayollar paydo bo'Mishi bilan kechadi.

3. Xurujsimon-progrediyent shakli-bunda kasallik xurujlar bilan bo'Mib turadi va uzoqroq davom etadi. X urujlar o'Mib ketgandan so'ng, kasallik belgilari susayib qoladi va yo'qolib ketadi.

Bu shaklida shaxsiyat o'zgarib, aqli pastlik tobora zo'rayib boradi. Kasallik vasvasalar va gallutsinatsiyalar bilan kechadi. Bu shakli 15 yosh va undan katta yoshdagilarda uchraydi.

Shizofreniyada bemorlar fikrlari sayoz, nutq va yozuvi maqsadsiz, tartibsiz bo'Madi. Fikrlash qobiliyati pasayadi, bemorlar ezm a, quruq safsataboz bo'lib qoladi. Avval nevrozsimon o'zgarishlar paydo bo'lib, bemorning kayfiyati o'zgarib turadi.

Bunday bemorlar biror sabab bo'Mmasdan, har joyi og'rib turishidan, tez charchab qolishidan shikoyat qiladi. Bemorning yurish-turishi va xatti-harakatlarida beparvolik, xudbinlik, kamgaplik kuzatiladi va unda atrofdagilardan qochib yurishga moyillik bo'Madi.

Shizofreniyaning oddiy turida bemor beparvo, kamgap, serjahl va kam harakat bo'Mib qoladi. Bu turda yakka qolish, xonalardan chiqmay, bir o'zi o'Mirish istagi ko'proq bo'Madi. Kasallik o'smirlik davrida boshlanadi va sust kechadi. Bunda gallutsinatsiyalar va vasvasalar bo'Mmaydi. Bu turda bemorlar aytilgan gaplarning teskarisini bajarishga harakat qiladilar. Masalan, og'zingni och desa, u og'zini yopib oladi. Bunday holatga negativizm deyiladi.

Shizofreniyaning katatonik turida bemorlar harakatida katatonik qotib qolish yoki katatonik qo'zg'aluvchanlik bo'Madi.

Bemorlar bir joyda qimirlamasdan qotib turadi va bitta so'z yoki harakatni hadeb takrorlayveradi. Bemor sobzlarni, jumalalarni baqirib aytadi, gaplariga tushunib bo'Mmaydi. Bemor oyoq-qo'llarini bukkani holda, gavdaga yaqinlashtirib oladi va uzoq vaqt shunday tinch gapirmay o'Miradi, bu mutizm deb ataladi.

Shizofreniyaning paranoid turida bemorlar hech kimning gapiga ishonmaydi, hamмага shubha bilan qaraydi. O'ziga qarshi tashqaridan jism oniy ta'sirlarni sezgandek bo'Madi. Bunday bemorlar, odamlarni menimdiradi, ovqatimni zaharlab qo'yadi, deb shubha bilan yurishadi. Ba'zi bemorlar esa menga mashinalar radioto'Mqin yuborayapti, deb o'ylashadi. Bu turdagi vasvasalar ko'proq 20-30 yoshdan boshlab uchraydi. Ipoxondrik vasvasalarga chalingan bemor o'zining ichki a'zolarida o'zgarishlar sezadi. Bular yuragim urishdan to'xtab qoldi yoki ichagim yorilib ketgan, deb takrorlayverishadi.

Kasallikning bu turida tez-tez gallutsinatsiyalar bo'Mib turadi. Bemorlar turli ovozlari, buyruqlarni eshitib, ularni bajarmoqchi bo'Madilar, bu Kandinskiy-Klerambo alomati deb ataladi.

Shizofreniyaning gebefrenik turi, bunda bemor quruq safsatabozlik, mantiqsiz qiliqlar qiladi. Bemorlar aftini burishtirib, so'zlarini, qiliqlarini sun'iy takrorlab turadi. Shizofreniyaning bir turi ikkinchi bir turiga almashib turadi. Gebefrenik turi va oddiy

turlari og'Mrroq, katatonik turi esa yengil kechadi.

Davolash usullari. Shizofreniyaning davolashda insulin, sulfazin, am inazin va gipnoz usullari keng qo'Mlaniladi. Insulin terapiya moddalar almashinuvi orqali m a'lum o'zgarish yasab, zaharlanishni kam aytirishdan iborat. Insulin bilan davolashni boshlashdan oldin bemorlardan nahorda qon olib, qondagi qand miqdori tekshiriladi. Organizm ga yuborilgan insulin qondagi qand miqdorini kam aytirib yuboradi. Me'yorda qondagi qand miqdori nahorda aniqlanganda, 9,0 - 11,0 g/l yoki 3,3-5,5 mmol/l ga teng bo'Madi. Insulin yuborilganda, qondagi qand miqdori anchagina kamayib ketadi, bu shok holati deb ataladi yoki gipoglikemik koma holati boshlanadi.

Shokni keltirib chiqaruvchi o'rtacha insulin dozasi 80-100 TB ni tashkil etadi. Ba'zi hollarda, 30 TB miqdorda insulin yuborilganda ham shok holati boshlanadi yoki 150-180 TB miqdorda insulin yuborilganda ham shok holati qayd etilmaydi. Shok holatini paydo qilish uchun esa asta-sekinlik bilan insulin dozasini oshirib borishtavsiya etiladi. Insulinni teri ostiga avval 4 -8 TB dan boshlab, har kuni 4 TB dan ko'Marib borish kerak. Bemorda shok holati paydo bo'Mmaguncha, insulin dozasini oshirib boriladi. Qaysi dozada shok holati boshlansa, shu dozada to'xtatiladi. Davo kursi 25-30 insulin shokidan iborat.

M aniakal-depressiv psixoz

Maniakal-depressiv psixozlar yosh odamlarda va ko'proq ayollarda uchraydi. Kasallik moniakal va depressiv xurujlar bilan kechadi hamda bu xurujlar takrorlanib turadi. Maniakal xuruj depressiv xuruj bilan almashinib turadi. Kasallikning bir necha kundan bir necha yilgacha davom etadigan musaffolik davri bo'Madi. Xuruj 2 oydan 10 oygacha davom etadi. Kasallik depressiv xurujlar bilan boshlanadi. U bosh miya po'stloqosti sohasi - gipotalamusda qo'zg'aluvchanlikning to'xtab, sezuvchanlikning oshishi, vegetativ o'zgarishlar natijasida yuzaga keladi. Natijada, organizmda uglevod almashinuvi buzilib, qondagi qand miqdori oshadi, sut kislotasi kamayadi va yog' almashinuvi kuchayadi.

M aniakal (kayfiyatning ko'Marilishi) shaklida atrofdagi narsalar bem orlarning ko'ziga yaxshi bo'Mib ko'rinadi. Bemorlarning kayfi chog' bo'Mib, ham ma narsalarga qiziqadi, hamma ishlarga aralashib yuradi. Ba'zi bemorlar savollarni ko'p beradigan bo'Madi, ko'p gapiradi. Bemorlar o'zlarining qobiliyatlariga ortiqcha baho beradilar. Masalan, tibbiyotga aloqasi bo'Mmay turib, o'zlarining davolash usullarini taklif etadi. Bunday bemorlar o'z yoshiga to'g'ri kelmaydigan qiliqlarni qiladilar. Ayol bemorlar yoshlari keksa bo'Msa ham lablarini qizil rangga bo'yab, yoshlarning qiliqlarini qilishadi.

Maniakal holatda bem or ko'p gapirishidan so'z va jum lalarni tushirib qoldiradi. Bunday bemorlarning gaplariga tushunish qiyin bo'Madi. Ayrim bemorlar maqsadsiz harakat qilishadi, bironta ishni ham oxirigacha yetkazishmaydi. Kasallikning bu shaklida bemorlar kam uxlaydilar, 2-3 soatgacha charchoqni bilmaydilar, serjahl bo'Mib, saiga janjal qilaveradilar.

Maniakal shakl quyidagi turlarga ega:

1. X u s h c h a q c h a q l i k m a n i y a s i , bunday bemorlarda xushchaqchaqlik, eyforiya (kayfi chog'Mik) va o'zini katta tutish holatlari kuzatiladi.

2. F i k r o ' z g a r u v c h a n l i k m a n i y a s i , tasavvur, idrok etish va fikrlash qobiliyatining o'zgarib turish holatlari kuzatiladi.

3. E k s p a n s i v m a n i y a s i , bunday bemorlar sababsiz ko'plab mablag'1 ishlatadilar va quruq va'dalar berib, pullarni bekorga sarflaydilar.

4. A s a b i y l a s h i s h m a n i y a s i , bunday bemorlarning jahli tez bo'lib, ular atrofdagilar bilan sababsiz urishib, ko'proq janjallashib turadilar.

Depressiv (tushkunlik) shaklida bem orlarning kayfiyati pasaygan, g'amgin, har qanday tashqi ta'sirotlar ularning ko'nglini ko'tarmaydi. Bemorlar sekin ovoz bilan ohista gapiradilar, ko'p vaqt boshni egib, g'am gin bo'lib o'tiradilar. Bemorlarning yaqin kishilariga nisbatan munosabati o'zgarib, loqayd, beparvo b o iib

qoladilar. Depressiv holatda bemorlarda vasvasa paydo bo'lib, o'zini o'zi ayblashga tushadi va o'z hayotini ko'zdan kechirib, yolg'iz o'zini aybdor, deb hisoblaydi. Bunday bemorlar o'zini o'zi oidirishgacha borib yetadi. Shuning uchun bunday bemorlarni shifoxonaga yotqizib, kuzatib turish kerak.

Depressiv shaklning quyidagi turlari bor:

- melankoliya turida bem orlarning kayfiyati pasaygan, g'am ginlik holatlari kuzatiladi;

- ajitirlangan melankoliya turida esa bem or o'zini g'amgin sezsa-da, u torm ozlanmagan, balki qo'zg'algan bo'лади. Bunday bemorlarda o'zini o'zi oidirish hissiyoti kuchli bo'лади;

- ipoxondrik turida bem orlar tanalarida jism oniy yetishmovchilik va og'riq sezadilar. Tanadagi og'riqdan qutulish chorasini izlab, tanalariga har xil shikastlar yetkazadilar;

- vegetativ turi - bemorlarda vegetativ nevrotik buzilishlar kuzatiladi. Maniakal shaklini davolash. Bemorlarda qattiq qo'zg'alish davrida neyroleptiklar: xlorprotiksen 150 - 300 mg, aminazin 300-600 mg gacha, tizersin 150 - 300 mg, galoperidol 30 - 60 mg, majeptil 40 - 70 mg beriladi. Bezovtalik, qo'zg'alish kamayganida neyroleptiklar dozasini kamaytirish kerak. Davolash muddati 2 - 3 oyga cho'ziladi.

22- MAVZU. Psixiatriyada qo'llaniladigan kompleks davo-pedagogik choralar.

Lumbal punksiya qilish. Kerakli anjomlar: zararsizlantirilgan mandrenli igna, orqa miya suyuqligini o'lchaydigan monometr, shpris, spirt, yod, 0,5% li novokain eritmasi, steril paxta, tampon, probirka.

Bemorni punksiya qilishdan oldin ovqatlantirish mumkin emas, siydik pufagi va ichaklari bo'shatilgan bo'lishi kerak. Punksiyada bemor olirgan yoki o'ng tomon bilan yotgan holatda, uning oyoqlari

qomiga yaqinlashgan, boshi oldinga egilgan bo'lishi kerak. Umurtqa pogkonasining pastki ko'krak qismi, bel va dumg'aza sohalarini yodspirt- yod bilan artiladi. Punksiya qilinadigan joy aniqlanib, 0,5% li 2

ml novokain eritmasi yuboriladi. Mandrenli igna bilan III-IV yoki IV-V bel umurtqasi oralig'iga sanchiladi. Bunda orqa miya suyuqligini o'lchaydigan monometr yordamida orqa miya suyuqlik bosimi

o'lchanadi. Tashxis maqsadida 6 -9 ml orqa miya suyuqligi olinadi. Muolajalardan keyin bemorni xonasiga olib borib, ikki soat turmasdan, yonbosh qilib, yostiqsiz yotqiziladi. Ikki kungacha to'shakda turmasdan yotishi lozim. Ikki soatdan keyin

ovqatlantirishga ruxsat etiladi. Urotropinni 0,5 g dan kuniga 3 marta ichishga ruxsat etiladi.

Nevralgiyalarda novokainli blokada qilishga zarur ashyolarni tayyorlash va bajarish. Novokainli blokada kichik jarrohlik usullaridan hisoblanadi. Uni bajarishdan oldin to'liq aseptik va antiseptik qoidalarga amal qilish kerak. Novokainli blokada qiladigan xona doim dezinfeksiyalovchi eritmalar bilan toza lab artilib turilishi, kvars nurlari boiishi shart. Xonada shokka qarshi dorilar tayyor turishi kerak. Zarur ashyolardan zararsizlantirilgan stol, bint, qaychi, qo'l va terini artish uchun 96° li spirt, 5% li yod, shprislar (1,0-20,0), kislorod yuborish uchun Jane, har xil ignalar, kislorod yostiqlar bilan ta'minlanishi kerak. Blokadani bajarish uchun shifokor qolini sovun bilan yaxshilab yuvishi, 0,5% li xlorgeksidin eritmasi va 90° li spirt bilan ikki marta tozalashi shart.

Paravertebral blokada qilish. Umurtqa pog'onasi osteoxondrozi va bel-dumg'aza radikulitlarida og'riq xurujlari kuchli bolganda, paravertebral blokada qilish shart. Bunda bemor soglom tomoni bilan yonbosh yoki chalqancha yotqiziladi. Shpris ignasini umurtqa o'simtalaridan 3 sm yon tomonga, umurtqaning ko'ndalang o'simtasigacha sanchiladi. Keyin igna biroz yuqoriga ko'tarilib, 30° ichkariga burilgan holda, 2 sm gacha kirgiziladi. Ignani umurtqa tanasining yon tomonigacha olib boriladi. Ignaning umumiy chuqurligi 6 sm gacha boiishi kerak. Blokada uchun 0,5-2% li 10-20 ml novokain, gidrokortizon 25-75 mg, vitamin B₁₂ 200-1000 mkg boiishi kerak. Agar blokada to'g'ri qilinsa, bemorda og'riq birdan yo'qoladi. 2-3 kundan keyin blokadani qaytarish mumkin.

Bemorning umurtqa pog'onasini rentgenoterapiyaga tayyorlash. Bunda rentgenoterapiyaga yuborishdan bir kun oldin bemor kechqurun 19⁰⁰ gacha ovqatlangan boiishi kerak. Kechasi soat 22⁰⁰ va ertalab 6⁰⁰ da bemorni tozalovchi huqna qilish zarur. Keyin soat 9⁰⁰ da rentgenoterapiyaga olib borish kerak.

Miya insultlarida ko'rsatiladigan shoshilinch yordam. Gemorragik insult birdan kutilmaganda boshlanadi. Hushning buzilishi, bir necha marta qusish, nafas maromi o'zgarishi (shovqinli nafas eshitiladi), qon bosimi ko'tarilgan, tomir urishi kuchaygan, mushaklar tonusi pasaygan, qorachiqalar toraygan, yoruglikka reaksiyasi yobqolgan, teri rangi ko'kargan va qizargan, gemiplegiya, o'g'iz yarim ochiq holatda, oyoq panjasi tashqariga qarab qolgan boladi. Shoshilinch yordam: qat'iy to'shak tartibi, tilning orqaga tortilib ketishiga yo'l qo'ymaslik, boshni baland qilib qo'yish, 2,4% li eufillin 5-10 ml 40% li glukoza eritmasi bilan t/i, 5% li aminakapron kislota 400 ml, vikasol, ditsinon, yurak faoliyatini yaxshilash uchun 0,05% li strofantin 0,25-1 ml glukoza bilan t/i. Miya shishiga qarshi 1% li laziks 2 ml, qon bosimi baland bo'lsa, 2,5% li aminazin 1 ml, 1% li dibazol 2-4 ml, gemiton 0,3-1 ml m/o. Qusishga qarshi 0,1% li atropin 1,0 ml m/o, bemorda bezovtalik kuzatilsa, 0,5% li seduksen 2 ml m/o qilinadi.

Miya infarkti yoki ishemik insult. Umumiy va mahalliy miya belgilari asta-sekinlik bilan rivojlanib boradi. Bunda hushning chuqur buzilishlari kuzatilmaydi, lekin soat

sayin ko‘payib boradi. Birdan bosh og‘rig‘i, nutq buzilishlari, bosh aylanishi, yuzning oqarishi va gem iparez kuzatiladi. Shoshilinch yordam: qat‘iy to‘shak tartibi, qusishga qarshi dorilar, qon bosimi pasaygan bo‘lsa 10% li kofein 1-2 ml, 1 % li mezaton 1-2 ml, no-shpa 2 -4 ml, kordiamin 1-2 ml, reopoliglukin 400 ml t/i, trental, kurantil buyuriladi.

Bosh miya shikastlanishi. Hushning buzilishi (komagacha), qorachiqqlarning kengayishi, uning yorug‘likka reaksiyasi sustlashgan, nistagm, atoniya, chanoq a‘zolari faoliyati buzilgan. Meningial belgilar kuzatiladi. Nafas olish va yurak faoliyatida o‘zgarishlar ro‘y beradi.

Shoshilinch yordam: qat‘iy to‘shak tartibi, nafas olishni yaxshilash, tilning orqaga ketishiga yo‘l qo‘ymaslik, shok va kollaps holatlarda kordiamin, kofein, mezaton, lobelin. Miya va o‘pka

shishlarida laziks, mannitol, plazma tavsiya etiladi.

Orqa miya shikastlanishi. Og‘ir holatlarda bemorlarda orqa miyaning qaysi joylari zararlanishiga qarab, tetra yoki paraplegiya, sezgi sohasida va chanoq a‘zolarining faoliyati buziladi.

Shoshilinch yordam: bemor um urtqa pog‘onasini immobilizatsiya qilish, qovuqqa kateter solish, og‘riq qoldiruvchi dori – baralgin 5,0 ml t/i qilinadi. Bemorni tashishda yotqizilgan holda, agar

um urtqa pog‘onasining bo‘yin qismi shikastlansa, orqa bilan,

ko‘krak va bel sohasi shikastlansa, qorin bilan yotqiziladi. Bunda yumshoq yostiqcha ko‘krak qafasiga qo‘yilgan holda tashiladi.

Serebrospinal meningit. Kasallik birdan o‘tkir bosh og‘rig‘i, qusish, harorat ko‘tarilishi bilan boshlanadi. Meningial belgilar ijobiy bo‘ladi. Bemor qo‘l-oyoqlarini bo‘g‘imlaridan bukkani, boshini orqaga tashlagan holda yotadi. Shovqin va yorug‘likni yoqtirmaydi. Tomir urishi sustlashgan, pay reflekslari pasaygan bo‘ladi.

Shoshilinch yordam: qat‘iy to‘shak tartibi. Bemorlar alohida ajratilgan xonada yotishi kerak (idish-tovoq, ko‘rpa-to‘shak, sochiq).

Penitsillin 1 mln dan har 4 soatda, tana harorati 4 Γ C va undan yuqori bo‘lsa, reopirin tavsiya etiladi. Miya shishishida laziks, mannit, bem or bezovta bo‘lsa, tinchlantiruvchi dorilar qilinadi.

Anafilaktik shok. Bemorda so‘lak oqishi, aksa urish, yo‘tal, qorinda og‘riq paydo boiadi. O‘pkadan quruq xirillashlar eshitiladi. Qon bosimi pasaygan, sovuq ter bosadi. Behushlik kuzatiladi. Shoshilinch yordam: 0,1 % li adrenalin 0,5-1,0 ml t/o, kerak bo‘lsa, har 15-20 daqiqadan so‘ng qaytarish mumkin. 1 % li dimedrol 2 ml, tavegil, prednizolon 60 mg, 10% li kalsiy xlor 10 ml t/i sekinlik bilan yuboriladi.

Psixomotor qo‘zg‘alishlar. Katatonik qo‘zg‘alishlar: bunda bemorlar, umum an harakat qilmay, bir joyda qotib qoladi. Ba‘zan esa mushaklar tonusi bo‘shashib, pasayib qolganligi kuzatiladi, bemor

gapirmaydi, ovqat yemaydi. Shoshilinch yordam: to‘shak tartibi. 2,5% li am inazin 2 ml yoki 2,5 % li tizersin 1 ml m/o, kordiamin 2 ml, leponeks 200 mg ichishga, zond bilan ovqatlantirish.

G e b e f r e n k q o ‘ z g ‘ a l i s h l a r : bemor o‘zidan o‘zi kulaveradi, har xil qiliqlar qilib aftini burishtiradi, gaplari quruq safsatadan iborat boiadi. Shoshilinch yordam: aminazin, tizersin.

Maniakalqo'zg'alish: bemorni ng kayfiyati yaxshi, ko'p gapiradi, hamma narsalarga qiziqib, aralashib ketadi, ko'ziga hamma narsalar yaxshi bo'lib ko'rinadi. Shoshilinch yordam: aminazin, tizersin.

Gallutsinator-paranoidqo'zg'alishda qo'rqish, xavfsirash, qochish, o'ziga jarohat yetkazishi mumkin. Shoshilinch yordam: aminazin, tizersin, galoperidol 3,0 m/o. *Ajiti rlangan depressiya* da kayfiyatning yomonlashuvi, o'zini ayblash, o'zini oldirishi mumkin. Shoshilinch yordam: to'shak tartibi. Bemorni

kuzatish, 2,5 % li tizersin 3 ml, 1 % li amitriptillin 4-10 ml m/o, leponeks 100 mg ichishga. Delirioz qo'zg'alishda qo'rqish, ko'ruv va eshitish gallutsinatsiyalari, qochishga harakat qilish, atrofdagilardan

xavfsirash kuzatiladi. Shoshilinch yordam: 0,5% li seduksen 2 ml m/o.

Komatoz holatlarda shoshilinch yordam. Koma – hushning yo'qolishi, harakat, sezgi, reflekslarning va boshqa organizm uchun kerak bolgan a'zolar faoliyatining buzilishi bilan o'tadigan holat.

Komatoz holatlarni keltirib chiqaruvchi sabablar: insultlar, bosh miya o'smalari, meningoensefalitlar, umumiy yuqumli kasalliklar, shikastlanishlar, endogen va ekzogen zaharlanishlar (diabet, uremiya, alkogolizm), endokrin kasalliklar. Barcha kom alarning kelib chiqishiga sabab, bosh miya

kislorod yetishmasligidir. Shuning uchun komani davolashda uni keltirib chiqaruvchi sabablar davolanadi. Barcha komalarga oksigenoterapiya o'tkaziladi, organizm dan zaharli toksinlarni

chiqarish uchun gemosorbsiya qilinadi. Bundan tashqari, 5 % li glukoza, 0,9% li natriy xlor, 4 % li natriy bikarbonat eritm alariga kaliy xlor qo'shib tom ir ichiga yuboriladi. Bem orning og'iz-burni

so'laklardan tozalanib, nafas olishini yaxshilash, qon aylanishini yaxshilovchi, miya shishlariga qarshi, talvasaga, infeksiyaga qarshi davo choralari ko'riladi.

G iperglikem ik koma asta-sekin boshlanadi, ishtaha yo'qolishi, ko'ngil aynishi, qusish, og'iz qurishi, chanqash, tez-tez siyish, umum iy holsizlik, uyquchanlik kuzatiladi, qon bosimi pasaygan,

tom ir urishi tezlashgan, aseton hidi seziladi. Og'ir hollarda teri quruq, qorinda og'riq, ta'sirlarga javob bermaydi. Tili quruq, nafas olishi shovqinli, 1 daqiqada 10-12 marta, qorachiqalar toraygan,

yorug'likka reaksiyasi sust, reflekslar sustlashgan. Qon va siydik tarkibida qand miqdori ko'paygan, siydikda aseton bo'Madi. Shoshilinch yordam: zudlik bilan oddiy insulindan 100-200 TB

(shundan yarim dozasi natriy xlor bilan tom ir ichiga, qolgani teri ostiga qilinadi), 0,9% li natriy xlor, Ringer eritmasi, 4 % li natriy bikarbonat, 5% li glukoza kaliy xlor qo'shib tom ir ichiga yuboriladi.

Gipoglikem ik koma. Insulinni ko'p olgan vaqtda paydo boiadi. Bunda charchash, qo'rqish, titrash, ochlik sezish, terlash, yurakning tez urishi, hushi karaxt, ter oqishi, qorachiqalar kengaygan,

y orug likk a reaksiyasi yo'qolgan, tom ir urishi tezlashgan, qon bosimi va tana harorati pasaygan boiad i. Kernig belgisi ijobiy. Siydikda qand va aseton

yo‘q. Shoshilinch yordam: shirinchoy ichirish yoki 10% li glukoza ni qoshiqdan ichirish, 40% 60 ml glukoza, kokarboksilaza, vitamin C, gidrokortizon, kofein qilinadi.

Apomorfinli terapiya o‘tkazish: apomorfinning 1 % eritmasini 0,1 ml dan 0,8 ml gacha oshirib boriladi. Bemorda qusish belgilari paydo bo‘lguncha har kuni yoki kunora mushak orasiga

qilinadi. Keyin bemorga 50 ml spirt ichiriladi. Davo kursi 20 kun.

Antabus-teturam provakatsiyasini o‘tkazish: bemorga har kuni antabus (teturam) berilgandan so‘ng, bir haftadan keyin sinab ko‘riladi. Sinov kunida bemorga ertalab 0,75-1 g antabus, 8-9 soatdan keyin esa 30-50 ml araq ichiriladi. Bemorda 15-20 daqiqadan keyin quyidagi vegetativ o‘zgarishlar kuzatiladi: ko‘ngil aynishi, qusish, teri rangining qizarishi, ba‘zan sianoz, qon bosimi pasayishi, tomir urishi tezlashishi, nafas qisishi, oyoq-qo‘llarning uvushishi. Agar bu belgilar bir yarim soatgacha o‘tib ketmasa, unda bemorga kislorod berish, lobelin, kordiamin, 40% li glukoza 40 ml, qusishga qarshi 0,1 % li atropin 0,5 ml qilinadi. Bemor to‘rt soatgacha shifokor nazoratida turadi.

Amital-kofeinli qo‘zg‘atish o‘tkazish: depressiv holatlarda - ovqat yemay, qimirlamay bir joyda turib qolgan bemorlarga qo‘llaniladi. Bunda 20% li kofein 1 ml teri ostiga qilinadi. 5 daqiqadan so‘ng yangi tayyorlangan 5% li amitil natriy eritmasidan tomir ichiga sekinlik bilan yuboriladi. Bundan keyin bemor bilan muloqotga kirishiladi va ovqatlantiriladi. Davo kursi 5-10 inyeksiya bo‘lib, kunora qilinadi.

Isterik xuruji. Isteriya xurujlari birdan boshlanadi, ruhiy ta‘sirotlar natijasida kelib chiqadi. Isteriya xuruji bir necha daqiqadan bir necha soatgacha davom etadi. Kuchli tashqi ta‘sirotlar og‘riq, sovuq suv, qattiq ovoz ta‘siridan isteriya xuruji bosilishi mumkin. Agar isteriya xuruji uzoq davom etsa, unda bemorni tinchlantirish uchun 2,5% li amiazin 1,0 ml m/o, 2,5 % li kordiamin 2,0 ml, 1 % li dimedrol 2,0 ml, diazepam 2,0 m/o qilinadi. Bundan tashqari, bemorni alohida xonaga yotqizib, uning bilan gipnoz va autotrening mashqlari o‘tkazilishi lozim. Bunda bemor 2-3 seansdan keyin o‘zi gapira boshlaydi. Autotrening kuniga 2 marta - ertalab va kechqurun o‘tkaziladi.

Bosh va orqa miya shikastlarida bemorlarni tashish. Immobilizatsiya maqsadida (Kramer, Diterixs, pnevmatik) shinalardan foydalaniladi. Immobilizatsiya - shikastlangan soha yoki gavdaning qaysidir bir qismining qimirlashini bartaraf qilish va tinch holat yaratishdir. Immobilizatsiya singan, chiqqan, ezilgan joyni qimirlamasligi va tinch turishi uchun qo‘llaniladi. Og‘riqni, karaxtlikni, infeksiya tushishini, qon ketishining oldini olish ham da bemorni bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirish maqsadida ham foydalaniladi. Immobilizatsiya har doim singan sohaning ikki tarafidan 2-3 katta bo‘g‘im sohasini ushlashi kerak. Birinchi shina boshning tepa sohasidan umurtqa pog‘onasini bel sohasigacha to‘g‘ri holatda qo‘yiladi.

Amaliy mashg'ulotlar

1 Mavzu: “Bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarning klinik asoslari” fanining predmeti va vazifalari. Nevrologiya. Nevropatologiya. Ularning o‘rni va ahamiyati.

1. Maqsadi: Nevrologiya va nevropatologiya haqida umumiy tushunchalar o‘rganish

2. Vazifalar:

- 1.Bosh miya haqida umumiy tushuncha.
- 2.Bosh miya bo‘limlari.
- 3.Bosh miya katta yarim sharlari.
- 4.Bosh miya katta yarim sharlar po‘stlog‘i
- 5.Miya po‘stlog‘idagi markazlap
- 6.Bosh miya asosiy patologiyalari

3. Tadqiqot metodlari: suhbat, savol-javob, ko‘rgazmalilik.

4. Bajarish bosqichlari:

1. Mavzu haqida umumiy tushuncha
2. Bosh miya bo‘limlari haqida ma‘lumot to‘plash
3. Bosh miya katta yarim sharlari haqida ma‘lumot to‘plash
4. Bosh miya katta yarim sharlar po‘stlog‘i haqida ma‘lumot to‘plash
5. Miya po‘stlog‘idagi markazlap haqida ma‘lumot to‘plash
6. Bosh miya asosiy patologiyalari haqida ma‘lumot to‘plash

5. Tadqiqot faoliyati natijalari: taqdimot, kichik ma‘ruza, blits-so‘rovnoma, klaster bo‘lishi mumkin.

6. O‘quv-tadqiqot faoliyatidan kelib chiqadigan xulosalar:

1. Talabalar mavzu haqida umumiy tushunchaga ega bo‘ladilar.
2. Bosh miya bo‘limlari, bosh miya katta yarim sharlari, bosh miya katta yarim sharlar po‘stlog‘i haqida ma‘lumotga ega bo‘ladilar.
3. Miya po‘stlog‘idagi markazlari, bosh miya asosiy patologiyalari haqida ma‘lumotga ega bo‘ladilar.

Адабиётлар

1. Brain Facts. A PRIMER ON THE BRAIN AND NERVOUS SYSTEM.
Copyright ©2005, 2006 Society for Neuroscience 1121 14th Street, NW, Suite
1010 Washington, DC 20005 USA (p.4)
2. A.G'. Ahmedov . Odam anatomiyasi. T.- 2005 y.
3. F. Bahodirov. Odam anatomiyasi. T. - 2005 y.
4. Анатомия человека. Т-2. Под ред. М.Р.Сапина. М.- 2001 г.
5. И.И.Бобрик, В.И. Минаков. Атлас анатомии новорожденного. Киев- 1990
г.

Dasturning informatsion-metodik ta'minoti

Elektron ta'lim resurslari

1. [www. tdpu. uz](http://www.tdpu.uz)
2. www. pedagog. uz
3. www. Ziyonet. uz
4. www. edu. uz
5. [tdpu-INTRANET. Ped](#)

2 Mavzu: Inson boshmiyasi. Uning tuzilishi va funksiyalari. Patologiyasining asosiy ko‘rinishlari.

1. Maqsadi: Неврология ва невропатология ҳақида умумий тушунчалар o‘rganish

2. Vazifalar:

1. Бош миё ҳақида умумий тушунча.
2. Bosh miya bo‘limlari.
3. Bosh miya katta yarim sharlari.
4. Bosh miya katta yarim sharlar po‘stlog‘i
5. Miya po‘stlog‘idagi markazlap
6. Бош миё асосий патологиялари

3. Tadqiqot metodlari: suhbat, savol-javob, ko‘rgazmalilik.

4. Bajarish bosqichlari:

1. Mavzu haqida умумий тушунча
2. Bosh miya bo‘limlari haqida ma‘lumot to‘plash
3. Bosh miya katta yarim sharlari haqida ma‘lumot to‘plash
4. Bosh miya katta yarim sharlar po‘stlog‘i haqida ma‘lumot to‘plash
5. Miya po‘stlog‘idagi markazlap haqida ma‘lumot to‘plash
6. Бош миё асосий патологиялари haqida ma‘lumot to‘plash

5. Tadqiqot faoliyati natijalari: taqdimot, kichik ma‘ruza, blits-so‘rovnoma, klaster bo‘lishi mumkin.

6. O‘quv-tadqiqot faoliyatidan kelib chiqadigan xulosalar:

1. Talabalar mavzu haqida умумий тушунчaga ega bo‘ladilar.
2. Bosh miya bo‘limlari, bosh miya katta yarim sharlari, bosh miya katta yarim sharlar po‘stlog‘i haqida ma‘lumotga ega bo‘ladilar.
3. Miya po‘stlog‘idagi markazlari, бош миё асосий патологиялари haqida ma‘lumotga ega bo‘ladilar.

Адабиётлар

1. Brain Facts. A PRIMER ON THE BRAIN AND NERVOUS SYSTEM.
Copyright ©2005, 2006 Society for Neuroscience 1121 14th Street, NW, Suite 1010 Washington, DC 20005 USA (p.4)
2. A.G'. Ahmedov . Odam anatomiyasi. T.- 2005 y.
3. F. Bahodirov. Odam anatomiyasi. T. - 2005 y.
4. Анатомия человека. Т-2. Под ред. М.Р.Сапина. М.- 2001 г.
5. И.И.Бобрик, В.И. Минаков. Атлас анатомии новорожденного. Киев- 1990 г.

Dasturning informatsion-metodik ta'minoti

Elektron ta'lim resurslari

1. [www. tdpu. uz](http://www.tdpu.uz)
2. [www. pedagog. uz](http://www.pedagog.uz)
3. [www. Ziyonet. uz](http://www.Ziyonet.uz)
4. [www. edu. uz](http://www.edu.uz)
5. [tdpu-INTRANET. Ped](#)

Texnologik xususiyatlardan kelib chiqqan holda keysning tavsifnomasi:

Bu tashkiliy institutsional keys bo'lib, ma'lumotlar vaziyatlar va savollar asosida tuzilgan. Hajmi o'rtacha, tizimlashtirilgan bo'lib, treningga mo'ljallangan o'quv mavzu bo'yicha bilim va ko'nikmalar hosil qilishga qaratilgan. Didaktik maqsadlarga ko'ra keys muammolarni taqdim qilishga, ularni hal etishga, tahlil qilish va baholashga qaratilgan.

Tavsiya etilgan keysni yechish quyidagi natijalarga erishishga imkon yaratadi:

- o'zlashtirilgan mavzu bo'yicha bilimlarni mustahkamlash;
- muammoning hamda qabul qilingan yechimning individual va guruhiiy tahlilida bilim va ko'nikmalarni qayta topshirish;

- mantiqiy fikrlashni rivojlantirish;
- mustaqil ravishda qaror qabul qilish ko'nikmalarini egallash;
- o'quv axborotlarini o'zlashtirish darajasini tekshirib ko'rish.

Ish bosqichlari
1. Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishish
2. Berilgan vaziyat bilan tanishish
3. Muammoli vaziyatni tahlil qilish
4. Muammoli vaziyatni yechish usul va vositalarini tanlash hamda asoslash

Amaliy mashg'ulotda ishtirok etish qoidalari

1. Darsda faol ishtirok etish.
2. O'zgalarni fikrini hurmat qilish.
3. Guruh ishlarida o'zaro faol ishtirok etish.
4. Berilgan topshiriqlarga javobgarlik bilan yondashish.
5. Guruh a'zolariga yordam berish.

1 TOPSHIRIQ

5. Кадимги Греция ва Рим империяси нейрохирургияни ривожланиши
6. Кадимги Осиё худудида нейрохирургияни ривожланиши
7. X-XVIII асрлар давомида Европа длатларида нейрохирургияни ривожланиши
8. Собик шурулор хокимияти даврида нейрохирургия
9. Ўзбекистон Республикаси мустақилликни кулга киритгач нейрохирургияни ривожланиши

2 TOPSHIRIQ

O'quv vazifalari (guruhlar uchga bo'linadi)

1-vazifa (guruh)

Eshitishda nuqsoni bulgan bolalarning tarkibi haqida to'liq ma'lumot bering

2-vazifa (guruh)

Kar va zaif eshituvchi bolalarga psixologo-pedagogik xarakteristika tuzish haqida to‘liq ma’lumot bering

3-vazifa (guruh)

Kar va zaif eshituvchilarni o‘qitishning o‘ziga xos usullari haqida to‘liq ma’lumot bering

3 TOPSHIRIQ**BBB strategiyasi jadvali**

BILAMAN	BILIB OLDIM	BILMOQChIMAN	

3 Mavzu: Bosh miya patologiyasining inson umumiy salomatligiga ta'siri

1. Maqsadi: “Bolalar rivojlanish nuqsonlarining klinik asoslari” fanining maqsad va vazifalarini o'rganish.

2. Vazifalar:

- ona qornida homilaning rivojlanishi haqida ma'lumot yig'ish;
- anomal rivojlanishning asosiy sabablari haqida ma'lumot yig'ish;
- bosh miya harakat nervlarining funksiyasi va shikastlanishi haqida ma'lumot yig'ish;
- bosh miya nervlarini tekshirish usullarini o'rganish.

3. Tadqiqot metodlari: suhbat, savol-javob, ko'rgazmalilik.

4. Bajarish bosqichlari:

1. Ona qornida homilaning rivojlanishi haqida ma'lumot yig'ish;
2. Anomal rivojlanishning asosiy sabablari haqida ma'lumot yig'ish;
3. Bosh miya harakat nervlarining funksiyasi va shikastlanishi haqida ma'lumot yig'ish;
4. Bosh miya nervlarini tekshirish usullarini o'rganish.

5. Tadqiqot faoliyati natijalari: taqdimot, kichikma'ruza, aqliy hujum.

6. O'quv-tadqiqot faoliyatidan kelib chiqadigan xulosalar:

- ona qornida homilaning rivojlanishi haqida ma'lumot yig'adilar;
- anomal rivojlanishning asosiy sabablari haqida ma'lumotlarni o'rganadilar;
- bosh miya harakat nervlarining funksiyasi va shikastlanishi haqida ma'lumotlarni to'playdilar;
- bosh miya nervlarini tekshirish usullarini o'rganadilar. **Foydalaniladigan**

adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar

1. Po'latxo'jayeva M.R. Defektologiyaning klinik asoslari. O'quv qo'llanma. T., TDPU – 2013.
2. Alimov X.A., Manasypova I.X. Некоторые вопросы организации и развития психиатрической помощи в Узбекистане. Труды Ташкентской психиатрической больницы. III том. Т.: 1996
3. Аграновский М.Л. Общая медицинская психология и психопатология. Андijan. «Андижон», 2004 – 215
4. Sodiqova Q, Aripova S.X, Shaxmurova G.A . Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi. T., “Yangi asr avlodi” - 2009.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Aytmetova S.Sh. **Yordamchi maktab o'quvchilarining psixik rivojlanish xususiyatlari. T., "O'qituvchi", 1984.**
2. Mamedov K, Po'latova F. **Oligofrenopedagogika. T., TDPU- 1996.**
3. Mamedov K, Shoumarov G', Podobed V. **Psixik rivojlanishi sustlashgan bolalar xaqida. T., 1999.**
4. Shomahmudova.R. **To'g'ri talaffuzga o'rgatish va nutk o'stirish. T., Uzinkomsentr, 2002.**
5. Ayupova M. **Logopediya.** "O'zbekiston faylasoflari miliy jamiyat nashriyoti", T.:2007.
6. Shoumarov G'.B. **Aqli zaif bolalar psixologiyasi. T.: "O'qituvchi", 1994.**
7. Swaab D.F. (Eds.) **The Human Hypothalamus: Basic and Clinical Aspects: Part 2. Neuropathology of the Human Hypothalamus and Adjacent Brain Structures.** Amsterdam: Elsevier, 2004. — 597 p.

Dasturning informatsion-metodik ta'minoti Elektron ta'lim resurslari

1. [www. tdpu. uz](http://www.tdpu.uz)
2. www. pedagog. uz
3. www. Ziyonet. uz
4. www. edu. uz
5. tdpu-INTRANET. Ped

Texnologik xususiyatlardan kelib chiqqan holda keysning tavsifnomasi:

Bu tashkiliy institutsional keys bo'lib, ma'lumotlar vaziyatlar va savollar asosida tuzilgan. Hajmi o'rtacha, tizimlashtirilgan bo'lib, treningga mo'ljallangan o'quv mavzu bo'yicha bilim va ko'nikmalar hosil qilishga qaratilgan. Didaktik maqsadlarga ko'ra keys muammolarni taqdim qilishga, ularni hal etishga, tahlil qilish va baholashga qaratilgan.

Tavsiya etilgan keysni yechish quyidagi natijalarga erishishga imkon yaratadi:

- o'zlashtirilgan mavzu bo'yicha bilimlarni mustahkamlash;
- muammoning hamda qabul qilingan yechimning individual va guruhiiy tahlilida bilim va ko'nikmalarni qayta topshirish;
- mantiqiy fikrlashni rivojlantirish;
- mustaqil ravishda qaror qabul qilish ko'nikmalarini egallash;
- o'quv axborotlarini o'zlashtirish darajasini tekshirib ko'rish.

Ish bosqichlari
1. Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishish
2. Berilgan vaziyat bilan tanishish

